

S.ADILOVA, M.SIDIQOVA,
I.QUVONDIQOVA, A.MIRAZIZOV.

A M A L I Y
O‘ZBEK TILI

OLIY O‘QUV YURTI RUS GURUHLARI UCHUN METODIK
QO‘LLANMA

TOSHKENT-2011

S.ADILOVA, M.SIDIQOVA,
I.QUVONDIQOVA, A. MIRAZIZOV.

A M A L I Y O‘ZBEK TILI

OLIY O‘QUV YURTI RUS GURUHLARI UCHUN METODIK
QO‘LLANMA

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan ikkinchi nashri

TOSHKENT-2011

Ushbu qo‘llanma oliy o‘quv yurtlari ijtimoiy-gumanitar fakultetlarining rusiyzabon talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda talabalarning o‘zbek tilida kasbga oid nutqiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish maqsadi ko‘zda tutilgan.

Taqrizchilar: f.f.d., prof. R.Niyozmetova,
f.f.n., dotsent H.Ismoilov

Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy Kengashining 2009-yil 29-dekabrdagi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Nizomiy nomidagi TDPU

So‘z boshi

Ushbu o‘quv qo‘llanma rus guruhi talabalarining o‘zbek tilida kasbga oid nutqiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish maqsadini ko‘zda tutadi. Qo‘llanma 2 qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismi barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun umumiydir.

Ikkinchi qismda esa ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha matnlar berilgan bo‘lib, ular ustida ishlash hamda topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalarining o‘z kasbiy yo‘nalishiga oid so‘zlar va terminlarni o‘zlashtirishi, nutqini takomillashtirishi maqsad qilib qo‘yiladi.

I QISM

1-mashg'ulot

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TA'LIM TIZIMI

1-topshiriq. Matnni o'qing. Notanish so'zlar lug'atini tuzing.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OLIY TA'LIM TIZIMI

Kadrlar tayyorlash milliy modelida uzluksiz ta'lim tizimining oliy ta'limiga alohida e'tibor qaratilgan. Uning maqsadi respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojiga o'z hissasini qo'shadigan, bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali faoliyat yuritadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq 1998-yildan oliy ma'lumotli mutaxassislarni ikki bosqichda – bakalavriat va magistratura bosqichlarida tayyorlash tizimi joriy etildi.

Talabalarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish davlat grantlari va to'lov-shartnoma asosida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda oltmishdan ziyod oliy ta'lim muassasalari – universitetlar, institutlar va boshqa bilim dargohlari oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Mamlakatimizda texnik yo'nalishda ta'lim beruvchi 14 ta, gumanitar yo'nalishda – 15 ta, pedagogik yo'nalishda - 5 ta, tibbiyot sohasida - 5 ta, agrar yo'nalishda - 4 ta hamda bir qator ixtisoslashgan universitet va institutlar mavjud. Shuningdek, respublikaning turli shaharlarida oliy o'quv yurtlarining filiallari ishlab turibdi.

Hamkorlik natijasida mamlakatimizda yetakchi xorijiy universitetlarning filiallari faoliyat ko'rsatmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar asosan o'zbek, rus, qoraqalpoq, ba'zi mutaxassisliklar bo'yicha ingliz, qozoq, tojik, turkman tillarida olib boriladi.

Respublikamiz oliy ta'lim maskanlarida elektron kataloglar, virtual kutubxonalar yaratilgan, elektron darsliklar va qo'llanmalar tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

Professor-o'qituvchilar xorijdagi hamkasblari bilan tajriba almashish imkoniga egalar. Iqtidorli talabalar turli mamlakatlarga grant asosida o'qishga yuborilishi yo'lga qo'yilgan. O'qish va ilmiy izlanishda faollik

ko'rsatgan talabalar Prezident stipendiyasi, Ulug'bek, Navoiy va boshqa allomalarimiz nomi bilan ataluvchi maxsus stipendiyalarga sazovor bo'lishadi.

Mamlakatimiz talabalari o'rtasida fan olimpiadalari, ilmiy-amaliy anjumanlar, sport universiadalari, turli madaniy-ma'rifiy ko'rik-tanlovlar muntazam ravishda o'tkaziladi.

Bularning barchasi oliy ta'lim muassasasida o'qish yillarining "oltin davr" deb atalishiga sababdir.

2-topshiriq. Matnga savollar shaklida reja tuzing va matn mazmunini so'zlab bering.

3-topshiriq. O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim bosqichlari haqida so'zlab bering, ularni chizmada tasvirlang.

4-topshiriq. O'zingiz o'qiydigan fakultetning ilg'or talabalari haqida maqola yozing.

5-topshiriq. Siz o'qiyotgan fakultet (bo'lim) haqida universitet yoki institutingizning Internet saytiga kiritilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni yozing. Ushbu ma'lumotlarni boyitish uchun fotosuratlar tanlang. Nima uchun ularni tanlaganingizni izohlang.

6-topshiriq. Kelajakdagi rejalaringiz haqida kichik hikoya tuzing va daftaringizga yozing. Mumkin bo'lgan hollarda kelasi zamon fe'llarini hozirgi-kelasi zamon fe'llari bilan almashtiring. Matnning umumiy mazmunida qanday o'zgarish bo'lganini tushuntiring. Matn tuzish uchun quyida berilgan savollardan foydalaning.

Namuna: - *Siz kelajakda kim bo'lmoqchisiz?*

- *Men kelajakda o'qituvchi bo'lmoqchiman.*

- *Men kelajakda o'qituvchi bo'laman.*

Siz kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

Nima uchun aynan shu kasbni tanladingiz?

Bu kasbning murakkab tomonlari nimada?

Tanlagan kasbingizni puxta egallash uchun nimalar qilyapsiz?

Qaysi fanlarni qunt bilan o'rganish lozim?

Maqsadga yetish uchun Internet yoki masofaviy ta'lim tizimidan qanday foydalanish mumkin?

Universitet (institut)da olayotgan nazariy bilimlaringizni amaliyotda

qanday qo‘llamoqchisiz?

Yaxshi mutaxassis bo‘lish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanyapman deb o‘ylaysizmi?

Yana qanday orzu-umidlaringiz bor?

Lug‘at

aynan – именно

qunt bilan o‘rganmoq – тщательно изучать

masofaviy ta’lim – дистанционное образование

7-topshiriq. Haftalik dars jadvalingizni o‘zbek tilida yozing, fanlarning o‘zbekcha nomlanishiga e’tibor bering.

8-topshiriq. Tanlagan kasbingizga mos rolli o‘yinda ishtirok eting (masalan, «Boshliq va xodim», “Yarim yillik hisobot muhokamasi”). Bunda o‘z ixtisosligingizga oid terminlardan foydalaning.

2- mashg‘ulot

ONA TABIAT – QO‘RIQXONA!

1-topshiriq. She’rni o‘qing. Ma’nosini so‘zlab bering. She’rni yod oling.

BIR NIHOL

Yurtdoshim, bog‘ingga bir nihol qada,

Bu nihol nomini Yaxshilik ata.

Niholing yoniga bir gul ekib qo‘y,

U gulning ismini Go‘zallik deb qo‘y.

Gul-u niholingga baxsh etib hayot,

Suv ber va bu suvga Mehr deb qo‘y ot.

Sendan farzandingga bog‘ qolsin, ey do‘st,

Bog‘ing Vatan degan nom olsin, ey do‘st.

Erkin Vohidov

2-topshiriq. Nihol, qadamoq, mehr, yaxshilik so‘zlarining ma’nosini aniqlang. Ushbu so‘zlar ishtirokida birikmalar tuzing.

3-topshiriq. Mahallangiz, ko‘changizga berilgan nom, uning tarixi haqida nimalar bilasiz? Siz mahallangiz obod bo‘lishi uchun nimalar qilayotganingiz to‘g‘risida so‘zlab bering. Hikoyangizni daftaringizga yozing.

4-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning sinonimik qatorini yozing: yurtdosh, nihol, qada, yaxshilik, go‘zallik, farzand, nom.

5-topshiriq. Matnni o‘qing. Uning mazmunini so‘zlab berish uchun reja tuzing.

TABIAT HIMOYAGA MUHTOJ

Otang ketsa agar, ota bo‘larsan,
Onaning o‘rnini bosgay qiz, singil.
Dengizing qurisa ne ham qilarsan?
Qayga bosh urarsan, ey mungli ko‘ngil?
Abdulla Oripov

«Inson – tabiat farzandi», - deydi dono xalqimiz. Inson tabiat bag‘rida vujudga keladi va kamol topadi. Kishilar qalbida go‘zallikni his etish, uni ardoqlash, borliqqa mehr qo‘yish tuyg‘usini uyg‘otish eng muhim vazifalardan biridir.

Havo, suv, oziq-ovqat, sanoat uchun xomashyo kabi o‘ziga zarur bo‘lgan hamma narsani inson tabiatdan oladi. Odamlar o‘zlarini o‘rab turgan tabiiy muhit bilan doimiy aloqada bo‘lib, uni to‘xtovsiz o‘zgartirib borishadi.

Biroq inson tabiatga ikki tomonlama: ijobiy va salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Bir tomondan, inson tabiatni boyitadi. Ikkinchidan, aholining keskin ko‘payishi, shaharlarning kengayishi, yangi industrial markazlarning vujudga kelishi, ayniqsa, mashinasozlik va og‘ir sanoatning rivojlanishi, qishloq xo‘jaligini kimyolashtirish natijasida biosfera, havo va suv ifloslanib, tabiiy muvozanat buzilib bormoqda.

Atmosferani toza saqlash, flora va faunani qirilib ketishdan asrab qolish, suv havzalarining sofliгинi ta’minlash va hokazolar barcha davlatlar ishtirokida hal etilishi kerak bo‘lgan dolzarb xalqaro vazifalardir.

Diyorimizdagi ekologik muammolardan ko‘pchilikning xabari bor: Orol dengizi qurib borishi bilan bog‘liq tabiat muvozanatining buzilishi,

chuchuk suv miqdorining kamayib borishi, sanoat hududlari va shaharlardagi havoning zaharlanishi...

Tabiat inson uchun xizmat qilar ekan, undan oqilona va odilona foydalanish kerak.

Xalqimizda an'anaviy tabiat va mehnat bayramlari keng nishonlanadi. Masalan, Navro'z, gullar bayrami, lola sayli, qushlar bayrami, qovun sayli, obodonlashtirish tadbirlari kabilar yosh avlodda atrof-muhitni asrab-avaylab, tabiiy go'zallikning qadriga yetish tuyg'ularini shakllantiradi. Ekologik tarbiyani amalga oshirishda madaniy-ma'rifiy, targ'ibot va tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish zarur.

Yerga, suvga, hayvonot va o'simliklar dunyosiga bo'lgan munosabatimizni yaxshilash orqaligina ona tabiatimizni asrab qolish mumkin. Inson tabiat farzandi ekan, farzandning onaga mehribonlik qilishi umuminsoniy burchdir.

Lug'at

mungli – печальный
his etish – чувствовать
ardoqlash – лелеять, беречь
borliq - здесь: весь мир
xomashyo – сырьё
ijobiy – положительный
salbiy – отрицательный
ta'sir o'tkazmoq – влиять
boyitmoq – обогащать
keskin – резко
vujudga kelmoq – появляться
tabiiy muvozanat – естественный баланс
suv havzalari – водоёмы
chuchuk suv – пресная вода
zaharlanmoq – отравляться
oqilona – разумно
odilona – справедливо
targ'ibot – пропаганда
tashviqot – агитация
munosabat – отношение, связь

6-topshiriq. Umumbashariy va mintaqaviy ekologik muammolar nimalardan iboratligi haqida so'zlab bering.

7-topshiriq. Savollarga javob bering:

Inson tabiatni qanday qilib boyitadi?

«Jonli tabiat» deganda nimani tushunasiz?

Qaysi qush (daraxt, hayvon) larni yoqtirasiz? Nima uchun?

Suvni isrof qilmaslik degani nima?

Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish degani-chi?

So‘nggi yillarda sayyoramiz iqlimi qanday o‘zgardi?

Buning sababi nimada?

Uyingizda qanday jonivorlar bor? Ularga munosabatingiz qanday?

8-topshiriq. Sonlarni so‘z bilan yozib, gaplarni daftaringizga ko‘chiring.

Ayrim manbalarga ko‘ra, Respublikamizda yovvoyi hayvonlarning 99, parrandalarning 410, baliqlarning 79 turi mavjud.

Ulardan 32 hayvon, 31 parranda, 5 baliq turi O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»iga kiritilgan.

Uning birinchi nashrida 163 tur o‘simlik noyob va yo‘qolib borayotgan turlar sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa, keyingi nashriga 400 tur o‘simlik kiritilishi ko‘zda tutilgan.

3- mashg‘ulot

SOG‘LOM AVLOD – O‘ZBEKISTON KELAJAGINING POYDEVORI

1-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

ЧТО ВЛИЯЕТ НА ЗДОРОВЬЕ ЛЮДЕЙ?

Абул Баракат Кадыри ибн Мухаммад Насруллах (XV в.) в своей книге «Качкули Султания» («Книга султанов») пишет:

Следующие факторы плохо влияют на здоровье людей:

- употребление спиртных напитков, курение;
- неосторожное отношение с животными (ставить перед ними пищу, воду, которую человек хочет позже употребить);
- чересчур много кушать, есть слишком горькую пищу;
- расчесывать свои волосы чужой расческой;

- оставлять открытой посуду с чистой водой, вообще, с пищевыми продуктами;

- шить иголкой одежду, в которую в данный момент одет человек;

- быть злым и коварным, всегда думать о плохом.

А следующие факторы благоприятно влияют на здоровье людей:

- мало есть, мало говорить, меньше спать, душиться приятными духами, часто купаться;

- часто чистить зубы, чисто и красиво одеваться, вовремя стричь волосы и ногти;

- быть приветливым и искренним, добрым и радушным во всех отношениях, помогать слабым и малоимущим людям.

2-topshiriq. Quyidagi soʻzlarning oʻzbekcha muvofiqʻini va antonimlarini yozing.

Плохо, позже, много, чистый, чисто, добрый, слабый.

3-topshiriq. Yuqorida koʻrsatilganlardan tashqari, yana qaysi holatlar inson salomatligiga ijobiy yoki salbiy taʻsir koʻrsatishi haqida fikringizni yozma bayon eting.

4-topshiriq. Savollarga javob bering:

Bugungi kunda oʻz bilimi, iqtidori, mehnati tufayli elga tanilgan insonlardan kimlarni bilasiz?

Kimga oʻxshagingiz, taqlid qilgingiz keladi, nima uchun?

Siz jamiyatda munosib oʻrin egallashingiz uchun, hurmat va obroʻ qozonishingiz uchun nimalar qilishingiz kerak?

Atrofingizda, kichik boʻlsa-da, foydali mehnat qilib, boshqalarga yordam berayotgan, oʻrnak boʻlayotgan, har kuni oʻz vazifasini sidqidildan bajarib kelayotgan odamlar haqida nima deya olasiz?

Agar shu insonlar oʻz ishini qilmay qoʻysa, nima oʻzgaradi?

“Har bir odamning qadriga yetish kerak” deganda nimani tushunasiz?

5-topshiriq. Mamlakatimizda qabul qilingan “Sogʻlom avlod uchun ” Davlat dasturi haqida bilganlaringizni aytib bering.

4- mashg‘ulot

O‘ZBEKISTON SPORTI

1-topshiriq. Matnni o‘qing, mazmuni yuzasidan suhbat uyushtiring.

UNIVERSIADA

Yurtimizda istiqlolning dastlabki yillaridan farzandlarimiz qalbida sportga mehr va havas uyg‘otishga alohida e‘tibor berilmoqda. O‘quvchi va talabalar, ayollar, nogironlar sport bilan shug‘ullanishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish davlatimiz diqqat markazida turibdi. Shahar va qishloqlarda, maktab, litsey va kollejlarda, oliy o‘quv yurtlari qoshida eng zamonaviy talablarga javob beradigan sport majmualari va inshootlari barpo etilmoqda.

Bunday keng ko‘lamli ishlar samara berayotgani barchaga ma‘lum. Ruslan Chagayev va Rustam Qosimjonov, Muhammadqodir Abdullayev va Armen Bagdasarov, Dilshod Mansurov va Abdulla Tangriyev, Go‘zal Xubbiyeva va Maftuna To‘xtasinova, Rustam Saidov va O‘tkirbek Haydarov kabi yoshlarimiz eng nufuzli xalqaro musobaqalarda yorqin g‘alabalari bilan vatanimiz shuhratini tarannum etib, dunyo ahlini hayratda qoldirmoqda.

Uch bosqichdan iborat uzluksiz tizim - “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” o‘yinlari yoshlarning sportga qiziqishini yanada oshirdi...

Lug‘at

havas – желание, увлечение, склонность

diqqat markazida – в центре внимания

majmua – комплекс

barpo etmoq – построить

keng ko‘lamli – широкомасштабный

tarannum etmoq – воспевать

hayratda qoldirmoq – удивлять

uzluksiz tizim – непрерывная система

2-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning sinonimlarini toping:

diyor, mustaqillik, sogʻliq, yutuq, qiyin, bellashuv, ixlosmand, kuylamoq, qurmoq.

3-topshiriq. Quyidagilardan foydalanib, koʻchirma gapli konstruksiyalar tuzing, ulardan oʻzlashtirma gaplarni hosil qiling.
Masalan:

- *200 metrga suzish boʻyicha musobaqalar ertaga boʻlib oʻtadi, - dedi sharhlovchi. Sharhlovchi ertaga 200 metrga suzish boʻyicha musobaqalar boʻlishini aytdi.*

Musobaqalarda uchinchi oʻrinni Samarqand viloyati jamoasi egalladi. Umumjamoʻa hisobida kumush medalga Namangan viloyati talaba-sportchilari sazovor boʻlishdi. Eng yuqori natijaga - universiada gʻolibligiga Toshkent shahri jamoasi erishdi. Navbatdagi universiada Andijon shahrida oʻtadi.

4-topshiriq. Sport turlarining nomidan tashkil topgan krossvord tuzing.

5- mashgʻulot NUTQ USLUBLARI

1-topshiriq. Savollarga javob bering:

Ixtisosligingiz boʻyicha yozilgan kitoblardagi soʻzlar ogʻzaki nutqingizdagi soʻzlardan nimasi bilan farqlanadi?

Gazeta maqolasida koʻproq qanday soʻz va iboralarni uchratish mumkin?

Ariza yozganingizda odatda qanday qolip iboralardan foydalanasiz?

Badiiy asarlarni oʻqiganingizda nima uchun taʼsirlanib ketasiz? Bunga qanday soʻzlar sabab boʻladi?

Yordamchi material: badiiy takror, atamalar, balandparvoz gaplar, majhullik nisbatidagi feʼllar, shevaga xos soʻzlar, tovushlarning tushib qolishi, oʻzgarishi, undovlar, kanselyarizmlar, qolip va klishealar, tasviriy vositalar.

2-topshiriq. Oʻzbek tilidagi asosiy nutq uslublarini eslang va ularni daftaringizga yozib qoʻying.

3-topshiriq. Internet va gazetalardan olingan quyidagi xabarlar

bilan tanishing, ularni rus tiliga tarjima qiling.

Qishki maktab

2008-y. 6-fevral

Toshkentda Fuqarolik jamiyatini o'rganish instituti, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati hamda siyosiy partiyalar hamkorligida faol yoshlar uchun o'tkazilayotgan qishki maktab o'z ishini boshladi.

Yoshlar forumi

2007-y. 25-aprel

2006-yilning 30-martidan beri an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Yoshlar tashabbuslari forumi" to'rtinchi bor start oldi.

Yoshlar tashabbuslari markazi — Urganchda!

2007-y. 2-may

Xorazm viloyati markazi — Urganch shahrida «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi qoshidagi «Kelajak ovozi» yoshlar tashabbuslari markazi o'z ishini boshladi.

Talabalar ilmiy anjumani

2008-y. 8-may

Toshkent farmatsevtika institutida talabalar ilmiy anjumani muntazam ravishda o'tkazib kelinadi. Ushbu o'ziga xos an'analarga ega anjuman bu yil 64-marotaba o'tkazildi. Mazkur anjuman o'zbek farmatsevtikasiga ko'plab yetuk olimlar, amaliyotchilarni yetkazib berishga katta hissa qo'shgan ("Turkiston" gazetasidan).

4-topshiriq. Fakultetingizda bo'lib o'tgan talabalar anjumani, adabiy kecha, chet ellik mehmonlar tashrifi va sh.k. haqida gazetaga maqola tayyorlang.

5-topshiriq. Muxbir sifatida fakultetingiz dekani, universitet kutubxonasi boshlig'i, o'qituvchingiz, bitiruvchi kurs talabalaridan jurnalingiz (telekanalingiz, internet saytingiz) uchun "intervyu oling". Uni rollarga bo'lib o'qing.

6-mashg'ulot BIZNES OLAMIDA

1-topshiriq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'z va so'z birikmalarining ma'nosini izohlang.

PUL TARIXIDAN

Turli xalqlarda pul vazifasini turli xil tovarlar bajargan.

Masalan, Qadimgi Yunoniston, Rimda, arab va hind qabilalarida pul o'rnini **chorva** bosgan. XX asr boshlarida Afrikaning ba'zi bir xalqlarida **chorva tuyog'idan** pul o'rnida foydalanilgan. Tinch okeani va Afrika **qit'asi** xalqlarida qimmatli **chig'anoqlar** pul vazifasini bajargan. Markaziy Afrikada - **fil suyagi**, Qadimgi Misrda – **bug'doy**, Xitoyda – **tuz**, Mo'g'ulistonda - **choy ayirboshlash** jarayoni **pul muomalasi** o'rniga o'tgan.

Qadim zamonlardan beri pul vazifasini **qimmatbaho metallar** ham o'tab kelgan. Miloddan oldingi uch minginchi yillarda Shumer davlatida **asal** va **kumush** pul vazifasini bajargan. Kumush pullar miloddan oldingi ikki minginchi yillari Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan.

2-topshiriq. Savdo-sotiq sohasida keng qo'llanadigan so'z va iboralarni yozing, ular ishtirokida dialog tuzing.

3-topshiriq. Matn bilan tanishing. Asosiy tavsiyalarni daftaringizga ko'chirib oling.

BIZNES-REJA QANDAY ISHLANADI?

O'z (shaxsiy) ishingizni boshlamoqchi bo'lsangiz, albatta biznes-reja tuzishingiz kerak. Mazkur jarayonni yengillashtirish uchun quyidagi besh bosqichda ish tutishni tavsiya etamiz:

1. Maqsadingizni aniqlang. Birinchi bosqichda kim uchun ma'lumot tayyorlashingiz kerak, kompaniyangiz haqida ular nimani bilishi kerakligini tushunib oling. Kompaniya faoliyatining qaysi tomonlarini bo'rttirib ko'rsatish maqsadga muvofiq, qaysilari haqida kamroq gapirish, qaysilari to'g'risida esa umuman gapirmaslik zarurligini belgilang.

2. Biznes-rejaning taxminiy mundarijasini tuzing. Maxsus talablarni hisobga olgan holda tuzilgan mundarija oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin. Biroq mundarija qanchalik batafsil yozilsa, biznes-rejani tayyorlash shuncha oson kechadi.

3. Keyingi bosqichda mundarijani diqqat bilan tekshirib chiqish kerak. Kelgusida biznes-rejangizni o'qiydigan odamlarning fikrini va o'z

maqsadingizni e'tiborga olib, ahamiyatli deb hisoblangan ma'lumotlarni kengaytirish, juz'iy tomonlarni ilovada berish mumkin.

4. Biznes-rejani yozing. Ko'pchilik ishni bozorni o'rganish va moliyaviy ma'lumotlarni to'plashdan boshlaydi. Siz mazkur ma'lumotlardan rejaning strategiyasini belgilash uchun, taxminlar qilish uchun foydalanasiz. Biznes-rejaning qoralamasini tayyorlang. Bunda umumiy bo'linga katta e'tibor bering, unda boshqa barcha bo'limlarga tegishli ijro, moliyalashtirish masalalari bo'yicha umumiy ma'lumotlar mujassamlashtiriladi.

5. Biznes-rejani menejment bo'yicha mutaxassisga bering. U rejaning qamrovi, o'qishga qulayligi, bayonning mantiqiyligi, ishning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirib chiqsin. So'ng ko'rsatilgan takliflarni hisobga olib, biznes-rejangizga o'zgartirishlar kiriting. Va, albatta, ushbu rejani muntazam ravishda yangilab boring.

Omad sizga yor bo'lsin!

Lug'at

faoliyat – деятельность

bo'rttirib ko'rsatish – преувеличивать

taxminiyy – приблизительный

mundarija – содержание, оглавление

batafsil – подробно

juz'iy – незначительный

qoralama – черновик

ijro – исполнение

moliyalashtirish – финансирование

mujassamlashtirmoq – вобрать в себя

qamrov – охват

bayonning mantiqiyligi – логика в изложении

rasmiylashtirish – оформление

muntazam ravishda – постоянно

4-topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Подписав договоры, главы государств провели пресс-конференцию. Заработав свой первый миллион, он уже не смог остановиться. Миша, не выходя из комнаты, может приобрести, например, мебель или хотя бы пиццу. Человек, который всегда говорит смеясь, очень быстро надоедает окружающим. Не вставайте

из-за письменного стола, не дописав сочинение до точки. Не проявив инициативу, нельзя достичь успеха в бизнесе.

5-topshiriq. Matnni o‘qing. Uni rus tiliga tarjima qiling.

BO‘SH VAQT

Vaqtdan to‘g‘ri, unumli va samarali foydalanish kelajakni o‘ylaydigan insonga xos xususiyatdir. "Vaqting ketdi — naqding ketdi" deb bekorga aytilmagan. Bo‘sh vaqt dam olish, madaniy hordiq chiqarish, kitob o‘qish, aqliy va jismoniy qobiliyatni mustahkamlash va qaytadan tiklash uchun zarur. Bekorchilik esa turli jinoyatlar sodir etish, ichkilikka, chekishga ruju qo‘yish, nopok ishlarga sharoit yaratadi.

Uyqu dam olishning lazzatli onlaridir, uxlash kishi organizmini kuchga to‘ldiradi, aqlan tetik qiladi, mehnat qobiliyatini yuksaltiradi, salomatligini yaxshilaydi. Lekin ko‘p uxlash yomon odat bo‘lib, insonni lanj qiladi, ruhiy holatini, yuz qiyofasini o‘zgartiradi.

Talabalar o‘zlarining bo‘sh vaqtlarida quyidagilar bilan shug‘ullanishlari mumkin: kitobxonlik, estetik madaniyatni o‘stirish, jismoniy chiniqish, aqliy kamolotga intilish, ekologik madaniyatni shakllantirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va davom ettirish.

Lug‘at

samarali – эффективный

naqd – наличный, здесь: деньги

hordiq chiqarish – отдыхать

tiklash – восстанавливать

bekorchilik – бездельничество

jinoyat – преступление

ruju qo‘yish – пристраститься

porok – нечистый

lazzatli onlar – приятные минуты

tetik – бодрый

lanj – вялый

ruhiy holat – психическое состояние

jismoniy chiniqish – физическая закалка

aqliy kamolot – умственное совершенство

ekologik madaniyat – экологическая культура

6-topshiriq. Quyidagi gaplarni to'ldiring. Masalan: *Kitobxonlik — mustaqil o'qish uchun badiiy, texnik, ixtisoslik bo'yicha kitob o'qish, gazeta, jurnallar o'qish.*

Estetik madaniyatni o'stirish -

Jismoniy chiniqish –

Aqliy kamolotga intilish –

Ekologik madaniyatni shakllantirish –

Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va davom ettirish -

Yordam uchun so'zlar: ijodiy ish, kulolchilik, sayohat, ko'rgazma, to'garak, sayr, kashtachilik, teleko'rsatuv, ko'rik-tanlov.

7-topshiriq. Bo'sh vaqtda nima bilan shug'ullanishingiz haqida gapirib bering.

7- mashg'ulot ISH QOG'OZLARI. ARIZA. TUSHUNTIRISH XATI

ARIZA

Ariza – eng ko'p qo'llanadigan hujjat turlaridan biri.

Ariza biror tashkilot yoki mansabdor shaxs nomiga yoziladi. Unda biror iltimos, taklif, shikoyat bayon qilinishi mumkin.

Ariza quyidagi zaruriy qismlarga ega:

1. Ariza yo'llanadigan tashkilot nomi yoki mansabdor shaxsning F.I.O.
2. Arizachining F.I.O. (to'liq), manzili yoki lavozimi.
3. Hujjat nomi.
4. Asosiy matn (talab, iltimos, shikoyat).
5. Ilova qilinadigan hujjatlar (agar zarur bo'lsa).
6. Arizachining imzosi, familiyasi, I.O.
7. Sana.

1-topshiriq. Quyidagi mazmunda arizalar yozing:

- kotiba vazifasiga, o'qituvchi (muhandis, sex boshlig'ining o'rinbosari, provizor, kichik ilmiy xodim, hisobchi, oila shifokori, tarjimon, soliq inspektori) lavozimiga ishga qabul qilishni so'rab;
- moddiy yordam ko'rsatishni so'rab;
- talabalar turar joyidan o'rin berilishini so'rab;
- yozgi oromgohga yo'llanma ajratilishini so'rab.

Ariza shakli

			kimga
			kimdan
ARIZA			
Asosiy matn			
Ilova (zarur hollarda)			
sana	imzo	I.O. Familiyasi	

TUSHUNTIRISH XATI

Tushuntirish xati xizmat, o'qishga aloqador masalani, uning biror jihatini yozma izohlovchi hujjatdir. Shaxsiy tushuntirish xatida xodim (talaba, o'quvchi) tomonidan sodir etilgan ayrim o'rinsiz xatti-harakat tafsiloti, uning sabablari bildiriladi va dalillar bilan izohlanadi.

Tushuntirish xati shakli

	kimga	
	kimdan	
TUSHUNTIRISH XATI		
Matn O‘qish (ishga) kelmaganligi, topshiriqni bajarmaganligi va boshqa holatlar izohlanadi. Asoslovchi hujjat ilova qilinadi (agar bo‘lsa) (Ilova: _____)		
Sana	Imzo	I.O. familiyasi

2-topshiriq. Talaba nomidan fakultet dekaniga topshirilgan vazifa vaqtida bajarilmagani va buning sabablari haqida tushuntirish xati yozing.

3-topshiriq. Guruh yig‘ilishi o‘tkazilmagani va uning sabablari keltirilgan tushuntirish xati yozing.

4-topshiriq. Quyidagi so‘z va birikmalar tarjimasini yozing va ularni yod oling.

betobligim tufayli–
noqulay ob-havo tufayli
xomashyo vaqtida etkazib berilmaganligi sababli
ma’lumot o‘z vaqtida berilmaganligi sababli
oilaviy sharoitlarimga ko‘ra

8-mashg'ulot
TARJIMAI HOL. TAVSIFNOMA.TAVSIYANOMA

TARJIMAI HOL

Tarjimai hol - u yoki bu shaxs tomonidan o'z hayoti va faoliyati aks ettirilgan hujjat. U qat'iy shaklga ega emas, qisqa yo to'liq bo'lishi mumkin. Garchi ixtiyoriy tarzda yozilsa-da, unda ayrim majburiy qismlar bo'lishi shart:

1. Hujjat nomi.
2. Matn:
 - muallifning F.I.O.
 - tug'ilgan sanasi va joyi;
 - ota-onasi haqida qisqacha ma'lumot (F.I.O. ish joyi va lavozimi);
 - ma'lumoti va ixtisosligi;
 - mehnat faoliyat turlari;
 - oxirgi ish joyi va lavozimi;
 - mukofot va rag'batlantirishlar;
 - oilaviy ahvoli;
 - manzili.
3. Sana.
4. Imzo.

Tarjimai hol shakli

TARJIMAI HOL		
Men, (familiyasi, ismi va otasining ismi), (tug'ilgan sanasi, joyi) _____ oilasida tug'ildim.		
Oila a'zolarining familiyasi, ismi va otasining ismi, ish (o'qish) joyi, lavozimi) (O'zining o'qish, mehnat va jamoatchilik faoliyati, olgan mukofotlari)		
Bo'ydoqman (turmushga chiqqanman, _____ ta farzandim bor)		
Mening turar joyim:		
sana	imzo	I.O. Familiyasi

1-topshiriq. Tarjimai holingizni yozing.

TAVSIFNOMA

Tavsifnoma- ma'lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat.

Odatda, tavsifnomaning birinchi qismida shaxsning mehnat faoliyati, ikkinchisida shaxsiy tavsifi, uchinchisida esa yuqorida bayon qilinganlarning xulosasi beriladi bu hujjat qanday maqsadda berilayotganligi ko'rsatiladi.

Tavsifnoma shakli

Tavsiflanayotgan shaxsning ismi, ota ismi va familiyasi, tug'ilga yili, millati, ma'lumoti, lavozimi		
TAVSIFNOMA		
MATN		
Tavsiflanayotgan shaxsning o'qish (mehnat) faoliyati, o'z ishiga munosabati, kasbiy mahorati, dunyoqarashi, axloqi, oilaviy sharoiti, mukofotlari haqida ma'lumot beriladi va xulosalanadi, tavsifnoma nima maqsadda berilgani ko'rsatiladi.		
tashkilot rahbari	imzo	I.O. Familiyasi
muhr		
sana		

2-topshiriq. Guruh murabbiyi nomidan kursdoshingizga tavsifnoma yozing.

TAVSIYANOMA

Tavsiyanoma - biror shaxsni ma'lum lavozimga yoki turli tashkilotlarga a'zo bo'lish uchun tavsiya etish maqsadida tuziladigan rasmiy hujjat. Tavsifnomada shaxsning barcha ijobiy va salbiy

xususiyatlari qayd etiladi, tavsiyanomada esa uning ijobiy xususiyatlari ko'rsatilishi bilan birga, keyinchalik uning zimmasiga yuklatiladigan vazifani bajara olishiga ishonch bildiriladi va tavsiya etiladi.

TAVSIYANOMA	
Matn Tavsiya etilayotgan shaxsning xususiyatlari: kasbiy malakasi, oilaviy, axloqiy jihatlari va faoliyati baholanadi; tavsiya etilayotgan lavozim, a'zolikka iunosibligiga ishonch bildiriladi.	
imzo	Tavsiyanoma beruvchining lavozimi, I.O. famiyasi
sana	

3-topshiriq. Kursdoshingizni «Kamolot» YIH a'ziligiga tavsiya qilib, tavsiyanoma yozing.

9-mashg'ulot

ISHONCHNOMA. BILDIRISHNOMA

ISHONCHNOMA

Ishonchnoma – muayyan muassasa yoki ayrim shaxs tomonidan ikkinchi bir shaxsga uning nomidan ish ko'rish uchun yozma tarzda ishonch bildirilgan vakolatli hujjat.

Xizmat va shaxsiy ishonchnomalar farqlanadi.

Shaxsiy ishonchnoma vakolat beruvchining ish joyi (u ishlamagan taqdirda fuqarolar o'z-o'zini boshqarish organi) tomonidan muhr bilan tasdiqlanishi lozim.

Ayrim hollarda tayyor (qolipli) ishonchnomalardan foydalaniladi (avtomobilni boshqarish uchun ishonch bildirilganda).

Rasmiy (xizmat) ishonchnoma shakli

ISHONCHNOMA		
Tashkilot, idoraning uchburchak muhri, ishonchnoma raqami va berilgan sana		
Matn		
Ishonch bildirilgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi (to'liq), narsalar olinadigan muassasa nomi, nimalar olinishi, ishonchnoma berilishi sababi		
Ishonchnoma (sana) gacha amal qiladi		
Rahbar lavozimi	(imzo) (muhr)	I.O. familiyasi

Shaxsiy ishonchnoma shakli

ISHONCHNOMA	
Men, (ishonch bildiruvchining F.I.O.), (ishonchli shaxsning F.I.O.) ga (qavsda pasport ma'lumotlari) (ishonch mazmuni, ya'ni topshirilayotgan vazifa bayoni (ba'zan muddati bilan) ... uchun ishonch bildiraman.	
Ishonch bildirgan shaxsning lavozimi, imzosi, ism-familiyasi	
sana	yumaloq muhr

1-topshiriq. Oylik stipendiyangizni olish uchun kursdoshingiz nomiga ishonchnoma yozing

BILDIRISHNOMA

Bildirish (bildirishnoma, bildirgi) – muayyan idora, uning rahbariga biror vrqea-tiga tegishli masalalar yuzasidan axborot berish maqsadida taqdim etiladigan hujjat.

Bildirishnoma shakli

	(kinga, kimdan) xabar yuborilgan idora, rahbarning to‘liq nomi – ga yo‘llovchi shaxs lavozimi, to‘liq nomi-dan	
BILDIRISHNOMA		
matn sarlavhasi... haqida		
Matn Topshirilgan vazifa va unga aloqador masalalar haqida axborot beriladi, iloji bo‘lsa, ilova ro‘yxati keltiriladi.		
Bildirishnoma tayyorlagan shaxs(lar) lavozimi	imzo (lar)	I.O.Familiyasi
sana		

2-topshiriq. Navro‘z munosabati bilan o‘tkazilgan hasharda bajarilgan ishlar yuzasidan bildirishnoma yozing.

10-mashg'ulot
MAJLIS BAYONI.
MAJLIS BAYONIDAN KO'CHIRMA.
HISOBOT

MAJLIS BAYONI

Majlis bayoni – majlis, yig'ilish va sh.k. qatnashchilarining chiqishlari, shuningdek ularning qarorlarini qayd qiluvchi rasmiy hujjat. U qisqa (kun tartibi, ma'ruzachi va muhokamada so'zga chiqqanlarning ism-familiyasi, qaror) va to'liq (qatnashchilarning hamma fiklari keltiriladi) bo'lishi mumkin.

Bayonnomaning zaruriy qismlari:

1. Tashkilot muassasa nomi.
2. Sarlavha (kengashayotgan tashkilot yoki yig'ilish nomi).
3. Hujjat nomi (majlis bayoni).
4. Sana.
5. Raqami.
6. Yig'ilish o'tkazilgan joy.
7. Tasdiq xati (zarur bo'lganida).
8. Raislik qiluvchi va kotib ism-familiyasi.
9. Matn:
 - qatnashchilar ro'yxati yoki soni;
 - kun tartibi;
 - eshitildi;
 - so'zga chiqdilar;
 - qaror qilindi.
10. Ilovalar (agar bo'lsa).
11. Imzolar.

1- topshiriq. Majlis bayoni shakli bilan tanishib chiqing va guruh yig'ilishi bayonnomasi tuzing.

2- topshiriq. Quyidagi so'z(birikma)larni tarjima qiling va yod oling.

taklif kiritdi
qo'llab-quvvatladi
bekor qilindi

ma'qullashni so'radi
... ni tasdiqlashni so'radi
belgilab qo'yilsinki, ...

Majlis bayoni shakli

Tashkilot nomi
____ - sonli MAJLIS BAYONI

Joyi

Sana

Rais

Kotib

Qatnashdilar:

KUN TARTIBI

1.

2.

3...

1. ESHITILDI:

Ma'ruzachining ism-familiyasi (ma'ruza ilova qilinadi)

SO'ZGA CHIQQILAR:

So'zga chiqqanlarning ism-familiyasi - ...

QAROR QILINDI:

1.

2...

2. ESHITILDI:

Ma'ruzachining ism-familiyasi (ma'ruza ilova qilinadi)

SO'ZGA CHIQQILAR:

So'zga chiqqanlarning ism-familiyasi - ...

QAROR QILINDI:

1.		
2...		
Rais	imzo	Familiyasi.I.O.
Kotib	imzo	Familiyasi.I.O.

MAJLIS BAYONIDAN KO‘CHIRMA

Zarur hollarda majlis davomida qilingan qarorlardan ko‘chirma olinadi. Majlis bayonidan ko‘chirma tegishli shaxslarning imzolari bilan tasdiqlanadi.

Majlis bayonidan ko‘chirma quyidagi qismlardan iborat:

1. Tashkilot muassasa nomi.
2. Hujjat nomi (majlis bayonidan ko‘chirma).
3. Sana (yg‘ilish sanasi).
4. Shartli raqam.
5. Ko‘chirma rasmiylashtirilgan joy.
6. Matn:
 - kun tartibi;
 - eshitildi;
 - so‘zga chiqdilar;
 - qaror qilindi.
7. Imzolar.

8. Ko‘chirmaning tasdiq xati.

Majlis bayonidan ko‘chirmada qatnashchilar soni yoki ro‘yxati keltirilishi mumkin.

Majlis bayonidan ko‘chirmada faqat korxona yoki shaxsga etkazilishi kerak bo‘lgan qismgina o‘z ifodasini topadi. Bir necha qaror qabul qilingan bo‘lsa, faqat tegishli masala bo‘yicha qilingan qaror keltiriladi.

3-topshiriq. Majlis bayonidan ko‘chirma rasmiylashtirish tartibini ko‘rib chiqing va uning namunasini tayyorlang.

4-topshiriq. Quyidagi qoliplashgan birliklarni eslab qoling, ularni qo‘llab gaplar tuzing:

zimmasiga yuklatilsin, belgilab qo‘yilsinki, yuqori tashkilotlardan so‘ralsin, ...ning ... -bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

Majlis bayonidan ko'chirma shakli

Tashkilot nomi

_____- sonli MAJLIS BAYONIDAN KO'CHIRMA

Joyi

Sana

KUN TARTIBI

3.

3. ESHITILDI:

Ma'ruzachining ism-familiyasi (ma'ruzaning qisqa bayoni)

QAROR QILINDI:

1.

2....

Rais

imzo

Familiyasi.I.O.

Kotib

imzo

Familiyasi.I.O.

HISOBOT

Hisobot – xizmat faoliyati yozasidan muayyan ish, vazifa yoki topshiriqlarning bajarilishi haqida ma'lumot beruvchi hujjat.

Shakl va mazmuniga ko'ra bildirishnomaga o'xshasa-da, hisobot qanday ishlar rejalashtirilgani, ularning bajarilganlik darajasi, bu boradagi kamchiliklar va ularni bartaraf qilish bo'yicha takliflar batafsil berilgani bilan ajralib turadi.

Hisobot shakli 1- shaxs nomidan yoziladi va hisobot beruvchi tomonidan imzolalanadi.

Hisobot shakli

Hisobot sarlavhasi (idora, xo‘jalik yoki shaxsning qachon, qanday faoliyati) ... haqida		
HISOBOT		
Matn Ma’lum muddatga belgilangan ish, vazifaning qay darajada bajarilgani haqidagi axborot bayoni.		
lavozim nomi	imzo	I.O. Familiyasi
sana		

5-topshiriq. Pejagogik amaliyot davomida bajarilgan ishlar haqida hisobot tayyorlang.

6-topshiriq. Quyidagi fe’llarning o‘tgan zamondagi majhul nisbat (bo‘lishli va bo‘lishsiz) shakllarini hosil qiling, ular bilan gaplar tuzing. Masalan: *gapirmoq - gapirildi, gapirilmadi; Majlisda talabalar jamoat ishlarida faol ishtirok etishlari kerakligi haqida gapirildi. Aynan qanday tadbirlarni o‘tkazish rejalashtirilgani haqida gapirilmadi:*

imzolamoq, qurmoq, ajratmoq, bajarmoq, baholamoq, rioya qilmoq, amalga oshirmoq.

II QISM

1-topshiriq. Berilgan matnni o‘qib tarjima qiling.

XALQ OG‘ZAKI IJODIDAN

Afsonalar dunyodagi deyarli hamma xalqlar og‘zaki ijodining eng qadimgi, aziz va ommaviy janrlaridandir. Ularda tarixiy hayot ro‘y bermagan bo‘lsa-da, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqealar hikoya qilinadi. Badiiy to‘qima bu janr asarlarining asosiy xususiyati hisoblanadi. Shuning uchun olimlar afsonalarning ayrimlarini ertaklarga tenglashtirganlar. Ayrim afsonalar esa miqlarga o‘xshab ketadi. Bunday namunalarda biror narsa-predmetning paydo bo‘lishi, rasm-rusum yoki odatlarning boshlanishi haqida ma’lumot beriladi.

Bu janr namunalariga aytib beruvchi shaxs asar mazmunini saqlagan holda ma’lum o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Afsonalarda mazmun jihatidan xilma-xil voqealar hikoya qilinadi. Ular xalqimiz tarixini o‘rganishda turli urf-odatlar, rasm-rusumlar, an’analarni sharhlashda, joy nomlarini izohlashda muhim ahamiyatga ega.

Rivoyatlar afsonalardan hayot haqiqatiga anchayin yaqinligi bilan farq qiladi. Agar afsonalar to‘laligicha ajdodlarimiz tomonidan o‘ylab topilgan to‘qima hikoyatlardan iborat bo‘lsa, rivoyatlar hayotda ro‘y bergan qandaydir tarixiy voqealarga asoslanadi. Ular mazmunan afsonalardan deyarli farq qilmaydi, ammo bu asarlar zaminida aniq tarixiy dalil ildizi mavjud bo‘ladi. Bu asarlar ko‘pincha sodir bo‘lgan tarixiy voqea ishtirokchisi tomonidan yozib qoldiriladi yoki aytib beriladi, Ajdoddan avlodga meros sifatida o‘tib bizgacha yetib keladi. Shuning uchun rivoyatlar o‘tmish voqealari haqida bizga ma’lumot berishi bilan qiziqarlidir. Ularda tariximiz sahifalari, mashhur allomalar hayotidan lavhalar, ayrim joy nomlarning paydo bo‘lishi o‘z askini topadi.

O‘zbek xalqi orasida Imom Buxoriy, Beruniy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiy kabi buyuk allomalar haqida yaratilgan o‘nlab rivoyatlar hamon saqlanib kelmoqda.

Yuqoriga aytilganlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: rivoyatlar xalq og‘zaki ijodini epik turiga kirgan ommaviy janrlardandir.

Bunday asarlar voqeaga guvoh bo‘lgan shaxslar tomonidan yozib qoldiriladi yoki avloddan- avlodga og‘zaki tarzda merosga aylanadi.

Lug‘at

afsona - легенда
xalq og‘zaki ijodi - устное народное творчество
ommaviy - массовый
badiiy to‘qima - творческий вымысел
rasm-rusum – обычаи
izoh - примечание
rivoyat - предание
sodir bo‘lgan - происходить
sahifa - страница
lavha - отрывок

2-topshiriq. Berilgan so‘zlarni rus tiliga tarjima qiling va eslab qoling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Taxmin, xazon, xazina, xayolparast, chaqimchi, shabada, egov, yalmog‘iz, yashirmoq, qadoq, qalampir, g‘aroyib, hazil, salbiy, afsus, qo‘llanma.

3-topshiriq. Lingvistik va matematik terminlarni alohida ustunlarga yozing.

Qo‘shuv, kelishik, unli tovush, ayiruvchi, undosh tovush, ko‘paytirish, bo‘lish, sifat, aylana, fe‘l, olmosh, gap, oddiy kasr, mahraj, o‘nlik, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, tenglama, masala, so‘z birikmasi.

4-topshiriq. Berilgan so‘z birikmalarini o‘qing. So‘z birimlarini o‘zbek tiliga tarjima qiling. Bir ustunga otlarni, ikkinchi ustunga sifatlarni yozing.

Зимняя шапка, чистый лист, красивый цветок, трудный день, синее небо, молодое деревце, лесной зверь, школьный учитель, детская энциклопедия, смешной медвежонок, женский костюм, уютный кабинет, новое произведение, трудолюбивый человек, письменный стол, длинные волосы, приятная мелодия

5-topshiriq. Berilgan so‘zlar bilan so‘z birikmalari tuzing.

Bino, erkak, bilim, ertak, xalta, palto, etik, kino, olma, uzum, teshik, hayot, havo, gazeta, jurnal, yomqir, katta, kuchli, oppoq, shiddatli, qiziqarli, sof, quvnoq, bir ma'noli, yoqali.

6-topshiriq. Siz o'rganayotgan asosiy fanga taalluqli terminlardan 10 tasini yozing, ular bilan so'z birikmalari va gaplar tuzing.



1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

AKADEMIK VIKTOR VASILEVICH RESHETOV

Viktor Vasilevich Reshetov Toshkentda tug'ulgan. U filologiya fanlari doktori (1952), professor (1953), Pedagogika fanlari akademiyasining akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1964) edi. O'rta Osiyo Davlat universitetining pedagogika fakulteti til va adabiyot bo'limini tugatgan (1931). U talabalik davridayoq O'rta Osiyo Davlat dorilfununida rus va o'zbek tillaridan dars berdi, keyin shu fakultet kechki bo'limning o'quv ishlariga mudirlik ham qilgan.

1959-yilda RSFSR Pedagogika fanlari akademiyasining akademigi va Prezidiumi a'zosi etib saylangan. 1960-yilda RSFSR Pedagogika fanlari akademiyasining Milliy maktablar oliy bilimgo'hi direktori, "Русский язык в национальной школе" jurnalining bosh muharriri etib tayinlangan. U Pedagogika fanlari akademiyasini tashkil etuvchilardan biri bo'lgan. 1963-yildan to umrining oxirgi kunigacha respublika rus tili va adabiyoti pedagogika oliy o'quv yurti rektori bo'lgan. U bir qancha orden va medallar bilan mukofotlangan. Viktor Vasilevich o'zbek tili bo'yicha yozilgan juda ko'p darsliklar va oquv qo'llanmalarining, muallifidir. U respublikamizning oliy va o'rta maktablari uchun o'zbekcha-ruscha va ruscha-o'zbekcha lug'atlar tuzgan.

Lug'at

dorilfunun- университет
muharrir- редактор
muallif- автор

2-topshiriq. Quyidagi so'zlardan sifatdoshlar hosil qiling.

Chiq, o's, ket, o'qi, kel, so'zga, tugat, bajar, ek, izla.

3-topshiriq. Quyidagi gaplardagi ravishdoshlarni va ko'makchi fe'lli birikmakarni aniqlang.

1. Bolalar toqqa ko'tarilib, yomg'irda qoldilar.
2. Aziza mehmonlarning orqasidan uzoq qarab qoldi.
3. Voqeani kula-kula so'zlab berdi.
4. Ukam oldidagi ovqatini yemasdan hovliga chiqdi.
5. Bola ertakni tinglay-tinglay uxlab qoldi.

4-topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling, qo'shma gap turlarini aniqlang.

1. Кто ищет, тот всегда найдет.
2. Наступил вечер, шел дождь, с вечера дул ветер.
3. Кто занимается спортом, тот всегда чувствует себя здоровым.
4. Иногда луна освещает землю, иногда тучи закрывают луну.
5. Где много воды, там и много зелени.

5-topshiriq. Tanlagan ixtisosligingizga oid terminlar isgtirokida 7-8 ta gap tuzing .



1-topshiriq. Mattni o'qing va tarjima qiling.

CHINGIZ AYTMATOV

Buyuk qirg'iz yozuvchisi, tuganmas iste'dod egasi Chingiz Aytmatov 1928- yil qirgiz ovulida tug'ilgan. Ikkinchi jahon urushi boshlangan vaqtda u endigina 12 yoshga to'lgan edi. Barcha erkaklar urushga ketgan vaqtda, Chingiz maktabni tashlab kombayn zavodida hisobchi va qishloq kengashida kotib bo'lib ishlaydi.

Urushdan so'ng Chingiz Aytmatov zooveterinariya texnikumida, so'ngra qishloq xo'jaligi institutida ta'lim oladi. Bir necha yillar mobaynida Chingiz Aytmatov chorvachilik fermasida ishlaydi.

Keyinchalik “Pravda” gazetasida jurnalist bo‘lib ishlagan chog‘ida u yurtining turli burchaklariga gazeta tahririyati tomonidan ishga yuboriladi. U oddiy qirg‘izlar hayoti va turmushini kuzatib yuradi, odamlarning dardini o‘rganadi. Albatta bularning barchasi keyinchalik uning asarlarida o‘z aksini topadi. 1958- yilda Moskva adabiyot institutini tugatgan Chingiz Aytmatov anchagina mashhur yozuvchiga aylanib ulgurgan edi.

Aytmatovning birinchi “Dzyuydo gazetchisi” hikoyasi 1952- yilda chop etilgan. O‘quvchilar tomonidan katta qiziqish bilan mutoala qilingan, bir necha dunyo tillariga tarjima qilingan “Jamila” qissasi 1956- yilda yozilgan.

“Bo‘tako‘z”, “Birinchi o‘qituvchim”, “Alvido Gulsara” kabi qissalar ham muallifga bir qator davlat mukofotlarini va mashhurlikni olib keldi.

Chingiz Aytmatov – juda ham zamonaviy yozuvchi edi. Bu uning asarlarida ilg‘or surilgan axloqiy muammolarda o‘z aksini topadi. Bu ma’noda “Ertakdan so‘ng” qissasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning syujeti asosida “Oq kema” filmi suratga olinadi va tomoshabinlar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olinadi.

Chingiz Aytmatovning asarlarini butun dunyo xalqlari sevib o‘qiydilar. Uning asarlari italyan, polyak, ingliz, fransuz, yapon, ispan, turk va boshqa tillarga o‘girilgan.

Lug‘at

iste‘dod - талант

chorvachilik - животноводство

dard – 1.страдание. 2. болезнь

qissa – повесть

mukofot – награда

hisobchi - бухгалтер

1-topshiriq. Gaplarni ozbek tilida tarjima qilib yozing va aniqllovchilarning tagiga chizing.

1. В нашей стране много одаренных студентов. 2. Тот стул поставьте за тот стол. 3. Вчера библиотека получила новые книги. 3. Мы любим читать произведения Пушкина. 4. В сегодняшней газете напечатана статья о нашей махалле. 5. Студенты университета приняли активное участие на международной конференции. 6. Какой-то человек спрашивал вас.

2-topshiriq. O'qing, gaplarni rus tiliga tarjima qiling va ko'chirib yozing, fe'l zamonlarini aniqlang.

1. Yakshanba kuni biz oilamiz bilan dam olmoqchimiz. 2. Poytaxtimizda juda ko'p binolar qayta ta'mirlanmoqda. 3. Ota-bobolarimiz bizning farovon hayotimiz uchun kurashgan edilar. 4. Zamonamiz yoshlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. 5. Chet ellik sayyohlar tarixiy obidalarimizni ko'rib xayratga tushmoqdalar. 6. Ertaga bo'lib o'tadigan majlisga siz ham borarsiz. 7. Mahallalarda obodonchilik ishlari juda ham yaxshi olib borilyapti. 8. Universitetni tugatib o'zim o'qigan kollejdagi dars bermoqchiman. 9. Men o'zbek va ingliz tillarini juda yaxshi o'rganmoqchiman. 10. Ularning suhbatidan hech narsa tushunmadim.

3-topshiriq. O'qing. So'zlarning tuzilishiga ko'ra turini ayting.

1. To'kin-sochin kuz fasli boshlandi. 2. Shirin-shakar mevalarni yetishtirgan bog'bonlarimizga ming rahmat. 3. Temir yo'l vokzali qayta ta'mirlandi. 4. Do'stim har kuni o'qishga Yangiyo'l shahridan qatnaydi. 4. Haqiqiy inson o'z ota-onasini doimo hurmat qiladi. 5. Mehmondo'stlik o'zbek xalqiga xos xislat. 6. Toshkentimiz kundan-kunga tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketmoqda.

4-topshiriq. O'qing. Berilgan gaplardagi otlarni qaysi kelishikdaligini aniqlang.

1. O'qituvchimiz Hamdam aka o'z kasbini juda yaxshi ko'radi. 2. Kecha universitetimizda mashhur o'zbek yozuvchilari bilan uchrashuv bo'ldi. 3. Men fakultetimizda tashkil qilingan to'garakka qatnashaman. 4. Farg'onaga ketish uchun poyezdga bilek sotib oldim. 5. Avval kitobdan o'qib chiqdim, so'ngra ko'chirib yozdim. 6. Bu yil akam harbiy xizmatga ketadi.

5-topshiriq. Sifat antonimlarini ko'chirib yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Achchiq va chuchuk, shirin va bemaza, oq va qora, uzun va qisqa, arzon va qimmat, baland va past, aziz va xor, yo'g'on va ingichka, qattiq va yumshoq, quyuq va suyuq, issiq va sovuq, toza va iflos, chiroyli va hunuk.



1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling. Otlarning qaysi kelishikda ekanligini aniqlang.

DUNYO TILLARI VA O‘ZBEK TILI

Mustaqillik sharofati bilan respublikamiz dunyoning barcha mamlakatlari bilan siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqa qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Respublikamizning turli mamlakatlarida bo‘lib, o‘rganib-o‘rgatib qaytmoqdalar. Agar siz Toshkentdan poyezdga o‘tirib, Moskva va u orqali Parijga safar qilsangiz, yo‘lingizda qozoq, tatar, rus, belarus, fransuz, singari tillardagi gaplarni eshitasiz.

Bu jarayonda ularning odatlari ona tilingizga qaysi bir jihati bilan yaqin, shu bilan birga nimasi bilandir farqli ekanligi ona tilimizga o‘xshamasligini guvohi bo‘lamiz. Bir-biriga yaqin, umumiy jihatlari ko‘p bo‘lgan tillar qarindosh, biri-biridan uzoq, umumiy jihatlari bo‘lmagan tillar qarindosh bo‘lmagan tillar hisoblanadi. Hozirgi kunda yer yuzida mavjud bo‘lgan 3000dan ortiq til hind-yevropa, turkiy, xitoy-tibet singari bir necha til oilalariga bo‘linadi. Masalan o‘zbek, turk, turkman, qirg‘iz, qozoq, tatar, uyqur, ozarbayjon, qoraqalpoq, bolgar singari tillar bir oilaga mansub bo‘lib, ular turkiy tillar oilasi nomi bilan yuritiladi. Qarindosh kishilar bir ajdoddan tarqalgani kabi, qarindosh tillar ham bir tildan kelib chiqqandir. Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tili Dunyo tillari tizimida turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida erkin rivojlanib o‘sib bormoqda.

Lug‘at

imkoniyat- возможность

jarayon- процесс

jihat- виду того

guvoh- свидетель

ajdodlar- предки

tizim- система

2-topshiriq. Matn mazmunini yorituvchi savollar tuzing.

3-topshiriq. Quydagi gaplarni rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Авлони́й — основоположник национальной узбекской педагогики, драматургии, детской литературы, выдающийся общественный деятель.

2. Амир Темур был великим государственным деятелем, покровителем духовности.

3. Язык основанное средство общения людей. При помощи языка люди общаются друг с другом, передают свои мысли, чувства, желания.

4-topshiriq. Gaplarni o‘qing, rus tiliga tarjima qiling. Qo‘shma gap turlarini aniqlang.

1. Kim shunday, og‘zini ochmay yursa, yaxshi ekan.
2. Senga ma’lum bo‘lsinki, men to‘g‘ri so‘zlayman.
3. Agar biz turmushdan o‘rgansak, bundan foyda unadi.
4. Havo ochildi, biroq quyoshning harorati sezilmadi.
5. Kech tushdi, yomg‘ir yog‘a boshladi.

5-topshiriq. Olmosh turlariga 7 ta gap tuzing.



1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

AVLONIY TIL VA SO‘Z ODOBI HAQIDA

Tilga, madaniyatga muhabbat har bir kishining xalqiga bo‘lgan muhabbatidir. Avloniyning uqtirishicha, har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan oynai hayoti til va adabiyotidir.

Avloniy so‘zning inson qadr-qimmatini belgilashdagi mavqeiga umuminsoniy nuqtai nazardan baho berdi. Uning o‘qtirishicha So‘z insonning daraja va kamoli, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurgon tarozisidir. Aql sohiblari kishining fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so‘zlagan so‘zidan biladilar.....

Avloniy rostgo‘ylik va to‘g‘riso‘zlikni insonning eng insoniy sifatlaridan biri sifatida baholadi. Uning fikricha, haqqoniyat deb ishda to‘g‘rilik, so‘zda rostlikni aytilur. Inson bo‘stoni salomatga, gulzori saodatga, haqqoniyat yo‘li chiqar. Insoniyatning ildizi bilan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onasi haqqoniyatdir. Kishilarni yaxshilikka undash, yomonlikdan qaytarish, dunyodagi barcha insonlarga ezgulik istagi bilan yashash chinakam olijanoblikdir. Odamlar umr bo‘yi bir-birlari bilan aloqada bo‘ladilar. O‘zaro yordamga,

hamkorlikka hojat sezadilar. Shunday ekan, rostgo'ylik, to'g'riso'zlik insonlar hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

Avloniy o'zining butun pedagogik faoliyati va ma'rifatparvarlik faoliyatida o'z xalqining baxt-saodati yo'liga bag'ishladi. Xalqi Vatani oldidagi farzandlik burchini sharaf bilan bajardi. O'zbek pedagogikasi rivojiga salmoqli ulush qo'shdi. Mana shu ma'noda Avloniy siymosi, faoliyati biz uchun g'oyat qadrlidir.

Insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya ila bo'ladi. Inson yaxshi tarbiya topib, go'zal xulqlarga odatlanib, katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul baxtiyor bir inson bo'lib chiqar (Abdulla Avloniy).

Lug'at

nuqtai nazar - с точки зрения

tarozi- весы

aql sohibi –здесь: умный

rostgo'y – правдивый

haqqoniy- истинный, справедливый

rahmdillik- жалостливость

siymo- облик

2-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling va ravishlarni aniqlang.

СЛУЧАЙ НА ОТДЫХЕ

Однажды мы с товарищами поехали за город. Кругом было очень красиво. Вдали виднелось озеро. Мы пошли туда. Целый день мы были там: играли, пели, отдыхали. Всем было весело. Мы решили сварить шурпу. Я пошел собирать сухие ветки. У куста я увидел красивую палку с серыми узорами. Я наклонился, чтобы взять её. Вдруг палка зашевелилась и стала ползти. Я сразу понял свою ошибку. Это был уж. Я все рассказал ребятам, когда вернулся. Они долго смеялись. Поздно вечером мы возвратились домой.

3-topshiriq. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: Eng katta boylik, yaxshi muomala, ota-onani hurmatlash, hosildor yerlar, qiziqarli yangiliklar.

4-topshiriq. Qo‘shma gaplar tuzing va ularni rus tiliga tarjima qiling.

5-topshiriq. Fe'lning vazifadosh shakllari ishtirok etgan gaplar tuzing (ravishdosh, sifatdosh, harakat)



1-topshiriq. Berilgan matnni o‘qib tarjima qiling.

VIKTOR VLADIMIROVICH VINOGRADOV

Akademik V.V.Vinogradov (1895-1969), akademik L.V.Shcherba va professor A.A.Axmatovlarning shogirdi bo‘lib, rus tili nazariyasini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan XX asrning buyuk tilshunoslaridan biridir. U dastavval Peterburg davlat universitetining so‘ngra Moskva davlat universitetining professori bo‘ldi.

V.V.Vinogradov 1946-yildan, akademik L.V.Shcherbadan so‘ng, sho‘ro davrining eng buyuk tilshunosidir. U o‘zi asos solgan rus adabiy tilining tarixchisi, tadqiqotchisidir. Olim tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid 250 dan ortiq asar yaratdi.

V.V.Vinogradovning eng mashhur asari “Rus tili” kitobidir. Bu asar rus tili morfologiyasi bo‘yicha barcha nazariyalar tahlilining xulosasidir.

Shuningdek, V.V.Vinogradovning ulug‘ rus shoiri Pushkin asarlaridagi til uslubiga bag‘ishlangan bir necha tadqiqotlari, stilistika, sintaksis, frazeologizmga oid bir qancha katta ishlari mavjud.

Lug‘at

tadqiqotchi – соискатель

tahlil - анализ

nazariya – теория

2-topshiriq. Qavsda berilgan qo‘shimchalarni imlo qoidasiga mos ravishda qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring.

1. Qolgan ish (-ga, -ka) qor yog‘ar. (maqol) 2. Ko‘k ko‘ylak (-ga, -ka) g‘o‘za yoydim. (*topishmoq: osmon va yulduz*) 3. Egilgan tayoq (-ga, -qa) suyanma, seni ham egadi. (maqol) 4. Hovlimizdagi terak (-ga, -ka) chumchuq in qo‘ydi. 5. Do‘st bosh (-ga, -ka) kulfat tushganda sinaladi. (maqol)

3-topshiriq. O‘qing. Tarjima qiling. Mavhum ma’noli otlarni toping.

1. Tozalik-sog‘lik garovi. (maqol) 2. Kuch birlikda. (maqol) 3. Sog‘likdan ortiq boylik yo‘q. (maqol) 4. Do‘stlikni ardoqlash kerak. (maqol)

4-topshiriq. Sinonimlar ishtirokida gaplar tuzing.

Chiroyli, ko‘rkam; kuchsiz, zaif; ulug, buyuk; eski, ko‘hna; pishiq, puxta; shafqatli, rahmdil; qop-qorong‘i, zim ziyo; katta, ulkan.

5-topshiriq. Quyidagi yuklamalar ishtirokida gaplar tuzing:
nahotki, axir, faqat; mi, -chi, -da, -u, -a, -ya.

6-topshiriq. Quyidagi iboralarning ruscha muqobilini toping.

Ikki tomchi suvday, tomdan tarasha tushganday, birovning nog‘orasiga o‘ynamoq, oyog‘i kuygan tovuqday, yeng shimarib, xamirdan qil sug‘urganday



1-topshiriq. Berilgan matnni o‘qib tarjima qiling.

KOREYA MADANIYATI

Janubiy Koreyaga birinchi bor tashrif buyurgan inson avvalambor uning go‘zal yam-yashil bog‘-u xiyobonlaridan hayratga tushadi. Koreys boqdorchilik san'atining asosiy konsepsiyasi shundan iboratki, insonlar yaratgan bog‘lar tabiatdan ham tabiiyroq bo‘lishi lozim.

Koreys musiqa madaniyati ham juda boy bo‘lib, hozirgi kunga qadar an'anaviy koreys musiqiy asboblarning 60 ga yaqin turi mavjud. Ular qatoriga sitra kayagim, sitra komungo kabilarni kiritish mumkin. Kim Dok Su tomonidan yaratilgan Samul nori kvarteti esa butun dunyoga mashhur.

Chashu san'ati – kiyim va turli buyumlarga kashta tikish san'ati bo'lib, u yostiq jildlari, g'iloqlar va qoshiq uchun qopchalar kabi turli turmush predmetlarni bezatishda qo'llanilgan. Ilgarigi davrlarda oddiy odamlarga kashta bilan bezatilgan kiyimlarni faqatgina to'ylarda kiyishga ruxsat berilgan.

Pochjagi – bu turli rangdagi va o'lchamdagi kvadrat shakldagi mato bo'lagi bo'lib, koreyslar ulardan turli narsalarni o'rashda foydalanganlar. Ular ko'pincha tugunli sumkalar vazifasini bajargan. Koreys xalqining badiiy tabiati aynan shu pochjagilarda ham namoyon bo'lgan. Tejamkor koreys ayollari turli rangdagi kichik mato bo'laklaridan pochjagilar tikib, ularni turli kashtalar va bezaklar bilan bezatganlar.

Lug'at

qayratga tushmoq – удивляться

yostiq jild – наволочка

g'iloq – чехол

bezatish – украшать

2-topshiriq. Matnga reja tuzing va uning mazmunini so'zlab bering.

3-topshiriq. Koreys madaniyatiga xos bo'lgan yana qanday urf-odatlarini bilasiz.

4-topshiriq. Yozuvchi O'.Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridan keltirtilgan parchalarni o'qing, rus tiliga tarjima qiling.

Ona tili

Qancha ko'p tilni bilsangiz, shuncha yaxshi. Biroq odam ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida tush ko'radi, ona tilida yig'laydi. O'limi oldidan onasini ona tilida yo'qlaydi.

Mehr

Quyosh buloq suviga ham, mag'zavaga ham, chaqirtikanakka ham baravar nur sochaveradi.

Yer chuchmomani ham, chaqirtikanakni ham baravar o'stiraveradi.

Ota-onaga bolaning yaxshi-yomoni yo'q.

Do'st

Do'st degani daraxt yaprog'iga o'xshaydi. Bahor chog'i – behisob. Kuz kelganda – sanoqli. Yoshlik chog'i – behisob. Keksayganda sanoqli.

5-topshiriq. Berilgan so'z birikmalaridan gaplar tuzing.

Talabalik davri, poytaxt ko'chalari, davlat ramzlari, chet el korxonalari, bahor darakchilari, milliy bayramlar, ushalgan orzu, shirin hayollar, dunyo xaritasi, san'at muzeyi, Toshkent universitetlari.

6-topshiriq. Tanlagan ixtisosligingiz bo'yicha yetakchi olimlar va ularning ilmiy faoliyati haqida so'zlab bering.



1-topshiriq. Berilgan matnni o'qib tarjima qiling.

BRITANIYA UNIVERSITETLARI

Oksford universiteti Britaniyadagi eng qadimiy universitetdir. U XII asrda bir qator kollejlardan federatsiyasi sifatida tashkil etilgan. Uning tarkibiga 1249-yilda tashkil etilgan Universitet kolleji, Oll Souls, Krist Church, Oksford Katedrali va birinchi qizlar kolleji Ledi Margaret Xoll kirgan.

U o'zining ajoyib kollejlardan arxitekturasi bilan mashhur. 1133- yilda shaharda ruhoniylarga to'liqroq ta'lim berish maqsadida universitet tashkil etish rejalashtirilgan edi. Lekin Oksford faqat Genrix II davrida haqiqiy universitet shaharchasiga aylangan. O'rta asrlarda Oksfordda faqatgina ruhoniylargina ta'lim olgan va ular asosan kambag'allar bo'lib mahalliy aholidan xonalar ijaraga olib yashashgan .

Hozirgi kunda universitet tarkibida 35 ta turli kollejlardan mavjud bo'lib, shulardan ikkitasi faqatgina qizlar uchundir.

1208-yilda Oksforddagi turli qo'zg'olonlardan charchagan olimlar Kembrijda o'zlarining akademik jamiyatlarini barpo etadilar. Universitet tarkibidagi eng qadimiy kollejlardan Peterhaus kolleji bo'lsa, eng kattasi Genri VIII tomonidan 1546-yilda tashkil etilgan Trinitiy kollejidir.

Shotlandiyada ham o'rta asrlarda barpo etilgan Edinburg, Glasgou, Aberdin universitetlari mavjud.

Uels universiteti 1893-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning tarkibiga oltita kollej kirgan.

Eng mashhur kollejlardan Xristos cherkovi kolleji, Merton va Magdalen kollejlari. Xristos cherkov kolleji eng katta va chiroyli kollej hisoblanib u 1546-yili Genrix VIII buyrug'i bilan qurilgan. Magdalen kolleji 1458-yili Venchestir kollejining o'gutuvchisi tomonidan tashkil etilgan. Bodlean Libray- Oksfordning eng kata kutubxonasi bo'lib, unda 6 mingdan ortiq kitob bor. U 1598-yili tashkil etilgan.

2-topshiriq. Berilgan iboralarning rus tiligadagi muvofiq'ini toping va eslab qoling.

1. Ajalidan besh kun burun o'lmoq. 2. Ko'ngli joyiga tushmoq. 3. Tilidan bol tomadi. 4. Quriq aravani olib qochmoq. 5. Xamirdan qil sug'urganday. 5.Yuzingda ko'zing bormi demay.

3-topshiriq. Berilgan otlarni o'qing. Juft va qo'shma otlarga ajrating, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Sholipoya, o'g'il-qiz, tomorqa, bosvoldi, mehr-muhabbat, aql-farosat, gulbeor, qirqog'ayni, yer-suv, bog'u-bo'ston, choyquti, qorbo'ron, qarindosh-urug', to'y-tantana, Chuqursoy.

4-topshiriq. Berilgan fe'llardan fe'lning vazifadosh shakllarini yasang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Sakramoq, o'ynamoq, bilmoq, tashvishlanmoq, sevmoq, anglamoq, sezmoq, bajarmoq, qurmoq, gullamoq, kulmoq, qatnamoq, o'tirmoq, kengaymoq, suzmoq, qadrlamoq, chizmoq.

5-topshiriq. O'qing. Otlarni topib qaysi kelishikdaligini aniqlang.

BILASIZMI?

Sariq yumronqoziq yilning to'qqiz oyida suv ichmay va ovqat yemay yashay oldai.

Sahro mushugi – uchib ketayotgan qushni panjasi bilan urib tushira oladi.

Toshbaqa bir yilda sakkiz oy uxlaydi.

Bo‘rsiq o‘ta zaharli ilonni yesa ham qech narsa bo‘lmagandek yuguraveradi.

Qo‘shoyoq qumloq yerda o‘n besh daqiqada uzunligi bir yarim metr keladigan uya qurib olishi mumkin.

6-topshiriq. “Gid va chet ellik mehmon” mavzusida dialog tayyorlang, uni rollarga bo‘lib o‘qib bering



1-topshiriq. Berilgan matnni o‘qib tarjima qiling.

NIMA UCHUN BRITANIYADA CHOY JUDA MASHHUR?

Choy – bu Buyuk Britaniyadagi eng mashhur va sevimli ichimliklardan biri. Choy ilk bora Yevropaga gollandiyaliklar tomonidan 1610-yilda olib kelingan. Ammo ro‘znomalardagi choy haqidagi ilk xabar 1658-yilda paydo bo‘lgan. 1750-yilga kelib choy Angliyaning barcha tabaqadagi odamlar uchun asosiy ichimlikka aylangan. Bu vaqtgacha esa u juda qimmatbaho bo‘lganligi tufayli hamma ham uni tanovul qila olmagan. Choy uy bekalari tomonidan juda qadrlangan bo‘lib, uni maxsus idishlarda, ba’zan qulfli idishlarda saqlashgan.

Hozirgi vaqtga kelib choy ichish juda zamonaviy ijtimoiy qadriyatga aylangan. Ko‘p uylarda choy bayramlari tashkil etilgan bo‘lib, keyinchalik “tushdan keyingi choy” an‘anasi paydo bo‘ldi.

Britaniyada choy odatda Xitoy choynagida damlanadi. Choyni damlagandan so‘ng albatta uni bir necha daqiqaga olib qo‘yadilar. Ko‘pgina Britaniyaliklar achchiq, sut va shakar solingan choyni xush ko‘radilar.

Lug‘at

qo‘zg‘olon - бунт

tabaqa – класс

tanovul qilmoq – трапезничать, кушать

2-topshiriq. Matnni rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Кембридж



Кембридж — город в Англии, в графстве Кембриджшир. Он расположен в 70 км к северу от Лондона на реке Кэм. Самое раннее письменное упоминание о городе относится к 730 году, когда римляне разместили на берегу реки Кем свой воинский гарнизон. Кембридж имел удобное речное сообщение и выход к морям. Поэтому к нему сначала

потянулись торговцы, а позже монахи, открывшие здесь несколько монастырей. Кембридж известен как один из старейших университетских городов. Кембриджский университет был организован в начале XIII века по оксфордской модели (университет в Оксфорде появился чуть раньше). Он также состоит из нескольких автономных колледжей, каждый из которых является учебным, научным и административным центром и не подчиняется никому.

Эта модель сохранилась до наших дней, и это отличает Кембридж и Оксфорд от университетов, появившихся в более поздние времена. Среди самых известных сегодня колледжей Кембриджа: Trinity, KingXs, QueensX, Clare. В историческом центре Кембриджа ограничено движение машин, поэтому здесь любимый вид транспорта — велосипед. На территорию университета и на велосипеде заезжать запрещено.

3-topshiriq. Holat va hususiyatni bildiruvchi sifatlarni aniqlang, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Havo rang, jahldor, xushbo‘y, silliq, dumaloq, yomon, shirin, nordon, quvonchli, struv.

4-topshiriq. O‘tgan zamon fe’llari ishtirok etgan gaplar tuzing va ularni rus tiliga tarjima qiling.

5-topshiriq. Bu yil qanday deb nomlanali? Shu haqda do‘stingiz bilan suhbatlashing.



1-topshiriq. Matnni o‘qing. Rus tiliga tarjima qiling.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA HARAkatLI O‘YINLAR

O‘qituvchi har bir dars uchun bolalar organizmiga har taraflama ijobiy ta’sir etuvchi turli mashq va harakatli o‘yinlarni tanlashi va ularni o‘tkazishda har xil usullardan foydalanib borishi lozim.

Darsda, shuningdek, turli o‘ynlarni o‘tkazish jarayonida o‘rganiladigan materiallarning metodik jihatdan izchilligiga alohida e’tibor berish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu izchillik birinchidan, darsning ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarini to‘g‘ri hal qilish, ikkinchidan, dars materiallarini to‘liq o‘tishga erishish, uchinchidan, butun dars davomida har bir mashqni muayyan me’yorda amalga oshirish imkonini beradi.

Darsning boshida yoki o‘rtasida zo‘r e’tibor berishni va o‘zaro muvofiq murakkab harakatlar qilishni taqozo etadigan o‘yin hamda mashqlar o‘tkazilsa, dars oxirida o‘quvchilarning charchagan tana a’zolarini birmuncha tinch holatga keltiradigan o‘yin va mashqlarni o‘tkazish kerak. Masalan, dars boshida bolalarning diqqatini to‘plash uchun “O‘ylab top”, “Hamma o‘z joyiga”, “Man qilingan harakat”, singari o‘yinlar o‘tkazilsa, darsning asosiy qismida “Quvnoq bolalar”, “Qoch bolam”, “Kalxat keldi” kabi serharakat o‘yinlarni o‘tkazish tavsiya etiladi.

O‘rta yoshdagi o‘quvchilar bilan darsning asosiy qismida “Cho‘pon, qo‘y va bo‘ri”, “Oq tosh”, “Oq ayiqlar” va boshqa o‘yinlarni o‘tkazish, darsning yakunlovchi qismida esa kam harakatli “Pat”, “Pr-r-r...” (qush uchishini ifodalovchi tovush) singari o‘yinlarni o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Agar butun dars o‘yinlardan iborat bo‘lsa, serharakat o‘yinlarni kam harakatli o‘yinlar bilan, bir xil yo‘sindagi o‘yinlarni ikkinchi xil yo‘sindagi o‘yinlar bilan navbatlashtirib o‘tkazish kerak.

Agar o‘qituvchi bir sport turi texnikasining ayrim qismini o‘yin orqali bolalarga o‘rgatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ysa, avval o‘yinining mazmuni va yo‘nalishi puxta o‘ylab olishi zarur.

Masalan, “To‘pni oldirma” yoki “To‘p ilish” o‘yinlari yordamida bolalarga to‘p uzatish va ilib olish harakatlarini o‘rgatish belgilangan bo‘lsa, bu ishni faqat mazkur o‘yinlar orqali amalga oshirib bo‘lmaydi. Chunki o‘ynayotganlarning asosiy e’tibori to‘pni tez uzatish va ilib olish bilan band bo‘lib, o‘yin texnikasi elementlarini bajarish e’tibordan chetda qoladi. Agar bu ish tegishli metodik ko‘rsatmalarga amal qilib va ba’zi bir

o'zgarishlar kiritib o'tkaziladigan o'yinlar yordamida bajarilsa, maqsadga erishish mumkin.

Lug'at

izchillik - последовательность

diqqatini to'plash – собрать внимание

serharakat o'yinlar – подвижные игры

kam harakatli o'yinlar – мало подвижные игры

2-topshiriq. O'qing. Bosh va ergash gaplarni aniqlang hamda rus tiliga tarjima qiling.

1. Chaqmoq chaqib, yirik-yirik yomg'ir tomchilari derazalarga urila boshladi. 3. Safar bo'zchi darvozadan kirganda, ichkaridan bir xotin chiqib qoldi. (A.Qodiriy) 4. Mehriniso quyosh qoraygandan keyin, xavotirlana boshladi. 5. Hammaga ma'lum bo'ldiki, hali ishlarimizda kamchiliklar ko'p ekan. 6. Shunday asarlar ham bo'ladiki, ularni o'qiysan-u, lekin keyinroq nima haqida yozilganini eslay olmaysan.

3-topshiriq. Ko'chiring. Ravishlarni toping.

1. Sevara har vaqt o'ylab gapiradi. 2. Men asta-sekin bu xonadonning past-balandini yaxshi o'rganib oldim. 3. Ular birin-ketin ko'chadan yurib bordilar. 4. Mehmonlar ertaga sayohatga ketadilar. 5. Kecha guruhimiz bilan yigirma tupcha ko'chat ekdik.

4-topshiriq. Tovush o'zgarishlari yuz bergan so'zlarni aniqlang va yozilishiga e'tibor berib o'qing.

1. Bugun dugonam to'yga yangi ko'ylak kiyib keldi. 2. Birinchi kurs talabalari toqqa dam olgani ketdilar. 3. Kelgan hasharchilar olma terish uchun boqqa kirib ketishdi. 4. Kecha akam eshikka qulf o'rnatib berdi. 5. Biz avval tog'ning yon bag'rida dam oldik, so'ngra toqqa chiqdik. 6. Jamshid eshikka chiqqanda, mashina kutib turardi.

5-topshiriq. Nuqtalar o'rniga quyidagi so'zlarning mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring, qo'shma so'zlarning tagiga chizing.

Yangiyo'l, poliz, anjir, Mirzo Ulug'bek, anor, Toshkent, toshko'mir, Angren.

1. Tumanlararo musobaqada ... tuman o'quvchilari qolib chiqdi. 2. ... shahrida yoq zavodi bor. 3. Dam olish kuni biz buvimning ... qovun sayliga bordik. 4. Bizning bog'imizda ... va ... bor. 5. Xalq shoiri O'tkir Hoshimov shahrida tug'ilgan. 6. ... ko'mir koni xalqimizga, ... yetkazib bermoqda.



1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima giling, ma'nosini tushuntirib bering.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA HARAKATLI O'YINLAR (davomi)

O'ynovchilarni ortiq charchatib qo'ymaslik uchun hayajonli va ermak o'yinlarni ko'p o'tkazavermay, ularni bolalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi va organizmi imkoniyatini hisobga olgan holda boshqa xildagi o'yin va mashqlar bilan qo'shib olib borish kerak.

Hushyor o'qituvchi ayrim bolalarning charchashi belgilarini (rangi, harakatlari sustligini va o'yinni davom ettirish istagi yo'qligini) darhol sezib oladi.

Jismoniy tarbiya darsining muhim xususiyatlaridan bir vaqtda unumli foydalanishdir. Bu tadbir darsni samarali o'tish imkonini beradi. O'yin paytida uning qoidalarini buzgan o'quvchilarni o'yindan chiqarib yuborish emas, balki, ularga jarima ochkolari berish orqali "jazolash" maqsadga muvofiqdir. O'yin bo'linib qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun unga yaxshi tayyorgarlik ko'rish, o'yin o'tkaziladigan joyni va kerakli asbob-uskunalarni oldindan taxt qilib qo'yish lozim. a qo'shimchalar kiritishi mumkin.

Harakatli o'yinlarni o'quv yilining choraklari bo'yicha rejalashtirishda ob-havo sharoitlarini hisobga olish kerak, albatta. Masalan, O'zbekistonda dekabr, yanvar, fevral oylaridan boshqa paytlarda mashgulotlarni ochiq havoda o'tkazish mumkin. Biroq ob-havo yaxshi vaqtga mo'ljallangan "Chillak", "Oqtosh", "Qoziq", "Tegizsang-minasan", "Bayroq uchun kurash" singari o'yinlar rejalashtirilganida ehtiyot uchun ularning o'rniga bino ichkarisida o'tkazsa bo'ladigan o'yinlarni ham belgilab qo'yish kerak.

Har bir chorak oxirida o'tkaziladigan tekshirish mashg'ulotlari uchun turli jismoniy mashqlardan iborat o'yinlarni rejalashtirish lozim. Bunday o'yinlar o'quvchilarning tayyorgarligani, egallagan malakalarini, harakatlarining tezligi va o'zaro muvofiqligani sinab ko'rishda yordam beradi.

I-IV sinf o'quvchilarida uyushqoqlik bilan bir maromda yurish ko'nikmalarini hosil qilish uchun doira bo'lib aylanib raqsga tushiladigan, ashula aytiladigan o'yinlarni, musiqa jo'rligida o'ynaladigan o'yinlarni, shuningdek, aytilayotgan she'r vazniga mos harakatlar bajariladigan o'yinlarni tanlash lozim. Shu maqsadda "Musiqa jo'rligida yurish", "Karusel ", "O'ylab top", "Kimning ovozi" singari ommaviy o'yinlardan, shuningdek, "O'rasan-bo'ras an", "Pat", "Pr-r-r...", "Oq terakmi - ko'k terak" kabi milliy o'yinlardan foydalanish mumkin. Bu o'yinlar juda oddiy va oson bo'lib, ulardan jismoniy tarbiya darslarida, xususan darsning boshi va oxirida samarali foydalanib kelinayapti.

Turli harakatlarni bajarishda ijodiy hayol va mustaqillikni o'stirishga bevosita yordam beradigan "Pr-r-r...", "Pat", "Kim keldi" singari mazmunli o'yinlarni tanlash va o'tkazish ham muhimdir.

Agar darsda bir nechta o'yin o'tkazilsa, ular turli yo'sinda bo'lishi, ularga har xil mashqlar va harakatlar kiritilishi lozim. O'qituvchi har bir darsning aniq vazifasini nazarda tutib, ana shu vazifani amalga oshirishda yordam beradigan o'yinlarni tanlashi kerak.

Lug'at

hayajonli va ermak o'yinlar- возбуждённые и развлекательные игры

hushyor - внимательно

samarali - эффективно

asbob-uskunalar - инструменты

malakalarini - навыки

uyushqoqlik - организованность

2-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Чтобы отдохнуть, альпинисты остановились у подножья гор. Автобус остановился около гостиницы, чтобы забрать гостей. Для того, чтобы показать нам свое успехи, Нафиса прочла свое стихи. Для того, чтобы лучше знать узбекский язык, нужно чаще говорить на нём. Чтобы много знать, нужно много учиться.

3-topshiriq. Quyidagi fe'llardan ravishdosh shakllarini hosil qiling:

o'qimoq, ishlamoq, chizmoq, yurgizmoq, ko'karmoq, esmoq, shodlanmoq, yugurmoq.

4-topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мать Алишера Навои была образованной, просвещенной женщиной. 2. Мне необходимо научиться правильно писать по-узбекски. 3. Я вчера получил письмо от друга. 4. Мой старший брат по служебным делам уехал в Самарканд. 5. Мы с интересом прочитали сегодняшнюю газетную статью.

5-topshiriq. Kursdoshingiz bilan o'tilayoygan fanlar, egallamoqchi bo'lgan kasbingiz haqida suhbatlashing. Dialogni daftaringizga yozing.



1-topshiriq. Matnni o'qing. Rus tiliga tarjima qiling.

XUSNIXAT

Husnixat va uni o'qitish metodikasi fani amaliy fan, chunki u o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, o'stirishning amaliy vazifalarini bajaradi.

Boshqa fanlar kabi husnixat o'qitish metodikasining ham o'z predmeti bor. Husnixat o'qitish metodikasining o'rgatish predmeti ta'lim berish sharoitida chiroyli yozuvni egallash, grafik jihatdan to'g'ri, chiroyli yozishga o'rgatish jarayoni hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatishning asosiy vazifasi ularga husnixat yuzasidan amaliy bilimlar berish, tez, to'g'ri va chiroyli yozuvga o'rgatishdir. Husnixat va uni o'qitish metodikasi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini o'rganadi, o'qitishning muvaffaqiyati va kamchiliklarining sababini aniqlaydi, grafik xatolarni tekshiradi va ularning oldini olish, yo'qotish usullarini topadi.

Husnixat darslari birinchi sinfda savod o'rgatish davri tugagandan so'ng, 3-chorakdan boshlab alohida olib boriladi. Ammo dastlabki husnixat malakalari o'quvchilar maktabga qadam qo'ygandan boshlab amalga oshiriladi, ya'ni yozuv darslarida husnixat malakalari o'stiriladi.

Birinchi sinfda yozuv darslari husnixat malakasini o'qitish orqali olib boriladi. Chiroyli va toza yozilgan xat yozayotgan shaxsning madaniyatini va uni o'qiydigan kishiga nisbatan hurmatini ham belgilaydi. Hozirgi kunda fan-texnika taraqqiyotining o'sishi orqali kundalik hayotimizda turli-tuman (qogozlardan) hujjatlardan keng foydalanamiz, har xil konspektlar, ish qog'ozlari, hisobotlar keng o'rin olmoqda. Bularning hammasi faqat chiroyli va aniq yozish bilan birga, tezlikni ham talab etadi.

Umumiy ta'lim maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida ko'rsatilganidek, yozuv darslarida harflarni aniq, toza va chiroyli yozishni mukammal o'rgatish talab etiladi.

Ammo qisqa muddat ichida o'quvchilarda chiroyli, tez va toza yozish malakalarini o'stirish mumkin emas, buning uchun bir necha yil talab etiladi.

Lugʻat

jarayon - процесс

bosqich - этап

taraqqiyot - развитие

isloh qilish - реформировать

2-topshiriq. O'qing, ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlang va gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Kecha do'stimni yozuvchilar bilan uchrashuvda uchratdim. 2. Biz do'stlik haqida uzoq suhbatlashdik. 3. Bu maydonga katta sport maydonchasi quriladi. 4. Kechagi musobaqada bizning universitetimiz talabalari g'olib chiqdi. 5. Bugun poytaxtimizda katta anjuman bo'lib o'tadi. 6. Nodir sekin kulib qo'ydi.

3-topshiriq. Nuqtalar o'rniga bosh yoki ergash gapni qo'yib yozing.

1. Men istaymanki, ... 2. Agar ertaga Salima darsga kelmasa, ... 3. U sizga shuni aytmoqchiki, ... 4. Shuni yodda tutish kerakki,... 5. Shunday asarlar bo'ladiki,... 6. Men ko'rib turibmanki,... 7. Ko'nglingiz nimani istasa,... 8. Kim odobli bo'lsa,...

4-topshiriq. Berilgan ravishlar ishtirokida gaplar tuzing va rus tiliga tarjima qiling:

qisqacha, do'stona, tez, avval, hozir, yaxshilab, ko'pincha, umuman.

5-topshiriq. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Любишь кататься, люби и саночки возить. 2. С кем поведёшься, от того и наберёшься. 3. Без труда не вынешь и рыбку из пруда. 4. Что написано пером, не вырубишь топором. 5. Век живи. Век учись. 6. Не спеши языком – торопись делом.



1-topshiriq. Matnni o'qing. Rus tiliga tarjima qiling.

HUSNIXAT (Davomi)

Chiroyli yozuvga o'rgatish uchun bolalarning maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab quyidagi vazifalarni bajarishlari talab etiladi.

1. Yozuv vaqtida partada to'g'ri o'tirish.
2. Ruchkadan to'g'ri foydalanish.
3. Daftardan to'g'ri foydalanish.
4. Yozma va bosma harflarning shakli bilan tanishtirish.
5. Yozma shakldagi harflar yordamida bo'g'in, so'z va gap tuzishga o'rgatish.

Yuqorida ko'rsatilgan malakalar shakllangandan so'ng husnixat darslarida ular mustahkamlanadi.

Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to'g'ri tasavvur etishga, bir xil qiyalikda (65°) yozishga, so'zlarni qatorlarga to'g'ri joylashtirishga o'rgatiladi.

Daftar chiziqlarini birin-ketin almashuvi davomida, harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to'g'ri saqlash, kichik va bosh harflarning nisbatini to'g'ri chamalab yozishga o'rgatish juda muhimdir. Shuningdek, husnixat darslarida ma'lum guruhga oid harflarni yozishga o'rgatishda o'quvchilarda uchraydigan ayrim tipik xatolarning oldini olish va tuzatish ustida ham ish olib borish lozim. Yozuvning tezligi oshishi bilan ayrim bir-biriga o'xshash harflarning shaklini buzib yozish hollari uchraganda esa, ularni qayta mashq qildirish lozim.

Birinchi va ikkinchi sinflarda chiroyli yozuvga o'rgatishda chiziqli daftarlardan to'g'ri foydalanishga alohida e'tibor berish zarur.

Birinchi sinfda kichik harflarning balandligi va qiyaligi chiziqlar yordamida chegaralangan bo'lsa ham bosh harflarni yozishda o'quvchilar xatoga yo'l qo'yishlari mumkin.

Bir chiziqli daftarga yozishga o'tilganda esa o'quvchilar oldiga qator vazifalar qo'yiladi, endi ulardan harflarning orasidagi masofalarni chamalab yozishlari talab etiladi. Chiroyli yozuvga o'rgatish umumiy didaktik qoidalar bilan birga yozuv malakasini shakllantiruvchi o'ziga xos qoidalarni ham o'z ichiga oladi.

Lugʻat

yoza va bosma harflar – прописные и печатные буквы

shakllantirish - развивать

qiyalik - наклонение

bir chiziqli daftar - тетрадь в линейку

2-topshiriq. Quyidagi soʻzlarga ot yasovchi qoʻshimchalarning mosini qoʻshib otlar yasang va rus tiliga tarjima qiling.

Vatan, suv, turkman, osh, oʻr, yot, uzumzor, boshqar, tinch.

3-topshiriq. Quyidagi gaplarni oʻzbek tiliga tarjima qiling, orttirma darajadagi sifatlarni aniqlang.

1. Чтобы наша Родина стала сильнее, мы должны овладевать знаниями. 2. Чтобы много знать, нужно очень много читать. 3. Эта книга интереснее других. 4. Самарканд – древнейший город Узбекистана. 5. Мы соревновались с сильнейшей командой.

4-topshiriq. Quyidagi gaplarni rus tiliga og‘zaki tarjima qiling, fe’l zamonlarini aniqlang.

1. O‘zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiy 1441 yil 18 fevralda Hirot shahrida tug‘ilgan. 2. Biz Navoiyning ba’zi asarlari bilan kollejda tanishganmiz. 3. Men Navoiyning bir qancha hikmatli so‘zlarini yodlab olganman. 4. Men Oybekning “Navoiy” romanini rus tilida o‘qiganman.

5-topshiriq. Quyidagi taqlidiy so‘zlar bilan gaplar tuzing:

dag‘-dag‘ titramoq, dir-dir titramoq, duk-duk urmoq, taqir-tuqur , lip-lip etmoq, shaldur-shuldur.



1-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini aytib bering.

DARSDAN TASHQARI VA TANAFFUS VAQTLARIDA O‘TKAZILADIGAN O‘YINLAR

Tanaffus vaqtlarida o‘yinlar o‘tkazish tarbiyaviy va gigiyenik jihatdan katta ahamiyatga ega.

O‘quvchilar yozda maktab maydonchasida, qishda esa sport zali va yo‘laklarda o‘ynashni yaxshi ko‘radilar. Tanaffus vaqtlarida ko‘pincha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlari har xil o‘yinlarni o‘tkazadilar. Ana shunday paytlarda tarbiyachilar yoki yuqori sinf o‘quvchilari ularga yordam berishlari kerak. Agar o‘tkaziladigan o‘yin bolalarga tanish bo‘lsa, tanaffus paytida yanada qiziqarliroq o‘tadi. Lekin bu o‘yinlarning mazmuni va qoidalari juda murakkab bo‘lmasligi bilan birga turli yoshdagi o‘quvchilarning qo‘lidan keladigan bo‘lishi kerak. O‘quvchilar o‘yin jarayonida o‘zlarini erkin tutishlari, ortiqcha kuch sarflamasliklari va hayajonlanmasliklari lozim. Masalan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga “Pat” , "Pr-r-r..", "Mushuk va sichqon", "Bo‘sh joy" singari o‘yinlar, V-VIII sinf o‘quvchilariga esa "Aylanma darra", "Tegizsang-minasan" kabi o‘yinlar juda mosdir.

Takaffuslardagi o‘yinlarni dars boshlanishiga 2-3 dagiga qolganda tamomlash kerak. Ana shunda o‘quv mashg‘uloti boshlanishidan oldin bolalarning diqqati bir yerga to‘planadi.

Lug‘at

o‘yin jarayonida – во время игры
kuch sarflamasliklari – не напрягаться
hayajonlanmasliklari – не волновались

2-topshiriq. Quyidagi gaplardagi bog‘lovchi va ko‘makchilarni aniqlang va gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Dunyoda oqilona so‘z va yaxshi nomdan boshqasi unutiladi.
2. Tong yorishgan, ammo hali quyosh chiqmagan edi.
3. To‘g‘rilik bilan xiyonat, yolg‘onchilik bilan diyonat chiqisha olmaydi.
4. To‘rt narsa hama uchun kerak: salomatlik, go‘zal xulq, rostgo‘ylik va halol mehnat.
5. Yurtimizning bu kuni chiroyli, lekin ertasi, indini yana chiroyliroq, baxtliroq bo‘ladi.

3-topshiriq. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling va qo‘shma gaplarni aniqlang.

1. Кто молчит, тот хорош.
2. Кто не знает тебя, не знает правды.
3. Кто честно трудится, того все уважают.
4. Известно, что уважение к труду - одно из высоких достоинств поведения.
5. Хотя мы умрем, имена наши останутся навсегда.

4-topshiriq. Quyidagi gaplarda nuqtalar o‘rniga tegishli fe’llarni qo‘ying va rus tiliga tarjima qiling.

1. Kun qaytib, kechki salqin tushib...
2. Po‘latjon ishdan charchab...
3. Majlisimiz kech soat sakkizda...
4. Kelasi yil biz chet elga...
5. Men bozorga borib, olma, uzum, nok, qovun...

5-topshiriq. Tanlagan kasbingiz haqida gapirib bering.



1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini aytib bering.

MAKTAB BO'LIMLARIDA SPORT TURLARIGA DOIR O'YINLAR

Harakatli o'yinlar, estafeta o'yinlari maktab sport bo'limlarida yetakchi o'rin olishi kerak.

Harakatli o'yinlar basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi va boshqa bo'limlarida ko'proq qo'llanadi. Shuningdek, gimnastika, yengil atletika va suzish bo'limlarida ham harakatli o'yinlardan foydalaniladi.

Bo'limlarda har xil o'yinlardan muntazam ravishda o'rinli foydalanish o'quvchilarning jismoniy barkamolligiga, ulardagi malakalarning takomillashuviga katta yordam beradi. O'quvchilarda zaruriy jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun jismoniy tarbiya darslarida ilgari o'rganilgan o'yinlarni yangi qoidalar asosida yangi o'tish lozim.

Bo'limlar ishida harakatli o'yinlardan keng foydalanishda bolalarning yosh xususiyatlarini, shuningdek, mahalliy va mavsumiy sharoitlarni aniq hisobga olish kerak. Uncha tayyorgarlik ko'rmagan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga juda ko'p va xilma-xil o'yinlar o'rgatiladi.

Yaxshiroq tayyorgarlik ko'rgan guruhlarda o'yinlar kamroq o'tkaziladi. O'zbekistonda bahor, yoz va kuz fasllarida ayniqsa, basketbol, volleybol, qo'l to'pi, tennis va yengil atletika bo'limlari ishlab turishi, bunday vaqtlarda "Chillak", "Qoziq", "Kamalak", "Oq tosh" singari milliy va rus xalq o'yinlaridan foydalanish lozim.

Har xil harakatli va sport yo'sinidagi o'yinlardan, shuningdek, yengil atletika mashqlaridan foydalanishda o'quvchilarda musobaqalarga qiziqish uyg'otish g'oyat foydalidir.

O'quvchilar ko'pincha o'yinga berilib ketib, uni o'zgartiradilar, eski qoidalarni, yig'ishtirib qo'yib, yangilarini o'ylab chiqaradilar, maqsadga erishish yo'lini qiyinlashtiradilar va shu tariga yangi o'yinni vujudga keltiradilar. Ana shuning uchun o'yinlarni takrorlashdan (ayniqsa bolalarning istagi bilan bog'liq bo'lgan hollarda) sira erinmaslik kerak.

Lug‘at

muntazam ravisnda - регулярно
takomillashuv -совершенствование

2-topshiriq. Quyidagi maqollarning rus tilidagi muqobilini toping.

1. Tani sog‘liq - tuman boylik.
2. Sog‘ tanda sog‘lom aql.
3. Boylikning boshi – sog‘liq.
4. El sog‘lig‘i - yurt boyligi.

3-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. O‘zbekistonda qaysi yil «Sog‘lom avlod yili» deb e‘lon qilingan?
2. “Sog‘lom avlod uchun” ordeni respublikamizda qachon ta‘sis etilgan?
3. Respublikamizda sog‘liqni saqlash masalalariga qanday e‘tibor berilgan?
4. Siz qanday sport turlarini bilasiz?
5. Qishki va yozgi Olimpiada o‘yinlari qachon va qayerda o‘tkazilgan?
6. O‘zingiz sportning qaysi turini yoqtirasiz? Nima bilan shug‘ullanasiz?

4-topshiriq. Prezidentimizning sport haqidagi fikrlarini o‘qing.

1. “ Hech bir narsa mamlakatni sport kabi tezda dunyoga mashhur qila olmaydi”. 2. “Sport odamni mard, matonatli va bardoshli qilib tarbiyalaydi”. 3. “Sportchi maydonga o‘z yurti, o‘z xalqi nomidan tushadi. Uning g‘alabasi sharafiga Davlat madhiyasi yangraydi, millat o‘z chempionlari bilan faxrlanadi, g‘ururlanadi. Shuning uchun ham ular Vatanning iftixorlari hisoblanadi”.

5-topshiriq. Respublikamizning taniqli sportchilari haqida so‘zlab bering.



1-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini aytib bering.

MILLIY MAKTAB

Xalqimizning ma'naviy mustaqillikka erishishida xalq ta'limi yetakchi omildir. O'zbek xalqini va mamlakatimizda yashaydigan boshqa xalqlarni ma'naviy mustaqillik, ozodlikka chiqarishining muhim vositasi yoshlarni bolalar bog'chasidan boshlab ozodlik va mustaqillikni anglash, qadrlash ruhida tarbiyalash va milliy xususiyatlarga mos maktablar yaratishdan iborat.

O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim maktabining maqsadi har bir bolada mavjud bo'lgan qobiliyat va layoqatlarni erkin rivojlantirish, ilm asoslarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'rganish, axloqli va odobli o'stirish, ularni mustaqil hayot va mehnat faoliyatiga yo'naltirishdan iborat.

Hozirgi kunga kelib maktablarimizni rekonstruksiya qilishga, qaytadan jixozlashga va ta'lim sifatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Davlat dasturi asosida yurtimizdagi barcha maktablar bosqichma-bosqich kapital ta'mirdan chiqarilmoqda.

Maktabda berilayotgan ta'lim sifatini oshirish maqsadida kadrlar tayyorlash jaroyoniga chuqur yondashilmoqda. Bolalarni maktabda barcha qiziqqan fanlarini va qiziqishlarini qondirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan

Lug‘at

ma'naviy – духовный, нравственный

qobiliyat – способность

layoqat – дар

dastur - программа

bosqichma-bosqich – поэтапно (-ый, ая)

2-topshiriq. Ko‘chiring, Bosh kelishikdagi ot qaysi gap bo‘lagi bo‘lib kelganligini aniqlang.

1. Tarixdan besh oldim, do'stim. 2. Ra'no, kecha nima uchun konsertga kelmading. 3. Tun. Naqadar go'zal! 4. Bahor. Qushlar o'ynar osmonda. 5. Biz hammamiz inoq talabalarmiz. 6. Keksa ota o'z o'g'lini kutar edi. 7. Shahrimiz yildan-yilga yashnab ketmoqda. 8. Biz siz bilan eski do'stmiz.

3-topshiriq . Berilgan fe'llar ishtirokida 6 ta gap tuzing, rus tiliga tarjima qiling.

Aylantiromiq, ta'kidlamoq, suqarmoq, bezamoq, pishirmoq, uchmoq, suzmoq, tugatmoq, gullamoq, yashirmoq, yozmoq, to'qimoq.

4-topshiriq. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Каждый из нас принёс по пять книг для школьной библиотеки. 2. Тут каждый камень памятен и дорог. 3. Я не могу думать только о себе. 4. Ты сегодня доволен своей работой? 5. Самокритика помогает улучшать работу. 6. Я узнал о приезде футболистов. 7. Они будут работать там, где стоят новые оборудования.

5-topshiriq. Berilgan gaplarni davom ettiring.

1. Bahor keldi va ... 2.Kuzning oxirgi oyi boshlandi, lekin... 3. Havo bulut bo'ldi, biroq... 4.Bu juda qiziq kitob ekan, ... 5.Dam kulgim keldi, ... 6. Kech kirdi va ...

6-topshiriq. Siz o'rganayotgan asosiy fanga taalluqli atamalardan 10 tasini yozing, ular bilan so'z birikmalari va gaplar tuzing.



1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini aytib bering.

OTA - ONANI E'ZOZLANG

Ota-onani e'zozlash va ulug'lash asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan el-yurtga xos olijanob an'analardan biridir. O'z ota-onasining qadrini bilmagan odam, do'stlarining ham hurmatiga arzimaydi. Ota-onaning qalbi mehr-muruvvatga to'liq bo'ladi, farzandlaridan jonini ham ayamaydi. Lekin yaxshi farzand ularning mehr chashmasidan oqilona foydalanadi, suiste'mol qilmaydi.

Farzandlarning ota-onasiga bo'lgan shirin so'zi, xushmuomalasi, mehribonliklari ustiga ularning jamiyat ustiga qilgan go'zal ishlari ham qo'shilsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Ota-onang umri boqiy bo'lib tetik

yashashini istasang, doimo ularning ko'ngillarini shod et. Oqil o'g'il, komila qiz : "Ota-onamni shod qilish uchun nima ish qiloldim?", deb vijdoni bilan suhbatlashib turadi.

Insonlardagi vijdon va or-nomus ota-onasining qadr-qimmatini tushunishdan boshlanadi. Inson bo'lishning alifbosi shu, chunki barcha xalqlar qay tilda gapirmasin, dastlabki so'zlari ona tilida "ota-ona" deyishdan boshlanadi, insonning birinchi so'z debochasi ham ota, onadir.

Bizning dunyoga kelishimizga, o'sib-ulg'ayib kamolotga etishishimizning birinchi sabablari ham – bu buyuk insonlardir. Ota-onaning jamoli, qora ko'zlari, qoshu sochlari, kuch qudrati, go'zal chehrasi, qaddu qomati – bularning hammasi bizda namoyon bo'ladi. Ular bizni katta hayotga taqdim qiluvchi ulug' zotlardir.

Farzand ota-onaga kuch quvvat baxsh etadi. Otalarimizning "Farzand ota-ona ko'zining oqu qorasi, belining quvvatidir" degan qimmatli so'zlari farzandga bo'lgan mehr muhabbatni ifoda etadi. Ota-ona qayerda bo'lmasin – ishdami, uzoq safarda, ularning ko'z oldida doim bolalarning timsoli gavdalanib turadi, fikr-u zikri bolada bo'ladi. Albatta, bizga ko'rsatilgan bunday mehribonchilikni biz his etishimiz va o'zimizning namunali hulqimiz va odobimiz bilan javob qaytarishimiz zarur. Bekorga xalqimizda biror xayrli ish qilgan kishiga qarata "Seni tarbiya qilgan ota-onanga rahmat" deb aytilmaydi. Shunday ekan ota-onamiz nomiga doimo rahmatlar yog'dirishimiz – farzandlik burchimizdir. Chunki ota-onalarning eng baxtlisi – bu farzandlari ortidan tashakkur eshitganlaridir. Ota-onangizni doimo izzat qiling va e'zozlang, chunki ular bizga g'animat.

Lug'at

mehr-muruvvat - милосердие

xayrli ish - доброе дело

hulq - поведение

izzat – уважение

g'animat- здесь: не вечны

2-topshiriq. Matndagi juft so'zlarni topib ko'chiring.

3-topshiriq. Nuqtalar o'rniga hozirgi-kelasi zamon sifatldoshi yasovchi affikslarning mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring.

Oq... suv, ishla... kishi, gul ek... odam, chopa... ot, uch... gilam, haydal... yer, o'qila... she'r, yozil... xat.

4-topshiriq. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilib ko'chiring, fe'llarning zamon shaklini aniqlang aytib bering.

1. Летом мы отдыхали в Турции. 2. В нашем университете учатся студенты со всех вилоятов Узбекистана. 3. В Ташкенте есть большой и красивый цирк, который построили в центре города. 4. Я повторил слова, прочитал текст и выучил правила.

5-topshiriq. Berilgan so'z birikmalari bilan gaplar tuzing.

Bayram kayfiyati, Toshkent k o'chalari, talabalar shaharchasi milliy taomlar, o'quv xonalari, xalq sayli.



1-topshiriq. Matnni o'qing rus tiliga tarjima qiling.

ZULFIYA

O'zbek xalqining adabiy merosi juda boydir. Bu merosga o'z hissasini qo'shgan shoir va adiblar talaygina. Albatta ular orasida ayol olimalarning o'rni beqiyosdir. Ana shunday shoiralarning izdoshlaridan biri bo'lgan Zulfiyaxonimdir.

Zulfiya o'zbek ayollariga xos nazokat egasi, vatan oldidagi burchini a'lo darajada ado etuvchi, xalqiga munosib xizmat qilgan munis shoira edi. Uning she'rlari o'zbek she'riyatida alohida o'rin egallaydi. Uning asarlarida ezgulikka, mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ulari aks ettirilgan. Dovrug'i dunyoga ketgan bu ayolning irodasini, bardoshini hayot bir necha bor sinovdan o'tkazdi. Lekin u tushkunlikka tushmadi, sabr, bardosh, intiluvchanlik bilan ularni yengdi.

Zulfiya Isroilova 1915-yilda Toshkentda hunarmand oilasida tug'ildi. U Toshkent xotin-qizlar pedagogika bilim yurtini tamomlagach, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogia institutida o'qidi.

Zulfiya tug'ilib o'sgan yurti go'zalligini chuqur his qiladi: Vatanning ko'm-ko'k bog'lari, baland tog'lari unda o'ziga nisbatan muhabbat, sevgi

uygʻotadi. Zulfiya sevgi va burchni insonning eng oliy his-tuygʻusi deb hisoblaydi.

U insonparvarlikni, el-yurt uchun qaygʻurushni, ilmni eʻzozlash insoniy ulugʻ hislat sifatida qadrlaydi. Insonparvar inson elda ham, yurtda ham hurmat va ehtiromga sazovor ekanligini taʻkidlaydi.

Sheʻrlariga dardlarini, armonga aylangan orzularini pinhon, gohida oshkora joylagan shoira bizni bu goʻzal dunyoning ezgulik yaratuvchi insonlari boʻlishga undaydi.

Tinchlik va shodlikni yaratuvchi xalq,
Sizning qoʻlingizdan kiyinsa goʻzal.
Sizning yuragingiz faxr-la toʻlsa,
Azizlar, baxt bundan boʻlurmi afzal!

Lugʻat

beqiyos - несравненный
ezgulik - доброта
vatanparvarlik - патриотизм
insonparvarlik - гуманный
intiluvchanlik - стремительность
ehtrom - уважение

2-topshiriq. Kishilik, oʻzlik, gumon olmoshlari ishtirok etgan 6 ta gap tuzing.

3-topshiriq. Oʻqing. Tinish belgilarining nima uchun qoʻyilganligini tushuntirib bering. Ertakning davomini oʻzingiz ayting.

Bir kuni qoʻzichoq podadan ajaragan ekan, oldidan och boʻri chiqib qolibti.

- Seni yeyman! – debdi boʻri.
- Meni-ya?
- Ha, seni!
- Rahm qil!
- Men juda ochman. Rahm qilmayman.
- Juda och boʻlsang, mayli yeya qol. Ammo bir shartim bor! – debdi qoʻzichoq...

4-topshiriq. Muhammad Yusufning sheʻrini oʻqing. Mazmunini aytib berind.

Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor,
Toshlarni yig‘latgan dostonlaring bor,
O‘tmishingni o‘ylab og‘riydi jonim,
Ko‘ksing to‘la shahid o‘g‘lonlaring bor.

Bag‘rim o‘rtar bir o‘y bahor ayyomlar,
Oy borgan yoqlarga termulib shomlar.
Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar,
Fayzullodek mardi-maydonlaring

Yurtim, ko‘nglingdek keng osmonlaring bor,
Yulduzni yig‘latgan dostonlaring bor.
Osmonlaringdan ham diydoringga zor,
Jayrondek termulgan Cho‘lponlaring bor.

Qo‘ling qadog‘iga bosay yuzimni,
Onamsan-ku, og‘ir olma so‘zimni,
Qayinbarglar yopib qaro ko‘zini
Olislarda qolgan Usmonlaring bor.

Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,
Ana, yurishibdi kiyganlari zar,
Qodirini sotib shoir bo‘lganlar –
Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor...

Qurboning bo‘layin, ey onajonim,
Sening faryodlaring, mening fig‘onim,
O‘tmishingni o‘ylab o‘rtanar jonim,
Aytsam ado bo‘lmas dostonlaring bor.

5-topshiriq. Sevimli o‘zbek shoirlaringiz ijodidan she‘r yodlang.



1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini aytib bering.

TUSHLAR

XX asrning 70-yillarida ikki amerikalik etnologlar Malayziyaning quyuq tropik o'rmonlarida ibtidoiy senua qabilasini uchratadilar. Bu qabilaning barcha hayoti ular ko'radigan tushlarga bo'ysungan edi. Shu tufayli bu qabilani – tushlar xalqi deb atalar edi.

Har kuni tongda barcha qabila a'zolari olov atrofida yiqilib, tunda qanday tush ko'rganlarini so'zlab berar edilar. Agar biror bir senua tushida qabilaning boshqa a'zosiga shikast yetkazgan bo'lsa, o'ngida u shikastlangan odamga sovg'a berishi lozim edi.

Senua qabilasi haqiqiy hayotdan ko'ra tushlar bilan yashar edilar va ularga qattiq ishonar edilar. Agar o'spirin tushida yo'lbarsni ko'rib undan qochib ketgan bo'lsa, keyingi tun tushida u o'sha yirtqich bilan uchrashib, u bilan kurashishi va uni engishi zarur bo'lgan. Qariyalar esa unga buni qay tariqa uddalash to'g'risida so'zlab berganlar. Agar o'spirin tushida yo'lbarsni yenga olmagan bo'lsa, uni tahqirlanar edi.

Tush uchun eng yaxshi syujet bu – tushda uchish bo'lgan. Agar yosh bola tushida parvoz qilgan bo'lsa, ertasiga uni barcha qabila tabriklab, sovg'alar berishgan va unga keyingi tushlarida qay tariqa uzoq yurtlarga uchib ketishni o'rgatishgan.

Senua qabilasi g'arb etnologlarini juda hayratga solishgan. Qabila zo'ravonlik va ruhiy hastalik nimaligini bilmas edilar. Bu stressiz va urushlarsiz jamiyat edi. Senualar yashash uchun qancha kerak bo'lsa, shuncha ishlar edilar. Senua qabilasi ular yashaydigan o'rmonlarni kesishni boshlaganlaridan keyin yo'qolib ketganlar. Ammo biz ulardan ba'zi narsalarni o'rganishimiz mumkin. Masalan, tongda uyg'ongandan so'ng, tunda ko'rgan tushni qog'ozga yozib, uni nomlash va sanasini qayd etib qo'yish kerak. Keyin esa uni nonushta atrofida yaqinlarga so'zlab berish lozim. Keyingi tun tushlar to'g'risidagi fan qoidalariga ko'ra, ko'rmoqchi bo'lgan tushingizning mavzusini, tushingizda nimalar qilishingizni aniqlab olishingiz zarur: tog'larni surish, osmon ranglarini o'zgartirish, sayohat qilish, yovvoyi hayvonlarni ko'rish va boshqalar.

Tushlar ilmini asta sekin o'zlashtirish lozim. Tushlarni boshqarish uchun bolalarga besh hafta yetarli, kattalar uchun esa ba'zida bunga bir necha oylar sarf qilinadi.

Lug'at

ibtidoiy - первобытный
qabila - племя
shikast yetkazmoq - ранить
yirtqich - хищник
ruhiy hastalik - психическая болезнь

2-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga kerakli bog‘lovchilarni qo‘yib gaplarni ko‘chirib yozing.

1. U ishlaydi ... men o‘qiyman. 2. Kecha havo juda sovuq bo‘ldi, ... qor yoqmadi. 3. Biz topshiriqlarni bajardik, ... hali baholarimizni eshitmadik. 4. Men o‘zimni tanishtirdim, ... siz hali tanishtirmadingiz.

3-topshiriq. O‘qing. Ravishlarni topib, ma’no jihatdan turini aytib bering.

O‘zbekistonda juda ko‘p tekisliklar bor. Tekisliklarning ko‘pchiligi cho‘l yerlar. Lekin tekisliklarning u yer-bu yerida tepaliklar uchraydi. Tekislik yerlardan tevarak –atrofqa qarasak, ularning juda kattaligi tufayli atrofdagi tog‘lar zo‘rg‘a ko‘rinadi. Quyosh ufqda juda erta ko‘rinadi.

4-topshiriq. Qavs ichidagi fe'llarni buyruq maylidagi fe'llarga aylantirib gaplarni ko‘chiring, zarur tinish belgilarini qo‘ying.

O‘quvchilar vaqtdan to‘g‘ri (foydalanmoq), bilimni puxta (egallamoq). Kitobni (sevmoq). Kitob – yaxshi maslaqatdosh. Kitobsiz bilimli, madaniyatli kishi bo‘lib yetishish mumkin emas. Kitobdan to‘g‘ri (foydalanmoq). Kitob o‘qib, bilimingizni (boyitmoq). Yaxshi kitobxon (bo‘lmoq). Bir-biringizga nisbatan mehr-oqibatli (bo‘lmoq)

5-topshiriq. O‘qing. Ravishdoshlarni toping.

1. Suv shovillab oqadi. 2. Suv toshdan-toshga, qirg‘oqlarga urilib, ko‘pirib har tomonga sochrar edi. 3. Yoqingarchilik yaqinlashguncha, yiqim-terim ishlari tugallandi. 4. Ko‘kda yulduzlar yarqirab ko‘rindi. 5. Qalin qorda otlar erinib qadam tashlar edi.



1-topshiriq. Abu Rayhon Beruniy hikmatlarini rus tiliga tarjima qiling.

ABU RAYHON BERUNIY HIKMATLARIDAN

Hakim va olimlar axloqidan ta'lim olish yaxshi xulqqa hayot baxsh etadi, yomon xulqni o'ldiradi.

Odamlar o'rgangan va bilgan narsasiga qarshilik ko'rsatma.

Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi.

Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir.

Bugunning chorasini ko'rib ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir.

Sevimii narsalarga mashaqqat bilan, yaxshilikka esa o'ziga sevimii bo'lgan narsalarni sarf qilish bilan erishiladi.

Hasad bilan g'azab ikki qanot bo'lib harakatga kelsa, toza va chiroyli hayotlarni xira va qudratli qilib yuboradi.

Har bir yangi narsada lazzat bor.

Inson hayotidagi zarurat, ehtiyojlar ularda ilmlarga bo'lgan talablarni keltirib chiqaradi.

Mardi maydon shunday odam bo'ladiki, ertayu-kech dushmanga zararu do'stga foyda keltiradi.

Doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi.

Nodonlik — bedavo kasallikdir.

Til - sozlovchi istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimondir.

Xayr saxovat ham mardlik sanaladi.

Ishi yurishmaganni tahqirlama.

Yaxshi bilmagan narsasiga uringan kishi sharmanda bo'ladi.

Xato sodir bo'lmasligi uchun donishmandlar qayta qayta kuzatishni va ziyon yetish imkoniyatidan saqlashni tavsiya qilganlar.

Kishining ko'ngli kelishgan va tartibli har bir narsaga qiziqadi, tartibsiz narsadan nafratlanadi.

Ne'matning qadri u yo'qolgandan keyingina bilinadi.

Lug'at

ehtiros- страсть

g'am-g'ussa – горе, печаль, тоска

hasad- зависть (черная)

lazzat - наслаждение

xaʼyr-u saxovat – благотворительность, добродетель
neʼmat- благо
tahqirlamoq- оскорблять, пренебрегать

2-topshiriq. Berilgan qoʻshma fe'llardan gaplar tuzing.

Yordam bermoq, xafa boʻlmoq, uchratib qolmoq, yozib olmoq, gapirib bermoq, taklif qilmoq, qaror qilmoq, olib kelmoq.

3-topshiriq. Nuqtalar oʻrniga yuklamalarni qoʻyib gaplarni koʻchiring.

1. Qani, suratni menga ber-..., bir koʻray. 2. Nok shirin..., lekin kech hosilga kiradi. 3. Choʻmilishga u ham bordi... 4. Beri kel-... , tishingni bir koʻrib qoʻyay.

4-topshiriq. Quyidagi maqollarni koʻchiring va maʼnosini tushuntiring.

1. Dono oʻzini ayblaydi, axmoq doʻstini. 2. Doʻst achitib gapirar, dushman kuldirib. 3. Ayrilganni ayiq yer, boʻlinganni boʻri. 4. Mehnatdan kelsa boylik, turmush boʻlar chiroyli.

5-topshiriq. Oʻqing, fe'llarni qaysi mayldaligini aytib bering.

1. Xolida oʻrtogʻini koʻray deb kasalxonaga ketdi. 2. Mening otam-onam ilgari Buxoro shahrida yashar edilar. 3. Ukam oʻqisin deb unga kitobcha sovgʻa qildim. 4. Feruza, sen bu xatni Ravshan amakingga ber. 5. Yuringlar, bugun biz ham Toshkent muzeylarini aylanib kelaylik. 6. Topshiriqni bajarib boʻlgach, menga uchrashinglar. 7. Men institutga borib kelay, keyin siz bilan kutubxonaga boramiz. 8. Paxtani oʻz vaqtida nobud qilmay terib olaylik.



1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

OLIGOFREN BOLALAR XARAKTERISTIKASI

Olifofreniya yunoncha oligos – kam, oz, fren -agl soʻzlaridan olingan boʻlib, esi past, agli past demakdir. Oligofren bolalar markaziy nerv sistemasining organik kasalliklari natijasida bilish faoliyati pasayib

ketishi va bu nuqsonlar umrbod saglanib golish bilan boshga anomal bolalardan farq qiladilar.

Amaliyotda “aglan zaif, “oligofren”, “demensiya” degan atamalar ko‘p ishlatiladi. “Aglan zaiflik” bu yig‘ma tushuncha bo‘lib, agliy jihatdan qoloqlikning sodir bo‘lgan vagti, boshdan kechirilgan kasallikning xarakteri, patologik o‘zgarishlarning o‘tishi, darajasi bilan bog‘lig bo‘lgan masalalarni ko‘zda tutadi.

Masalan, oligofreniyaning, Daun kasalligi deb ataladigan bir turi xromosomalar nisbatining buzilishi natijasida 46 ta yoki 23 juft xromosoma o‘rniga bitta ortigcha xromosomaning vujudga kelishi natijasida paydo bo‘ladi. Sunisi gizigki, irsiy hujayralardagi patologik o‘zgarishlar Daun kasalligl bilan kasallangan barcha oligofren bolalarning tashgi ko‘rinishini bir xil qilib qo‘yadi. Ular kam harakat, beso‘nagay, ko‘zlari qisiq, burni puchug, tili kalta, lablari qalin, shalpang quloq, barmoglari kalta bo‘ladi va horazo. Millatidan gat’i nazar, ular bir ota-onaning bolasiga o‘xshab ketadi.

Onaning xomiladorlik davrida turli rasalliklar - og‘ir virusli gripp, tif, qizilcha bilan kasallanishi, ona organizmidagi turli parazitlarning homilaga yuqishi, homilaning shikastlanishi, ota-onalarning alkogalizmi ham oligofreniyaga sabab bo‘lisni mumkin.

Lug‘at

xromosomalar nisbatining buzilishi- нарушение соотношения хромосом

beso‘nagay- неуклюжий

ko‘zlari qisiq –глаза узкие

puchug - курносый

shalpang quloq - лапоухий

xomiladorlik - беременность

2-topshiriq. Tinish belgilarini qo‘yib, avval darak gaplarni, keyin so‘roq gaplarni, songra buyruq gaplarni ko‘cnirib yozing.

1. Uyda akamdan boshqa hech kim yo‘q edi. 2. Paxta tersang toza ter, chanog‘ida qolmasin. (qo‘shiqdan) 3. Tikansiz gul bo‘lmas, mashaqqatsiz hunar (Maqol) 4. Hamma hasharga! 4. Malika menga dars jadvalini berib tur.

3-topshiriq. Quyidagi gaplarni rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qiling .

В Узбекистане живут около 127 национальностей. Друзья всегда должны помогать друг другу во всем. Сотрудники музея получили новые экспонаты об истории нашей страны. Узбекский народ очень гостеприимный.

4-topshiriq. Tug‘ilgan joyingiz haqida kichik hikoya tuzing.

5-topshiriq. Berilgan so‘z birikmalari asosida gaplar tuzing.
Baxtli bolalik, depoyon vatan, mashaqqatli mehnat, qiziqarli o‘yinlar.



1-topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

OLIGOFREN BOLALAR XARAKTERISTIKASI (davomi)

Fransuz olimlari alkogalizmga girifdor oilalarda tug‘ilgan 57 nafar bolani uzog muddat kuzatib borib, ularning 25 nafari 1 yoshga to‘lmasdan nobud bo‘lganini, 5 nafari tutganoq, 5 gidrotsefaliya (bosh miyada istesnosi) kasalligi bilan og‘riganini, 12 nafar aqlan zaif bo‘lgani va fagat 10 nafar bola sog‘lom chiqqanini aniqlagan.

Tug‘ruq vaqtida bolaning ombur yoki vakuum ekstraktor bilan olinishi, bola boshining siqilishi, bolaning tug‘ilish yo‘lida uzoq o‘tishi, cho‘zilib ketgan yoki aksincha, haddan tashqari tez o‘tgan tug‘ruq natijasida ham markaziy nerv sistemasi shikastlanib, oligofreniya paydo bo‘lishi mumkin.

Oligofreniya bola uchun yoshgacha bo‘lgan davr ichida turli xil og‘ir kasalliklar bilan kasallanishi natijasida ham vujudga keladi.

Oligofreniya uch darajada namoyon bo‘ladi. 1. debillik 2.imbesillik 3. idiotiya. Debillik - agl pastlik oligofreniyaning eng yengil darajasi bo‘lib, bunday bolalarning tashqi ko‘rinishiga qarab sog‘lom tengdoshlaridan ajratib bo‘lmaydi. Ular ko‘pincha ommaviy maktabning 1-sinfidan boshlaydilaru, lekin qisqa muddat ichida ulgurmovchi o‘quvchilar orasiga qo‘shilib qoladilar. Umuman, zehn va fahm-farosatga bog‘liq ishlarga debil bolalar ancha qiynaladi, biroq ular yordamchi maktabga o‘tib dasturini o‘zlashtirib chiqishsa, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab

chiqarishda, maishiy xizmat sohasida oddiy turdagi mehnat bilan shug'ullana oladi. Tarbiyachi va o'qituvchilar debil bolalarni boshqa bolalardan ajratib olib, ularni maxsus bog'cha va maktablarda tarbiyalashi, ta'lim olishini ta'minlashi lozim.

Lug'at

ombur - шипцы

shikastlanib - повредив

zehn – разум, рассудок; сообразительность

fahm-farosat - сообразительность

maishiy xizmat – бытовые услуги

2-topshiriq. Berilgan so'zlar ishtirokida to'g'ri va ko'chma ma'noli so'z birikmalari tuzing.

Ko'z, yoga, kalit, go'l , oltin, sovug, egri, kumush.

3-topshiriq. She'rni ifodali o'qing, unga sarlavha toping.

Bilmam qanday ayol bo'lgan

Alisherning onasi?

Balki uning aqliga ham

Lol qolgan zamonasi.

Balki uning ko'zlarida

Qolgan og'ir bir hayol

Balki g'amgin bir zotdir u,

Balki sho'xchan bir ayol.

Balki buyuk farzandiga

Terib bergan chechaklar.

Balki tunlar unga bedor

Aytib bergan ertaklar.

Yolg'iz bir so'z ma'nosi:

Alisherning onasi – u

Navoiyning onasi.

Abdulla Oripov

4-topshiriq. Berilgan ravishlar asosida gaplar tuzing va ularni rus tikiga tarjima giling.

Hozir, yangicha, qahramonlarcha, do'stona, ko'pincha, umuman, asosan, ya[shilab, har vaqt, bir zumda.

5-topshiriq. O'qing. Ko'makchilarni topib, ma'nosini aytib bering, yozilishiga diqqat qiling.

1. Hozirgi vaqtda ob-havoning ganday bo'lishini turli asboblarning vositasi bilan oldindan habar qilib turadigan juda ko'p ob-havoni kuzatish bolinmalari bor. 2. Ra'noga bugungi ro'zg'or ishlari to'g'risida ba'zi ma'lumotlarni berdi. (A.Qod.)



1-topshiriq. Matnni o'qing.

NUTQ O'STIRISHDA BARMOQ MASHQLARIDAN FOYDALANISH

Bolaning qo'l kafti va barmoqlarining harakatlantirishi o'ziga xos rivojlanuvchi ta'sirga ega. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, qo'l va barmoqlar ishtirokidagi o'yinlar tana va ongning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi.

Qo'lning oddiy harakatlari nafaqat qo'lning balki, lab, yuz mushaklari zo'riqlashlarini susaytiradi, aqliy nuqsonlarning kelib chiqishini oldini oladi, tovushlar talaffuzini yaxshilashga ham yordam beradi.

Barmoqlarning mayda harakatlari bo'g'inlar artikulyatsiyasiga o'ziga xos ta'sir etadi. Barmoqlar rivojlantishi evaziga miyada nutqning ravon bo'lishi kuzatiladi. Barmoq mashqlari nafaqat qiziqarli, balki maroqli hamdir.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda barmoq, mashqlaridan foydalanish bolaga kompleks yondashishga imkon beradi. Barmoq mashqlarining nutq ishtirokida bajarilishiga yordam beradi.

Lug'at

qo'l kafti – кисть руки

barmoq - палец

ong - сознание

mushak - мышца

aqliy nuqson – умственный дефект
talaffuz – произношение
zo‘riqish- напряжение

2-topshiriq. Sonlarning turini aniqlang va rus tiliga tarjima qiling.

1. Birinchi kurs talabalari bilan musobaqa tashkil qildik. 2. Jambul yuz yil umr ko‘rdi. 3. Sanamay, sakkiz dema. (*maqol*). 4. Yer sharining o‘rtacha diametri – o‘n uch ming kilometr. 5. Insonning yuragi yigirma to‘rt soat ichida yuz ming martaga yaqin uradi. 6. Yer quyosh atrofida daqiqasiga bir ming yetti yuz qirq uch kilometr tezlik bilan aylanadi. 7. Ikkovi yurib-yurib charchab uxlab qoldi.

3-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga tegishli olmoshlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. ... sportning qaysi turi bilan shug‘ullanasiz? 2. ... akam Tibbiyot akademiyasida o‘qiydi. 3. Kecha ... ekan daraxtning tagida dam oldik. 4. ... inson ... orzu-umidlari bilan yashaydi. 5. Dugonam ... demoqchi bo‘ldi. 6. ... va ... narsa unutilmaydi.

4-topshiriq. O‘qing, fe’llarning qaysi so‘z turkumidan yasalganligini aytib bering.

1. Aziza tushida uyqusirab juda ko‘p gapirdi. 2. Hozir tumanimiz markazi butunlay o‘zgarib ketdi. 3. O‘zidan katta opasi yoki akasini sensirash yaxshi emas. 4. Bog‘imizning etagida katta anhor o‘shqirib oqadi. 5. Ularning oilasi hozir Moskvada yashaydi. 6. Tunda shahrimiz chiroqlari yaltirab turadi. 7. Yozning issiq kunlarida odam juda suvsaydi.

5-topshiriq. Quyidagi so‘zlarga kerakli qo‘shimchalarni qo‘yib fe’llar yasang:

tun, un, qora, oz, oq, o‘t, shod, ot, qiz, suz.

6-topshiriq. Tanlagan ixtisosligingiz bo‘yicha yetakchi olimlar va ularning ilmiy faoliyati haqida so‘zlab bering.



1-topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

ANOMAL BOLALAR TOIFALARI

Bola dunyoga kelgan kunlaridan boshlaboq ko‘radi, eshitadi, biror narsa tekkanini, og‘riq, issiq, hid va ta‘mni his etadi.

Tevarak atrofdagi borliqni bilish sezish va idrok qilishdan, ya‘ni voqelikdagi narsa va hodisalarning bola ongida aks etishidan boshlanadi. Bolaning idroki hayotining dastlabki yillaridayoq ancha takomillashadi va ikki yoshida u buyumlarning rangi, shakli, katta-kichikligiga garab bir-biridan farq qila boshlaydi. Tanish ohangni ajratadi va hokazo. Unda xilma-xil sensor qobiliyatlar ko‘rish va ko‘zdan kechirish, tinglash va eshitish, buyumlarni tashgi belgilariga qarab ajratish, o‘zi ko‘rayotgan va eshitayotgan narsaga taqlid qilish qobiliyati rivojlanib boradi.

Bola turli taassurotlar olib turishi buyumlarni ko‘rishi, ushlab bilishi, kattalarning ishlarini kuzatishi, xilma-xil tovushlarni eshitishi kerak. Bu bolalarning sensor rivojlanishlari uchun zarur shartdir. Sensor qobiliyatlarning o‘z vaqtida rivojlanishi esa bolalarning aqliy tarbiyasi uchun zamin yaratadi.

Diqqat, xotira, intilish, qiziqish va boshqa shu singari ruhiy jarayonlar bolalarning agliq rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Bola nutqining o‘z vaqtida va to‘g‘ri rivojlanishining asosidir. Nutq ruhiy jarayonlar idrok, xotira va boshqalarning rivojlanishiga, bolalarning faoliyatiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Lug‘at

tevarak atrofdagi borliq – окружающий мир

voqelik - действительность

ong - разум

ohang - мелодия

taqlid qilish - подражание

aqliy tarbiya – умственное воспитание

intilish - стремление

idrok – разум

2-topshiriq. Quyidagi so‘zlardan juft otlar yasang.

Bola, ota, qor, idish, uka, choynak, qozon, dori, qarindosh.

3-topshiriq. Quyidagi maqollarni o‘qing va yod oling.

Bilimdan ortiq boylik yo‘q.

O‘qigan o‘qdan o‘zar.

Bilim – aql chirog‘i.

Aql yoshda emas, boshda.

Ahmoq o‘zini maqtar.

Avval o‘yla, keyin so‘yla.

Ko‘p bilgan oz so‘zlar,

Oz so‘zlasa ham, soz so‘zlar.

4-topshiriq. Quyidagi gaplarga javob bering. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Чем вы ежедневно занимаетесь?
2. О ком вы думаете?
3. К кому вы обращаетесь за советом?
4. У кого вы научились читать и писать по узбекски?
5. Для кого по радио был дан концерт?

5-topshiriq. Mutaxassislikka doir 10 ta atama toping.



1-topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

ANOMAL BOLALAR TOIFALARI (davomi)

Bolalar nutqi rivojlanishga boshlashi bilan kattalar so‘zlarining tarbiyaviy vosita sifatidagi roli ortib boradi. Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridayoq boshlanadi.

Bola har kuni ko‘rgan va eshitganlari asosida borliqqa va tevarak atrofdagi kishilarga o‘z munosabatini bildiradi.

Bolaning hoh ona qornida, hoh tug‘ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo‘lgan ma‘lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil anomaliyalarga ya‘ni jismoniy va ruhiy nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Defektologiya fanida anomal bolalarning turli xil kategoriyalari ustida ish olib boriladi:

1. Eshitish kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar (tug'ilishdan kar soqov, qulog'i og'ir bolalar, keyinchalik qulog'i og'ir bo'lib qolgan bolalar)
2. Ko'rish qobiliyati zaif (ko'r, ko'zi hira bolalar)
3. Ko'r, kar soqov bolalar
4. Oligofren (debil, imbetsil, idiot)
5. Og'ir nutqiy nuqsonlari bor bolalar
6. Harakat tayanch a'zolarida kamchiliklar bo'lgan bolalar
7. Ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar

Anomal bolalar maxsus ta'lim tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o'qitilishi kerak. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kucnli ta'sir etgan nuqsonlargina uni anomal bola deb hisoblashga asos bo'lishi mumkin. Masalan, bolaning faqat chap qulog'i eshitsayu bu nuqson uning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etmaydigan u umumiy maktab programmasini sog'lom tengdoshlari qatori o'zlashtiradigan bo'lsa u anomal bolalar kategoriyasiga kirmaydi.

Katta yoshdagi kishilarda ma'lum sabablarga ko'ra paydo bo'lgan nuqsonlar ham ularning umumiy rivojlanishiga ta'sir etmasa bu kishini anomal deb hisoblash mumkin emas.

Ota-onalarning alkogolga berilishi, narkomaniya, taksikomaniyasi ham bolaning ayomal bo'lib tug'ilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tug'ma ahomaliyalar genetik, ya'ni irsiy omillar ta'siriga bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, eshitish, ko'rish analizatori faoliyatining buzilishi, aqliy zaiflikning nasldan bolaga o'tishi ham kuzatiladi.

Lug'at

borlig - зависит

eshitish kamchiliklari – дефекты слуха

ko'rish qobiliyati zaif - плохое зрение

nutqiy nuqsonlar - речевая недостаточность

ruhiy rivojlanish - психическое развитие

tengdosh - ровесник

irsiy - наследственный

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga tegishli kelishik qo'shimchalarini qo'ying.

1. Ipak....turli gazlamalar to'qiladi.
2. Zarifa onasi....xat yozdi.
3. Parrandalar to'g'risida yozilgan qiziqarli hikoya o'qidim.
- 4.

Yakshanba kuni guruhimiz bilan tog‘....dam oldik. 5. Eshik... kalitini ukam ... berdim. 6. Ota-ona.....chet el....ishlaydi.

3-topshiriq. Quyidagi fe'llar ishtirokida gaplar tuzing:
yozyapti, kutdi, so‘zlaydi, ko‘rdik, o‘qib chiqdi.

4-topshiriq. Quyidagi so‘zlardan matn tuzing:

biz, yo‘l, ket, edik, atrof, ko‘m-ko‘k, o‘t, bilan, qoplangan; havo, edi, ochiq; birdan, shamol, kuchli, qo‘zg‘aldi; shamol, shoh, daraxt, qattiq, tebratdi; osmon, qora, bulut, paydo, bo‘l; shamol, to‘xta, asta-sekin, yomg‘ir, yog‘, boshla; yomg‘ir, tobora, kuchaydi.

5-topshiriq. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ergashgan qo‘shma gaplarning turini aniqlang.

1.Чтобы отдохнуть, альпинисты остановились у подножия гор.
2.Автобус остановился около гостиницы, чтобы забрать гостей. 3. Для того чтобы показать нам свои успехи, Нафиса прочла свои стихи.
4. Для того чтобы лучше знать узбекский язык, нужно чаще говорить на нем. 5. Чтобы много знать, нужно много учиться.

6-topshiriq. Tanlagan ixtisosligingiz bo‘yicha yetakchi olimlar va ularning ilmiy faoliyati haqida so‘zlab bering.



1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

BOLA NEGA DUDUQLANADI?

Bolaning tutilib gapirishini mutaxassis olimlar turlicha taxlil qiladilar. Ba’zilari bu butun organizmning xastaligi, dori-darmon bilan tuzatsa bo‘ladi, deyishgan. Boshqa birlari esa tutilib gapirish artikulyatsiya (tovush chiqarish) apparatining noto‘g‘ri tuzilishidan kelib chiqadi, demak uni operatsiya yordamida davolash kerak, deb hisoblaydi. Vaqt o‘tib ayrim shifokorlar tutilib gapirish nevroz hastaligining bir turi, degan fikrni dildirishadi. Mashhur rus fiziologi Pavlov duduqlanish oily asab markazi faoliyatidagi qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining buzulishidir, degan to‘xtamga keldi.

Aslida bu hodisa nafas olish, tovush chigarish va artikulyatsion sohalarda pay tortishi natijasida sodir bo‘ladi. Pay tortishganda tovush paychalari bir-biriga mahkam yopishadi va tovush uzilib qoladi. Agar paychalar bir-biridan ajralmasa, tovush to‘htalib-to‘htalib chigadi. Bordiyu, ular bir-biriga tegmay qolsa, bola shivirlab gapiradi. Artikulyatsiya sohasida pay tortishishi ko‘proq til va lab mushaklariga tarqaladi. Navas bo‘limidagi pay tortishuvlari natijasida nafas chiqarish jarayoni nafas olishdan ustun keladi. Buning ogibatida chigarilgan nafas talaffuz uchun yetmay goladi. Tutilib gapirishning og‘ir shaklida pay tortishishi yuz va tana mushaklariga ham tarqaladi. Bunda bola duduqlanayotib, beixtiyor ko‘zlarini olaytiradi, boshini orqaga tashlaydi.

Duduqlanishga sabab bo‘ladigan pay tortishishi ikki xil bo‘ladi.

Klonik- pay tortishishi vagtida tovush, bo‘g‘in yoki so‘z bir necha marta takrorlanadi.

Tonik – pay tortishishi paytida so‘z boshida to‘xtalish ro‘y beradi. Shuningdek, gap o‘rtasida, oxirida yoki ayrim undoshlar (x, p, r, t)ni aytish vaqtida ham kuzatiladi.

Lug‘at

xastaligi- болезнь

uduqlanish - заикание

pay tortishuvlari – растяжение мышц

2-topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling. Matndagi olmoshlarni aniqlab turini ayting.

GO‘ZALLIK

Kishi o‘z onasini nima uchun yaxshi ko‘rishini bilmaydi. O‘z onasi bo‘lgani uchun yaxshi ko‘radi. Kishi o‘z onasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni ham payqamaydi. E’tibor bermaydi bunga. O‘zingiz yashab turgan shahar ham shunaqa. Siz nima uchun yaxshi ko‘rishingizni bilmaysiz. Uning qiyofasida bo‘layotgan o‘zgarishlarga ko‘p ham diqqat qilavermaysiz. Negaki ular har kuni sizning ko‘z o‘ngingizda ro‘y beradi. Siz ularni ko‘raverib ko‘nikib ketasiz. Ammo diqqat bilan nazar tashlasangiz qanchadan-qancha o‘zgarishlar bo‘lganligiga hayron qolasiz.

Sherzod avtobus derazasidan qarab borarkan, hozir to‘satdan shuni his qildi...

3-topshiriq. Ko‘chiring. Harakat nomi hosil qiluvchi qo‘shimchalarning tagiga chizing.

1. Bilim olish va yuksalish sharaflı burchimiz. 2. Ilmli va odobli bo‘lish bizning asosiy vazifamizdir. 3. Yuqori hosil olish uchun ko‘p mehnat qilish kerak. 4. Universitetimizda yangi o‘quv xonalarl ko‘p.

4-topshiriq. Avval juft fe‘llarni, keyin go‘shma fe‘llarni ko‘chiring.

1. U gapni oshkora aytdi-go‘ydi. 2. Moviy osmonda bulutlar sayr qilmoqda. 3. Yurtimiz sportchilari sport musobaqalarida g‘olib chiqish uchun astoydil harakat qikmogdalar. 4. U hech narsa demay qo‘lidagi qog‘ozni yirtıdi-qo‘ydi.

5-topshiriq. Ko‘chiring. O‘tgan zamon hikoya fe‘llarining tagiga chizing.

1. Bir kuni dono kishi Hotamdan : “Sen o‘zingga saxiylikni kasb qilib olibsan, o‘zingga o‘xshagan olihimmat, saxiy kishini bilasanmi?” – deb so‘rabdi. (N.)

2. Poyloqchilik navbati o‘rtancha botirga kelibdi. Uning navbatida hech qanday hodisa bo‘lmabdi. Navbat kenja botirga kelibdi. U tong otguncha poyloqchilik qlibdi, hech narsa ko‘rmabdi. Birinchi kecha shu bilan tugabdi. Ertalab yana yo‘lga tushibdilar. (Ertakdan)



1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

DUDUQLANISH QANDAY DAVOLANADI?

Davolash tadbirlari uch bosqichda amalga oshiriladi.

1-bosqich: bolaga qisqa she‘rlarni o‘qish, oddiy savollarga javob berish buyuriladi. Unli tovushlar ishtirok etgan jummalarni aytishga o‘rgatilsa, yanada yaxshi samara beradi. Keyinchalik 3-4 va undan ko‘proq so‘zlardan tuzilgan jummalarni aytib mashq qilishi mumkin. Unli tovushlar bilan boshlanadigan so‘zlar talaffuzi obdon mashg gilgachgina

undosh tovushlarga o‘tiladi. Yodlash uchun berilgan she’riy jumlar asta-sekin ko‘paytiriladi.

2-bosqich: Bolaga she’rlarni ovoz chiqarib o‘gish, o‘qilgan matnni so‘zlab berish, biror vodeani mustaqil masq qildiriladi. Shuni unutmaslik kerakki, tutilib gapiruvchilar ko‘pchilik oldida gapirishga tortinadilar. Buni hisobga olgan holda dastlab bolani 2-3, keyinchalik 5-10 kishi oldida gapirishga odatlantirish lozim.

3-bosqich: 1 va 2 -bochqichdagi mashqlar kuchaytiriladi. Bolaga kichik hajmli ma’ruzalar berilib, o‘qish jarayoni kuzatib turiladi. Bemor o‘zi ko‘rgan hodisani tutilmay so‘zlab berishi shart. Bunda unda dastlab tarbiyachi va pedagog ko‘maklashadi.

Xullas, qunt va chidam bilan isn tutilsa, boladagi nuqson asta-sekin yo‘qoladi, u sog‘lom tengdoshlari safiga qo‘shiladi.

2-topshiriq. Ko‘chiring. Sonlar gapning qaysi bo‘lagi ekanligini aniglab, tagiga chizing.

1. Haydovchi cho‘ntagidan ikkita olma chiqazdi-da, bolaga berdi. (S.A.) 2. Volga daryosining uzunligi 3690 km. 3. Ikki beka mehmondo‘stlik bilan parvona: biri choy quyib uzatsa, biri non ushatib dasturxonga taklif etadi. (O.) 4. O‘n beshning uchdan biri besh. 5. O‘zi bitta, ko‘zi mingta. (Topishmog: angishvona) 6. Sakson bir to‘qqizga qoldiqsiz bo‘linadi.

3-topshiriq. Matnni o‘qing va o‘z fikringiz bilan to‘ldiring.

XUSHMUOMALALIK

Har bir kishi atrofdagi odamlarga hurmat bilan, mehribonlik bilan qarashi, ularning ham o‘zlariniki singari nozik qalblari borligini bilishi kerak.

“Qars ikki qo‘ldan chiqadi”, - deydilar. Janjal ham ikki tomonning qo‘pol muomalasidan chiqadi. Bir qo‘lingiz band bo‘lsa, janjalning o‘ti o‘chadi.

Bir misol: avtobusda odam tiqilib ketdi, igna tashlasangiz, yerga tushmaydi. Bunday hollarda yo‘lovchilarning bir-birlariga urinishlari, turtishlari tabiiy. Bir yo‘lovchi oradan qisilib o‘tib ketayotib, boshqa bir yo‘lovchiga behosdan tegib ketdi. U bunisiga bir o‘qrayib qaradi-yu, jonjahdi bilan uni itarib tashlab, “ho‘kiz” deb to‘ng‘illadi. Oralab o‘tayotgan

yo‘lovchida ayb yo‘q edi. Buni qo‘pol muomala qilgan kishi ham bilar edi. Bila turib gunohsiz odamni xafa qildi. Haqoratlangan yo‘lovchi dag‘al kishiga teng bo‘lgisi kelmadi, yo tabiatida xushmuomalalik bormidi, har qalay, unga bir jilmayib qaradi-da:

- Kechirasiz, - deb qo‘ya qoldi. Kutilmagan xushmuomalalikdan qo‘rs kishi mulzam bo‘lib qoldi. Mana sizga odamshavandalikning bir ko‘rinishi. (O‘.Hoshimov)

Lug‘at

qars - хлопок

o‘qraymoq – здесь: нахмурился

haqorat - оскорбление

gunohsiz - невинный

4-topshiriq. –q ot yasovchi qo‘shimchasi bilan quyidagi fe’llardan ot yasang va ko‘chirib yozing.

Tara, sana, o‘ta, qama, so‘ra, yama, tirna, bo‘ya, qayra.

5-topshiriq. Berilgan so‘z birikmalarini o‘zbek tiliga tarjima qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Вспомогательная школа, весенний день, развивающая страна, огромный труд, бессильный человек.



1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

INSON ODOBI BILAN

Bolajonlik - xalqimizga xos azaliy odat. Oilada farzand tug‘ilishi ota-onalarga ham, qarindosh-urug‘ va yaqin kishilarga ham zo‘r quvonch baxsh etadi. Yangi «mehmon» sharafiga boshlangan xursandchilik ancha kungacha davom etadi. Kelgan kishilar uy

egalarini yangi «mehmon» bilan qutlab, «Katta bo‘lsin», «Baxtini ko‘ring», «Aqlli-hushlikkina bo‘lsin» degan yaxshi istaklar bildiradilar.

Ota-ona farzandlariga yaxshi niyat bilan ism qo‘yadi, shu kundan uning kelajagi, baxtini o‘ylaydi. Farzandini axloq-odobga o‘rgatish, o‘qitish, kattaroq bo‘lganda biror kasb-hunar egasi bo‘lishiga g‘amxo‘rlik qilish ota-onaning burchidir.

Bolani kasb-hunarga, o‘rgatishda qadimdan «Ota kasb - ona rasm» naqliga qattiq rioya qilingan. Shunga ko‘ra o‘qil bola yosh chog‘idanoq ota yonida dastyorlikka o‘rgatilib, ota hunarini egallagan, qiz bola esa ona rasmini tutgan. (O.To‘rayeva).

Lug‘at

azaliy – вечный

odat – обычай

quvonch – радость

istak – желание

g‘amxo‘rlik – забота

naql – мудрость, изречение

rasm- обычай, обряд

2-topshiriq. Odob – axloq haqida maqollar keltiring.

3-topshiriq. Quyidagilarni tarjima qiling va gaplar tuzing:

yozi ol, ketib qoldi, aytib kel, bora qol, yordam qilmoq, yig‘lab berdi.

4-topshiriq. Quyidagi matnning ma‘nosini tushunib oling va tarjima qiling.

Odobli odam tabibga o‘xshaydi, u bilan suhbatlashish ko‘ngildagi g‘amni quvadi.

Odob ahli bilan hamsuhbat bo‘lish gullar hidini ufurayotgan tong nasimidan ham shirin.

Kishida odob bo‘lsa ilm ham bo‘lishi lozim. Odob ahliga bog‘liq narsa. Aql ustiga odob ham qo‘shilsa nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi. Ulug‘lik aql-u odob bilan vujudga keladi. Aqlning qadri odob bilan, boylik qadri sahovat bilan, quvvat qadri bahorlik bilan oshadi.

5-topshiriq. Quyidagi soʻz birikmalarini tarjima qiling va gap tuzing.

Трудный день, лесной зверь, трудолюбивый человек,
длинные волосы, новое произведение



1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling, maʼnosini tushuntirib bering.

TAʼLIM VA TARBIYA HAQIDA

Ota-onalar farzandlarning odobli, axloqli boʻlib oʻsib unishlari uchun oʻqituvchilarning yordamiga muhtojdirlar. Muallim maʼnaviy ota, muallima esa maʼnaviy onadir. Bu muhtarama ota-onalar maʼnaviy farzandlari boʻlgan oʻqituvchilarni tarbiyalab, ularning aql, fikr – idroklarini oʻstirishga, odob – axloqlarini kamolga yetkazishga gʻayrat qiladilar, maʼnaviy farzandlarini mukammal bir inson boʻlib yetishishlari uchun butun kuchlarini sarf qiladilar. Shuning uchun oʻqituvchilar hurmatiga, qilgan xizmatlari taqdir va tahsinga sazovordir.

Iskandar Zulqarnayndan soʻraydilar:

- Kimni koʻproq yaxshi koʻrasiz, otangiznimi yoki ustodingiznimi?

Iskandar shunday deb javob berdi:

- Otamni ham ustozimni ham bir xilda yaxshi koʻraman. Otam mening dunyoga kelishimga, unib-oʻsishimga sababchi boʻlsa, ustodim fazl-u kamol topishimga sababchi boʻldi. Shunga koʻra har ikki tarbiyachimga bir nazarda qarayman. Har ikki muhtaram zotga barobar muhabbat bogʻlab, ehtirom qilaman.

Oʻqituvchilar maktabda yoki odamlar orasida oʻzlarini qanday muomalada boʻlishlari lozim? Avvalo, oʻqituvchilarning oʻzlari odob-axloqda oʻqituvchilarga namuna boʻlishlari lozim. Taʼlim va tarbiyaning qonun qoidalariga binoan, oʻqituvchi ochiq yuzli, shirin soʻzli, halim, muvoze boʻlishi shartdir. Oʻqituvchilarga qoʻrslik bilan muomila qilish, ularning izzat – nafslariga tegish taʼlim va tarbiya nuqtai nazaridan toʻgʻri emas. Oʻqituvchilardan taʼlim – tarbiyaning yengildan ogʻirga, maʼlumdan dars berishlari talab qilinadi. Har oʻqituvchi oʻz shogirdining ruhiy holatlarini sinchiklab oʻrganishi lozimdir.

Haqiqiy muallim va muallimalar tarbiyasini olgan o'qituvchilardan olim va fozil odamlar yetishadi.

Oqil va donolardan Hojimurod Odilliy o'z o'g'illariga nasixat qilib aytadi:

- Aziz farzandlarim, ilimli, hunarli odam bo'lish uchun g'ayrat qiling, ilm va hunar har narsada qimmatlidir. Bir odamning mol-u dunyosi ko'p bo'lsayu, hunari bo'lmasa, u odam hosilsiz quruq daraxtga o'xshaydi. Ilimli, hunarli bo'lsangiz, turmushingshizda hech narsaga muhtoj bo'lmaysiz, xalqning izzat hurmatiga sazovor bo'lasiz.

Bayt:

*O'rganing, farzandlarim, ilm-u hunar,
Bir maqol bordir: «Hunardan ko'p unar».*

Lug'at

muhtoj bo'lmoq- нуждаться

idrok- рассудок, разум

fikr- мысль

mukammal- полный, завершённый

ehtirof qilmoq- уважать

qo'rslik- грубость, дерзость

izzat- почёт

2-topshiriq. Tushirib qoldirilgan so'zlarni qo'yib, gaplarni to'ldiring. Ularni morfologik tahlil qiling.

1. Dalada.....qo'zichog'i bilan o'tlab yuribdi.
2. Uy hayvonlarining eng katta dushmanidir.
- 3 ... bahorda O'zbekistonga uchib keladigan birinchi qush.
4. Akamning akvariumida ajoyiblar bor.
5. ...va uloqlar tog' qoyalarida ham yura oladi.

3-topshiriq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'ying.

1. Xonaga bola kirib keldi (o'tkir, shirin, novcha).
2. Menrangni yaxshi ko'raman (eski, quruq, yashil).
3. Hovlimizdagi terak juda ... (oriq, kul rang, yo'g'on)

4. ... daryo tinch oqadi (sajar, qimmat, chuqur).
5. Sizga ko‘ylak yarashadi (baland, ochchiq, keng).

4-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Baland tog‘ orqasidan ko‘ringan quyosh yorug‘ nurlarini atrofga sochdi.
2. Shu yil ko‘klamda bog‘imizga o‘n tup gilos, yigirma tup olcha ko‘chati o‘tqazildi.
3. Mayin tong shabadasi rang-barang gullarni asta tebratdi.
4. Biz o‘z Vatanimizni sevamiz, shuning uchun uning boy tarixini bilmog‘imiz kerak.
5. Nasiba g‘ayratli, ishchan, tashabbuskor bir qiz bo‘lib chiqdi.



1-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini aytib bering.

KIM BIRINCHI BO‘LIB SALOM BERISHI KERAK?

Yoshi katta odam bilan yoshi kichik odam uchrashsa, albatta, kichik odam birinchi bo‘lib salom beradi. Lekin qo‘l uzatish hamisha kattadan. Odamlar to‘plangan xonaga kirsangiz bunda, shubhasiz, siz salom berishingiz shart. Bir kishi olddiga ikkinchi kishi kelsa, albatta kelgan kishi salom beradi.

Bu yaxshi odat qadimdan insoniylik ziynati hisoblanadi. Bir misol keltiraylik, taxminan 2000 yil ilgari Hindistonda “Mangu qonunlar” kitobi yozilgan. Yoshi kattalarga birinchi bo‘lib salom beruvchilar to‘rt narsaga erishadi: uzoq umr ko‘radi, obro‘li, bilimli va kuchli bo‘ladi deyilgan.

Aslida esa kamtar, odobli kishi qachon men salom berishim kerag-u, qaysi paytlarda boshqalar menga salom berishi lozim, deb o‘ylamaydi. Bunday kishilar birinchi bo‘lib salom beraveradilar.

Lug‘at

qo‘l uzatish - протягивать руку
obro‘li - авторитетный
kamtar - скромный

2-topshiriq. O‘qing, quyidagi so‘zlar tarkibidagi o va o‘ tovushlarining talaffuziga e'tibor bering.

Ota, to‘rt, olmos, o‘qi, o‘qil, oqmoq, opa, orzu, o‘r, o‘roq, og‘iz, xo‘roz.

3-topshiriq. Fe'l zamonlarining mosini qo‘yib berilgan gaplarni rus tilga tarjima qiling

1. Do‘stim Iroda, kutubxonaga birga (*bormoq*). 2. Kechagi taklifnomani bugun berib (*qo‘ymoq*). 3. Amir Temir buyuk sarkarda (*bo‘lmoq*). 4. Men ilgari aniq fanlarga juda (*qiziqmoq*). 5. Akam kelasi yil xarbiy xizmatga (*bormoq*). 6. Inson orzu-umidlar, yaxshi niyatlar bilan (*yashamoq*).

4-topshiriq. Berilgan so‘z birikmalari bilan gaplar tuzing.

Kelajak avlod, baxtli bolalik, hamkorlik qilmoq, ko‘rgazmalar zali, ilmiy anjuman, kitob javoni, ochiq qavo, qalin daraxtzor

5-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga kerakli affikslarni qo‘ying va ularni rus tiliga tarjima qiling.

1. Mening akam taqdir...di. 2. Markazdagi bino juda chiroyli qur...di. 3. Talabalar ijodiy kechasi o‘tkaz...di. 4. O‘zbek tilini yaxshi bilmaydiganlarga yordam ber...di. 5. Bugun matematika darsida yangi mavzu o‘t...di.



1-topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

USHINSKIY PEDAGOGIKA FANI VA TARBIYA SAN’ATI HAQIDA

Ushinskiy pedagogika masalalariga bag‘ishlangan bir qancha maqollari bilan birga, 1861-yilda quyi sinflarda rus tilini o‘qitish uchun «Detskiy mir» nomida xrestomatiya nashr qildirdi.

Ushinskiyning Smolniiy institutidagi ilg‘or faoliyati muassasaga rahbarlik qilayotgan amaldorlarda va ayrim reaksion kayfiyatlardagi

o'qituvchilarda norozilik uyg'otadi. Ushinskiyni daxriylikda, dvoryan qizlardan «mujiklar» tarbiyalamoqchi bo'lganlikda ayblay boshlaydilar. 1862-yilda u ishdan bo'shatildi, chet elda boshlang'ich ta'lim va xotin-qizlar maorifining yo'lga qo'yilishini o'rganish hamda pedagogikadan darslik tuzish bahonasi bilan chet el safariga jo'natildi.

Ushinskiy Germaniya va Shvetsariyadagi xotin-qizlar o'quv yurtlarini, bolalar bog'chalari, yetimxonalar va maktablarni sinchiklab va tanqidiy o'rgandi; 1884-yilda «Rodnoe slovo» hamda o'qituvchi va otionalarga mo'ljallangan «Rodnoe slovo»ga qo'llanmasini yozdi va nashr qildi. 1867-yilda Ushinskiy pedagogika faniga qimmatli hissa bo'lib qo'shilgan o'zining asosiy asari –«Inson tarbiya predmeti sifatida» nomli asarini yozdi. Ushinskiy o'zining bu asarida psixologik tajriba ma'lumotlariga asoslanib, oddiy psixologik hodisalarni tekshirdi va psixologiyani odam anatomiyasi va fiziologiyasi negiziida bog'ladi. Ushinskiy bolalar psixologiyasini tadqiq etishga birinchi marta asos solgan psixologlardandir.

Tarbiyaning xalqchilligi haqidagi g'oya Ushinskiyning pedagogik nazariyasidagi eng asosiy g'oyadir. Har bir mamlakatda bolalarni tarbiyalash tizimi, Ushinskiyning fikricha, keng ma'noda olingan pedagogika ta'lim-tarbiya tajribalarining umumlashtirilgan xulosasi bo'lmog'i, falsafaga, anatomiya, fiziologiya, psixologiya, tarixga asoslanmog'i lozim.

Lug'at

kayfiyat- самочувствие, настроение

noroziilik- недовольство

sinchiklab- тщательно

xalqchil- народный

1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling. Matndagi otlarning qaysi kelishik shakllida ekanini aniqlang.

2-topshiriq. Gaplarni o'qing, ko'makchi, bo'g'lovchi va yuklamalarni aniqlang.

1.Bilasan-ku, jahl-dushman, aql-do'st. 2.To'rt narsa hamma uchun kerak: salomatlik, go'zal xulq, rostgo'ylik va halol mehnat. 3.Tong yorishgan, ammo hali quyosh chiqmagan edi. 4.Malikada na kechasi tinim

qoldi, na kunduzi. 5.Salim ota bilan yigitlar mehmonni izzat-ikrom bilan kuzatib tashhariga chiqishdi.

3-topshiriq. Berilgan soʻzlarni oʻz oʻrniga qoʻygan holda gap tuzing.

- 1.Ilonlarning, dori, zaharidan, tayyorlanadi, zaharli.
- 2.Atrofga, xiddi, xushboʻy, gullarning, atirdek, taralarmish.
- 3.Haydashni, oʻrganishni, avtomobil, men, orzu qilaman.

4-topshiriq. Matnni oʻzbek tiliga tarjima qiling.

РАСТУЩИЕ ПЛОДЫ

Для растений, произрастающих в разных климатических условиях, свойственны отличающиеся типы плодов. Такие плоды, как яблоки, груши, сливы и малина, характерны для растений умеренных широт, где теплое лето, но холодная зима. Лимоны, апельсины и другие цитрусовые лучше растут там, где жаркое лето и мягкая, влажная зима. Такие виды, как манго, авокадо, ананасы, бананы и папайя, предпочитают жаркие, влажные тропики. Иногда южные фрукты выращивают и в других климатических зонах, но для этого необходимы оранжереи.

5-topshiriq. Siz oʻrganayotgan asosiy fanga taalluqli atamalardan 10 tasini yozing, ular bilan soʻz birikmalari va gaplar tuzing.



1-topshiriq. Matinni rus tiliga tarjima qiling.

IOGANN GENRIX PESTALOTSI

Iogann Genrix Pestalotsi 1746 - yilda Shvetsariyaning Tyurix shahrida shifokor oilasida tugʻuldi u otadan yoshligida judo boʻlib, onasi tarbiyasida oʻsdi. Boshlangʻich soʻngra oʻrta maktabda oʻqidi, ishtimoiy yoʻnalishdagi oliy oʻquv yurtida taʼlim oldi.

Pestalotsi 1774-yilda Neygof shahrida “Kambag‘allar muassasi” ni tashkil qilib unga turli yoshdagi bolalarni jalb qildi, ularga o‘qish, yozish va hisobni o‘rgatdi.

Pestalotsi Burgdorf shahrida kichik yoshdagi o‘g‘il va qiz bolalar uchun ochgan maktabida tajribalar o‘tkazib, ta’lim nazariyasini o‘quv predmetlarini o‘rganish, bolalarda matematika tasavvur hosil qilish va o‘stirish, nutq malakasini rivojlantirish usullarini ishlab chiqadi.

Pestalotsi tashabbusi va hokimyatning yordami bilan 1800- yilda shaharda institut tashkil topdi. Institutda o‘rta maktab va o‘qituvchilar tayyorlash muassasasi birlashtiriladi. Ko‘p vaqt o‘tmay, institut Shvetsariyaning fransuzlar yashaydigan Iverdonga ko‘chirildi, bu joyda o‘qish 1825-yilga qadar davom etdi va jahonga mashhur bo‘ldi.

Pestalotsi Neygof shahriga qaytib kelib, o‘zining so‘nggi “Oqqush qo‘shig‘i” asarini yozib tugalladi.

Pestalotsi “To‘rt o‘z bolalarini qanday qilib o‘qitadi”, “Onalar kitobi”, “Lingrad va Gertruda” kabi asarlar muallifi hamdir.

I.G. Pestalotsi 1827- yilda vafot etdi.

Lug‘at

ijtimoiy- социальный

yo‘nalish - направление

tassavur- представление

tashabbus- инициатива

2-topshiriq. Qavs ichidagi fe'llarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, fe'l zamonlarini aniqlang.

1. Tushunmagan yerlarningni o‘qituvchidan so‘rasang (объяснить).
2. Men o‘zbek tilidagi matnlarni o‘zim lug‘at yordamida (начала переводить).
3. Dam olish kuni buvimning oldiga (съездил).
4. Onam hozir Chimyonda (отдыхает).

3-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Toshkent shahrida qanday muzeylar bor?
2. Siz shu muzeylardan qaysi birida bo‘lgansiz?
3. Amir Temir muzeyi qachon ochilganligini bilasizmi?
4. Alisher Navoiy nomli adabiyot muzeyi binosi qayerda joylashgan?

4-topshiriq. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling va ravish turlarini aniqlang.

1. В этом году наш учитель по физкультуре организовал кружок шахматистов. 2. Вчера его старший брат приехал из командировки. 3. Мы недавно получили новую квартиру. 4. Он пришел домой пешком. 5. Весной всюду цветут цветы.

5-topshiriq. Quyidagi sodda gaplardan bog‘lovchilar yordamida qo‘shma gap hosil qiling.

Xalqimiz mehnatsevar kishilarni hurmat qiladi. Mehnatsevar kishilar kamtar bo‘ladi. Kamtar kishi vazmin bo‘ladi. Kamtar kishi oddiy kiyinadi. Kamtar kishi har narsaga ko‘naveradi.



1-topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

DO‘STLAR VA TENGDOSHLAR MUOMALASI

Do‘stsiz kishi - qo‘lsiz kishi. Bu hikmatga amal qilgan odam hamisha do‘st orttirish va sodiq do‘stlarni qo‘lga kiritish payida bo‘ladi. Bu o‘qil, do‘stlarining va tengdosh birodarlaring bilan odob yuzasidan muomala qilki, do‘stlik ishonchining uzilishi baxtsizlikka yo‘liqish bilan tengdir.

Do‘stlarning va tengdoshlarning senga shirin muomala qilsalar, har lahzada amalga mehru muhabbatlarini izhor qilib tursalar bu senga yoqadimi? Sen ham ularga nisbatan doimo muhabbatli bo‘l, o‘zingga ravo ko‘rmagan va yoqtirmagan narsalarni ularga ham ravo ko‘rma!

Do‘stlar avvalo boshga ish tushganda sinovdan o‘tadi. Demak, do‘st biror narsaga muhtoj bo‘lsa, ko‘makka shoshil, holidan xabar olib ko‘ngliga dalda ber.

Agar hayotim hamisha halovatli bo‘lsin desang do‘stlaring, qarindoshlaring, tengdosh birodarlaring oldida xushaxloq va xushchiroy bo‘l. Xushchiroy yarim davlatdir. Xushchiroy odamning baxti hamisha o‘zi bilan yo‘ldosh bo‘ladi.

Lug‘at

hikmat – мудрость

tengdosh – ровесник, сверстник

lahza – миг, мгновение
ravo ko‘rmaslik - не считать дозволенным, достойным
muhtoj bo‘lmoq – нуждается
ko‘mak – помощь
halovat – покой, спокойствие
xushchiroy – красивый
yo‘ldosh – спутник

2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Sizning yaqin do‘stingiz bormi?
2. Do‘stingiz qayerda o‘qiydi?
3. U bilan qayerda tanishgansiz?
4. Uning yaxshi fazilatlarini so‘zlab bering?
5. Do‘stingizning oilasi bilan yaqinmisiz?
6. Do‘stingiz qaysi sport turiga qiziqadi?
7. Do‘stingiz bilan internet orqali gaplashib turasizmi?

3-topshiriq. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling va grammatik tahlil qiling.

1. Мы выпустим стенную газету к празднику Навруз.
2. Спелый урюк посыпался на землю.
3. После занятий мы самостоятельно занимаемся в читальном зале.
4. Я повторил слова, прочитал текст и выучил правила.
5. Учебный год в нашей стране начинается второго сентября.

4-topshiriq. Fe'llarni topib, zamonini ayting.

1. Ochiq havoda, yashil gilam ustida o‘tirib ovqatlandik.
2. Bir narsani sizdan so‘ramoqchiman-u, lekin uyalyapman.
(M.Ismoilij).
3. Shamol bizni to‘ppa – to‘g‘ri shimolga olib ketmoqda. (N.Nosov).
4. Kassalarni mana bu bola ko‘rmoqchi. (N.Nosov).



1-topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

ILM FAZILATLARI HAQIDA

Bilginki, hayotiy maishatingni yaxshilaydigan va ishlaringni haqiqiy to‘g‘ri yo‘lga soladigan eng ulug‘ vosita bu ilmdir. Ilm buyuk qadrga va oliy fazilatga ega. Sen ilm tufayli oliy sharafiga, ulug‘likka va orzu - istaklarga yetishasan. Ilm kasb va fazilatlarining eng afzali, ilm o‘rganuvchi esa shu toifaning ulug‘rog‘idir. Ilm orqali yaxshi-yomonni taniysan, halol-haromning farqiga borasan, do‘stlik va qarindosh-urug‘ning fazilatlarini anglaysan, qonun-qoidalarini tushunusan, haq-huquqlaringni bilasan.

Ilm shunday boylikki, u sening aqlingni mustahkamlaydi, xulqingni poklaydi, tabiatni tozalaydi, izzatingni oshiradi. Ilm sening hayotingga tahsinga sazovor bo‘ladigan yangiliklar olib kiradi, yozishga, ijod qilishga, tasnif etishga sharoit yaratadi, bu bilan esa seni kamolga etkazib, umrini boqiy qiladi. Ilm o‘rganib, ilmga amal qilmagan kishi yer haydab, uni ekmagan kishiga o‘xshaydi.

Ilmsiz inson - mevasiz daraxt.

Ilm bir Xazina bo‘lsa, bu Xazina kaliti - savol!

Ilm -inson ziynati. («Otalar so‘zi»).

Lug‘at

maishat – жизнь, наслаждение

fazilat – достоинство

afzal – лучший, предпочтительный

izzat – почесть, почтение

tasnif – классификация

boqiy – вечный, бессмертный

xazina – сокровищница, клад

ziynat – украшение

2-topshiriq. Bilim haqida 5-6 ta maqol keltiring.

3-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling va gap bo‘laklarini aniqlang.

1. Insoniyatning barcha mashhur kishilari o‘z tarbiyachilaridan minnatdorchiliklarini faxr bilan yozganlar.

2. Insondagi hamma yaxshi fazilatlar ota-onadandir.

3. Pokiza kishi hamisha shodlik ustida, gunohkor esa g'am va qayg'u ostida.

4. Qanoatli kishida hasad bo'lmaydi.

5. Qog'ozga tushirilmagan ilm unitilib ketadi.

4-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Жили да были горница и лисица. Вылетела однажды горлица из своего гнезда в поисках пищи. Вышла погулять и лисица из своей норы. Увидела лисица горлицу и у нее даже слунки потекли из рта. Лисица пошла потихоньку вслед за горлицей и дошла до самого дерева, на котором находилось гнездо горлице. В гнезде у горлицы были два птенчика. Они были очень маленькие и ещё не умели летать. Стала лисица грозиться, стоя под деревом:

- Эй, горлица! Сбрось мне сюда своих птенцов. А нам не сбросишь, я на дерево взберусь, съем тебя и птенцов твоих, а гнездо твоей разорю! Горлица – глупышка испугалась лисициных угроз, сбросила ей своих птенчиков.

5-topshiriq. Mutaxassislikka oid terminlardan yozing, ular bilan so'z birikmalari va gaplar tuzing.



1-topshiriq. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

SABR, CHIDAM, QANOAT HAQIDA

Sabr avvali achchiq,
Oxiri esa shirin!

(Muhammad Zehniy)

Sabrda hosiyyat va manfaat ko'p. Sabr shundayki, musibat va balo ayyomida dod-faryod qilishmaydi, qovoq solishmaydi, yuz o'girishmaydi. Sabr bu – barcha mehnat va og'irlikni yengish va chidashdir (Muhammad Jabairudiy).

Sabrli odam uzoq yashaydi. Yomon kunda sabr qilgan yaxshi kunga tez yetadi. Sabri ko'pning do'sti ko'p («Otalar so'zi»).

Qanoat tuganmas boylkdir, qanoatli kishi hech qachon kambag'al bo'lmaydi, chunki uni hech kimga ishi tushmaydi. Qanoatsiz kishi gadoyga o'xshaydi, uni hamma narsasi bo'lsa ham ko'zi to'ymaydi, ko'proq topishga intiladi, narsa uchun odamlar oldida bosh egadi.

QANOAT

Bir kishinig Ali va Vali ismli ikki o'qli bor ekan. Ali qanoatli Vali qanoatsiz edi. Bir kuni otasi bozordan olma olib kelib, bolalarini sinash uchun chaqirib, mana sizga olma beraman, - dedi. Vali tezlik bilan kelib: «Otajon, menga hammasini bering», dedi. Ali sekingina kelib menga birgina olma bersangiz bo'ladi, dedi. Otasi Alining qanoatiga ofarin aytib, quchog'iga olib, peshonasidan o'pib, ikki olma berdi. Ammo Valiga olma bermay qaytdi, bolakay qanoatsiz bo'lma, deb adab berdi (Abdulla Avloniy).

Lug'at

sabr – терпение, воздержанность
qanoat qilmoq – быть довольным
manfaat – польза
gadoy – нищий
xor bo'lmoq – быть униженным

2-topshiriq. Quydagi so'z birikmalaridan gaplar tuzing.

Aqlli bola, qurilayotgan bino, yashnagan bog', o'sha kitob, mana shu kishi.

3-topshiriq. Gaplarni o'qing, tilning inson hayotida tutgan o'rni haqida suhbatlashing. Gaplarni grammatik tahlil qiling.

1. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi.

2. Ona tili-bu millatning ruhidir (I.Karimov)

3. Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan aynan hayoti tili va adabiyotidir (Abdulla Avloniy).

4. Amir Temir ko'p o'qigan, Osiyoning eng unumli uch (turkiy, arabiy, forsiy) tilini juda mukammal bilgan hukmdor edi (Alfons de Lomfotin).

4-topshiriq. Tanlagan ixtisosligingiz bo'yicha yetakchi olimlar va ularning ilmiy faoliyati haqida so'zlab bering.



1-topshiriq. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

IBN SINO JISMONIY VA AQLIY TARBIYA HAQIDA

Ibn Sino «Tib ilmlari qonuni» asarida bola katta bo'lib, yetilgan chog'ida jismoniy tarbiyaga ahamiyat berish zarurligini aytadi. Uning o'qtirishicha, odamning yig'itlik, yetuklik yoshida hamda ulg'aygan yoshida sog'lik-salomatligini saqlash uchun zarur bo'lgan jismoniy mashg'ulot bilan shug'ullanishi kerak. Ulug' mutaffakir jismoniy tarbiya deb inson salomatligi uchun zarur bo'lgan badanni turli xil mashg'ulot harakatlariga o'rgatishni nazarda tutadi. Uning fikricha, jismoniy mashg'ulotlar bilan o'z vaqtida va mustaqil shug'ullanib boruvchi odam hech qanday davolanishiga muhtoj bo'lmaydi.

Ibn Sinoning aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va psixilogik asoslarni aniqlashga harakat qiladi. Uning fikricha, hayot, hayotiy quvvat uch shaklda: o'simlik, hayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi.

Ibn Sino bolaning ilm-fan yoki hunar egallashga intilishida o'qituvchining unga bilim, hunar o'rgatishi zarurligini uqtiradi.

Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy harakatlaridandir. Chunki ilm odamni ma'naviy yuksaklikka ko'taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Lug'at

uqtirish- разъяснять

yetuklik- зрелость, совершенство

omil- факт

2-topshiriq. Quyidagi so'z va so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing:

yodgorlik, kitobxonlar, badiiy tarjima, ijod qildi, mahorat.

3-topshiriq. Nuqtalar o'rniga zarur so'zlarni qo'ying. Sifatlarni aniqlang.

1.Ko'p atoqli o'zbek olimlari.....ilmiy.....ustida ish olib bormoqdalar.

2. Anvarning otasi bu yil doktorlik dissertatsiyasini.....
3. Qori Niyoziy.....matematik olim edi, uning o'nglab.....ishlari bor.
4. Chet ellik.....biz bilan uzoq gaplashdi.
5. Yozuvchilar o'z asarlari orqali butun dunyoga.....
(*mashhur, ish, himoya qilgan, muhim, yirik, mehmon*)

4-topshiriq. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Абу Али ибн Сино в 15 лет стал известным лекарем.
2. Наш учитель узбекского языка занимается творческим переводом.
3. В 1968 году осенью в Ташкенте был открыт музей имени Алишера Навои.
4. Воспитанный человек должен быть сдержанным.
5. К празднику «Навруз» наша группа готовится с большим желанием.

5-topshiriq. O'z do'stingizning tashqi ko'rinishini tasvirlab bering.



1-topshiriq. Matnning mazmunini yorituvchi savollar tuzing.

RUHIYAT VA KAYFIYAT

Odam psixikasining sirli hodisalaridan biri - hissiyotdir. Tashqi muhit, umuman hayot taassurotlar bilan to'lib-toshgan. Shunday ekan, taassurot hissiyotsiz bo'lmaydi, albatta, qanaqa hissiyot bo'lsa, shunaqa amaliyot bo'ladi. Taassurotning kuchiga, kishining hissiyotiga qarab, L. N. Tolstoy ko'zning 85 xil, kulgining 97 xilini kuzatgan.

Ammo, besh qo'l barobar bo'lmaganidek, hissiyot hammada ham bir xil bo'lavermaydi. Hissiyot alomatlari kishining individual psixikasiga bog'liq. Ayrim shaxslar ta'sirga tez beriladi. Ayrimlari esa, aksincha: «toshga suv sachraganday» nazar-pisand qilishmaydi.

Ba'zi shaxslar o'taketgan nozik tabiatli bo'lib, o'z-o'zlarini ta'sirlab yuradilar. Inson tabiat manzaralaridan ham ta'sirlanadi. Baland tog'lar, go'zal bog'lar, daryo va dengiz to'lqinlari, parranda va hayvonlar, qor va yomg'ir yog'ishi kabi tabiat jilvalari kishi organizmida o'ziga xos ijobiy o'zgarishlar hosil etadi. Shuning uchun ham Aflotun, Arastu, Abu Ali ibn

Sino va boshqa faylasuf olimlar birmuncha kasalliklarni tabiat manzaralarida, sof havoda davolashni afzal ko'rganlar. Ularning nazarida turli tomoshalar, bayramlar, sayllar va ov hamda ko'klam kezlari yaylovlarda bo'lish inson dilini ochar va ularni hayotga muhabbat bilan qarashiga sabab bo'lar ekan. Go'zal hayot hissiyoti kishiga bir olam shodlik ato etadi. Psixikaning bardam bo'lishi ongga, saviyaga bog'liq. Hayot ta'sirchan, kishi psixikasi hissiyotlar bilan to'lib-toshgan. Yaxshi qiliq, xulq-atvor zebo ko'rinadi, kishi dilini ochadi. Jamiyat a'zolari ham doimo bir-birlarining ruhini ko'tarish xushmuomilalik uchun qayg'urishlari lozim.

Lug'at

ruhiyat- психика

kayfiyat- настроение

hissiyot- чувства, ощущения

muhit- среда

alomatlar- признаки

saviya- уровень

qayg'urmoq- беспокоиться, заботиться

2-topshuriq. Hissiyot alomatlari kishining individual psixikasiga bog'liq ekanini o'z hayotiy tajribangiz asosida izohlab bering.

3-topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Он стал известным поэтом. 2. Мы выполнили свой долг. 3. Не прячь недостатки своего друга. 4. Воспитанный человек должен быть выдержанным. 5. Я бы хотел знать узбекский язык как вы.

4-topshiriq. So'zlarni kerakli shakllarda qo'llab, matn tuzing.

Biz, yo'l, ket, edik, atrof, ko'm-ko'k, o't, bilan, qoplangan, havo, edi, ochiq, birdan, shamol, kuchli, qo'zg'aldi, shamol, shox, daraxt, qattiq, tebratdi, osmon, qora, bulut, paydo, bo'l, to'xta, asta-sekin, yomg'ir, yo'q, boshla, tobora, kuchaydi.

5-topshiriq. Nuqtalar o'rniga tegishli kelishik qo'shimchalarni qo'ying.

1. Ipak.....turli gazlamalar to‘qiladi.
2. Zarifa onasi.....xat yozdi.
3. Parrandalar to‘g‘risida yozilgan qiziqarli hikoya.....o‘qidim.
4. Yakshanba kuni guruhimiz bilan tog‘...dam oldik.
5. Eshik.....kalitini ukam....berdim.
6. Ota-ona....chet el...ishlaydi.



1-topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

ABDULLA AVLONIY

O‘zbek madaniyatining ulkan vakillaridan biri, pedagog, jamoat arbobi va yozuvchi Abdulla Avloniy 1978-yilda Toshkent shahrida to‘quvchi oilasida dunyoga keldi.

Abdulla Avloniy boshlang‘ich diniy maktabda va madrasada o‘qidi ilm – fanga ixlos qo‘ydi. O‘zbek va boshqa Sharq xalqlari adabiyotini berilib o‘rgandi. Abdulla Avloniy 14 yoshidan boshlaboq she‘rlar yozishni mashq qila boshladi.

Abdulla Avloniy xalqni ilm – fan nurlaridan bahramand qilishni o‘zining birdan-bir burchi deb biladi va 1904-yilda o‘zi yashab turgan joyda, Mirobodda maktab ochadi.

Abdulla Avloniy maktab har tomonlama bolani o‘ziga tortishi uchun harakat qildi.

Abdulla Avloniy ochgan maktabning shuhrati tabora ortib, o‘quvchilarning soni ko‘paya bordi. Xalq pedagogikasida Abdulla Avloniyning «Birinch muallim» - «Alifbe», «Ikkinchi muallim» - «O‘qish» kitoblari katta ro‘l o‘ynaydi.

Abdulla Avloniy 1904-yildan umrining oxiriga qadar o‘qituvchi bo‘lib ishladi.

Abdulla Avloniy 1934-yilda vafot etgan. U ma’rifatchi shoir dramaturg, jurnalist, rejissyor, tarjimon aktyor, jamoatchi muallim sifatida xalqimiz qalbida mangu saqlanib qoladi.

Lug‘at

vakil- представитель

ihlos qo‘ymoq- искренно верить

bahramand bo'lish - наслаждаться
burch - долг
ma'rifatchi - просветитель
mangu - вечно

2-topshiriq. Quyidagi matnning mazmunini izohlab bering. Uyushiq bo'laklar va umumlashtiruvchi so'zlarni aniqlang.

Bir g'oz suvda suzib yurib, o'ziga o'zi maqtandi.

- Olamda men kabi iqtidorli bo'lmasa kerak. Menda uch hunar bor: yugirish, suzish, uchish. Shuning uchun yer, suv, havo – uch makon mening izmimga. Bir o'zimda uch qobilyat mujassam!

G'ozning bu so'zlarini eshitib turgan qurbaqa dedi: - Birodar, buncha maqtanmasang ham bo'lar edi. Sen aytayotgan qobilyat uch jonivorning: kiyikning, baliqning, lochinning ishidir. Yerda kiyikday yugura olmaysan, suvda baliqdek suza olmaysan, havoda lochindek uch olmaysan, chala-chulpa uch hunarni bilguncha, birini yaxshilab bilganing yaxshi edi. (Abdulla Avloniy).

3-topshiriq. Quyidagi ko'makchilar ishtirokida gaplar tuzing:
bilan, keyin, ko'ra, uchun, so'ngra.

4-topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling, sifatlarni aniqlang.

1. Отец мой привёз для нас очень интересные книги.
2. Моего отца уважают и старшие и младшие.
3. Многие произведения узбекских поэтов и писателей переведены на иностранные языки.
4. Абу Али ибн Сино с юных был известен своим ясным умом.
5. Хорошо поработаешь, получишь хороший результат.

5-topshiriq. Gaplardagi fe'llarning zamonini aniqlang. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Ochiq havoda yashil gilam ustiga o'tirib ovqatlandik.
2. Bir narsani sizdan so'ramoqchiman-u, lekin uyalyapman.
3. Men sizga bir iltimos bilan murojaat qilmoqchiman.
4. Biz gilos tagida salqin so'riga chiqib o'tirdik.
5. Men sizdan ko'p yaxshiliklar ko'rdim (M.Ismoilij).



1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

ILM ODOBI

Olimlardan Rizouddin ibn Faxriddin aytadi:

- har bir odam va har bir elning saodatli bo'lishiga bosh sabab ilmdir. Ekinlar uchun yomg'ir, sug'orish qanday kerak bo'lsa, odam bolasi uchun ham ilm shu darajada keraklidir.

Bolalarni ilmli, odobli qilib o'stirish ota-onaning burchidir. Muallimlar ham bu muqaddas vazifadan chetda emaslar. Agar muallim bo'lsangiz, shogirdlarigizning har bir harakatini ko'z oldingizda tuting, ularni xushmuomilali bo'lishga o'rgating, jamiyatning foydali a'zolari qilishga erishing.

Agar yozuvchi bo'lsangiz, to'g'ri, haqqoniy so'zlarni yozishga intiling, xalqning foydali odamlarini hurmat qiling, yozgan asaringiz ilm ahli qoshida yuzingizning qizarishiga sababchi bo'lmasin. O'z darajangiz, iqtidoringizga rioya eting, o'z-o'zingizni maqtashga kirishmang, bu bilan o'zingizning va yozgan asarlaringizning qadr – qimmatini tushirasiz.

Agar bir yozuvchini va uning asarini tanqid qilmoqchi bo'lsangiz, albatta tanqid shartlariga rioya qiling. Avval o'ylang, o'z ilmingiz va iqtidoringiz u yozuvchidan yuqorimi, yo'qmi? Agar u yozuvchi yuqori bo'lsa, tanqidga kirishmang, kirishsangiz, tanqidingiz haqiqiy tanqid bo'lmay quruq so'kishdan, u yozuvchiga dushman bo'lganingiz uchun uning obro'sini tushirish istagidan iborat bo'lib qoladi.

Tanqiddan maqsad asar egasini kamchiliklarini do'stona ko'rsatib, unga yordam berishdir. Tanqid qiluvchi kishi bilan tanqid qilingan kishi bir-biriga dushman emas, balki to'g'ri yo'lni topish uchun birgalikda g'ayrat qiluvchilar, bir-birlariga yordamchilardir. Dushmanlik ta'siri orqasida yoki intiqom olish qasdi bilan qilingan tanqid ilm odobiga xiyonat, tanqid uslubiga zid jinoyatdir, bu esa axloq nuqtai nazaridan ham, ijtimoiy jihatdan ham mamnun bir ishdir, buni tanqidchilar esdan chiharmasinlar.

Lug'at

xushmuomala- вежливый
haqqoniy- справедливый
tanqid- критика
xiyonat- измена
obro‘- авторитет

2-topshiriq. Ilm haqida 5 ta maqol keltiring.

3-topshiriq. Quyidagi fe'llar ishtirokida gaplar tuzing.

Yozmoq, kutmoq, so‘zlamq, ko‘rmoq, o‘qib chiqmoq.

4-topshiriq. Qo‘yidagi ravishlardan gaplar tuzing. Rus tiliga tarjima qiling.

Ozmuncha, atayin, asta-sekin, darhol, yaqindan, erta-indin, shoshmasdan.

5-topshiriq. Ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalarni aniqlang.

1. Bilingki, jahl – dushman, aql – do‘st. 2. To‘rt narsa hamma uchun kerak: salomatlik, go‘zal hulq, rostgo‘ylik va halol mehnat. 3. Tong yorishgan, ammo hali quyosh chiqmagan edi. 4. Salim ota bilan yigitlar mehmonni izzat – ikrom bilan kuzatib tashqariga chiqishdi.



1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling, ma’nosini tushuntirib bering.

UCH BUYUK TABIB

Bir tabib qattiq kasal bo‘lib yotib qoldi. Uning shogirdlari yig‘ilib ustozlarini davolashga kirishdilar. Kasal ustoz ularga:

- sevimli shogirlarim, meni davolash uchun behuda zahmat chekmang, tuzalishdan umid uzmag, o‘limim yaqin qolganga o‘xshaydi. Vafot topganimdan keyin juda qayg‘urib oh-voh qilmang, chunki o‘rnimga

uchta buyuk tabib qoldirib ketaman. Shu zo‘r uch tabibning maslahatlariga hammangiz e‘tibor bering va boshqalarni ham shunga da‘vat qiling, - dedi.

Shogirdlardan biri:

- bizlarning aziz ustozimiz, sizdan keyin o‘rnigizda qoladigan uchta tabib kimlar? – deb so‘radi. Ustod ko‘zlarini ochdi, yonidagi shogirdlariga shunday javob berdi:

- sizlarga so‘zlaganim uchta zo‘r tabibning biri – poklik, ikkinchisi parhez, uchinchisi badantarbiyadir. Doimo pok, ozoda bo‘lishlik, tiqishtirib apil-tapil yemasdan o‘z miqdorida ovqatlanish, ichkilikdan tiyilish, badan a‘zolarini harakatsiz qoldirmasdan badantarbiya bilan shug‘ullanish mana shularning hammasi salomatlikni saqlovchi eng yaxshi choralardir.

Lug‘at

behuda- напрасный

zahmat chekmoq- страдать

qayg‘urmoq- печалиться, беспокоиться

2-topshiriq. Qo‘shma gap turlarini aniqlang va sintaktik tahlil qiling.

- 1.Yurak baquvvat bo‘lsa, ish ham unumli bo‘ladi, kishi charchamaydi.
2. Bir oz qor yog‘di, sovuq bo‘lmadi.
3. Olim bo‘lsang, olam seniki.
4. Dam jahlim chiqdi, dam kulgim keldi.
5. Kishining bilimi kuchli bo‘lsa, uning tili ham uzun bo‘ladi.

3-topshiriq. Berilgan so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘ygan holda gap tuzing.

- 1 .Ilonlarning, dori, zaharidan, tayyorlanadi, zahari.
2. Atrofga, hidi, xushbo‘y, gullarning, atirdek, taralarmish.
3. Haydashni, o‘rganishni, avtomobil, men, orzu qilaman.
4. Kema, mehmonni, kutib oldi, komandiri.

4-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Автор, анкета, вкладыш, заказ, карта, обложка, оригинал, отзыв, оформление, устав, орнамент, книжный фонд.



1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling va ma'nosini so'zlab bering.

SHOGIRDNING SABRLILIGI

Qadimda har bir hunar muqaddas hisoblanib, e'zozlab kelingan. Har bir hunarmadning o'z ustalari va uning shogirdlari bo'lgan. Otabobolarimizning shogirdlar uchun axloq-odobning o'ziga xos maxsus qoidalari, urf-odatlari, madaniyatlari, milliy an'analarini ishlab chiqqan bo'lib, bu qoidalarga qat'iy rioya qilganlar. Ustozning ham, shogirdning ham o'z oldilariga qo'ygan vazifalari, burchi bo'lgan.

Qadimda hunar o'rganish mashaqqatli bo'lgan. Shogird o'z ustozini tomonidan ming bir chig'iridan o'tgan, lekin ustalarning qattiqo'lligi bejiz emas edi. Negaki, har qanday hunarmandchilik ishi o'ta nozik didni, sabr-toqatli bo'lishni taqozo etgan.

Ustaga shogird tushgan bolalarni yoki qizlarni hunar o'rgatishdan avval ma'lum muddatda sinaganlar. Ya'ni shogird hunarni o'rganishda qiyinchiliklarga sabr-toqat qila oladimi yoki yo'qmi? Agar shogird sabrli, irodali bo'lib, har qanday qiyinchiliklarga bardosh berib o'rgansa, ustoz bu shogirdga hunar o'rgatgan. Aksincha, shogird tabiatida sabrsizlik ustunlik qilsa, unga javobini berib yuborgan.

Yoshlarni tarbiyalashda va ularga ilm hamda hunar o'rgatishga Sharq xalqlari pedagogikasidan, ya'ni ko'p asrlar mobaynida rivoj topib, shakillangan ajoyib, ma'rifiy boyliklardan, ulug' olim-u fozillar, buyuk donishmadlarning asarlaridan, ibratomuz fikrlaridan har sohada foydalanish maqsadga muvofiq.

Lu'gat

hunarmand- ремесленник

mashaqqatli- трудный

kattiqqo'l- жестокий

sabr- toqatli - выносливый, терпеливый

bardosh bermoq— терпеть
fikir- мысль, идея
ibrat- поучение, поучительно

2-topshiriq. O‘zbek milliy hunarmandchiligi haqida bog‘lanishli matn tuzing.

3-topshiriq. Quyidagi sinonim so‘zlar ishtirok etgan gaplar tuzing va rus tiliga tarjima qiling.

Chidam, bardosh, sabr; hozir, muhayyo, tayyor; sohta, yasama, sun'iy, yolg‘on; qiziq, g‘alati, ajoyib, antiqa.

4-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Uyushiq bo‘laklarni aniqlang.

Любовь для Бабура - верность, преданность, благородство и человечность. Он ставит её превыше всего: богатства, общественного положения и всех земных благ. Поэт в своих совершенных газелях создаёт образ прекрасной возлюбленной, наделяя её небывало красивой: внешностью, богатым внутренним содержанием, духовным совершенством. При этом он умело использует оригинальные художественные средства.

5-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini qo‘ying va gaplarni morfologik tahlil qiling.

1. Suvlar.....to‘kilsam, ko‘zim yoshlanur, jarlar....egilsam-aylanur boshim (Mirtemir). 2. Ko‘k...boqqan yiqilar. 3.Odobli bola el..... manzur. 4.Maqtov ahmoq.... yoqar (Maqol).

6-topshiriq. Ustozlaringiz haqida so‘zlab bering.



1-topshiriq. Matnni o‘qib rus tiliga tarjima qiling.

GO‘ZAL MALIKANING AYANCHLI QISMATI YOXUD NEFERTITI HAYOTI

Qadimgi tarix Misr fir‘avnlari bilan yonma-yon turib, davlatni boshqargan ayrim malikalar nomini ham saqlab qolgan. Shunday malikalardan biri - Nefertiti.

Uning hayoti Misrning shavkatli, katta o‘zgarishlarga limmo-lim davriga to‘g‘ri kelgan edi. Nefertiti hayoti va faoliyati uning turmush o‘rtog‘i firavn Amenxotepning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan.

Fir‘avn Amenxotep o‘z davrida uncha-muncha hukmdorning yuragi betlamaydigan ishga qo‘l urdi. U Misrda Amon xudosa sig‘inishni taqiqlab, uning o‘rniga hali ko‘pchilikka noma‘lum bo‘lgan Aton xudosa sig‘inishni joriy qildi. Turmush o‘rtog‘ining bu tadbirlarini malika Nefertiti qo‘llab-quvvatladi. Aton xudosi sharafiga Axetaton shahrini bunyod etdi. Bu yerda hashamatli saroylar, binolar va ibodatxonalar bunyod qildirdi. Yangi poytaxtda, ayniqsa, malika Nefertitining mavqei baland ko‘tarildi. Turmush o‘rtog‘i unga atab hashamatli Aton ibodatxonasini barpo qildi. Malikaning hashamatli kemasi saroy yaqinidagi bandargohda chayqalib turgan ekan. Xalq Nefertitini “Yuqori va quyi Misrning malikasi”, “Ikki mulk malikasi” deya sharaflar edi.

Ammo taqdir Nefertitining bu to‘kis baxtini ko‘p ko‘rdi. Uning uchun hamma narsaga shay Amenxotep malikaga befarq bo‘lib qoldi. Ichi qora raqiblar Nefertitini har xil yo‘llar bilan Amenxotepga yomonlay boshlagandi. Fir‘avn Exnaton yosh, go‘zal Nistaga uylangach, malika Nefertitining saroydagi mavqeiga putur yetdi. U saroydan chetlatildi, haykallari, devorlarga ishlangan tasvirlari ham ko‘zdan yashirildi.

Nefertitining keyingi taqdiri haqida tarixiy manbalarda ishonarli ma‘lumotlar yo‘q. Uning nomi uch yarim ming yillar davomida tarixchilar e‘tiboridan chetda qolib ketgan. 1910-1912- yillari fir‘avn Exnaton barpo qilgan yangi poytaxt Axetaton shahri qoldiqlarini tekshirayotgan nemis arxeologlari bu yerdan ko‘pdan-ko‘p noyob topilmalarni qo‘lga kiritdilar. Nemis arxeologlari topilmalarning eng noyoblarini muzeylarga qo‘yish uchun Berlinga jo‘natishdi. Topilmalar Berlinga keltirib tozalanganida, hamma hayratdan qotib qoldi. Bir necha yillar mobaynida loy va tuproqqa qorishib yotgan bu tosh malika Nefertitining haykali bo‘lib chiqdi. Shu tariqa insoniyat fir‘avn Exnatonning xotini malika Nefertiting qiyofasini ko‘rishga muyassar bo‘ldi.

Lug‘at

hukmdor - повелитель
sig‘inish – поклоняться
ibodatxona – церковь
bandargoh – порт
raqib – соперник
tarixiy manbalar – исторические источники
poyob – бесценный

2-topshiriq. Quyidagi sifatlarni ozbek tiliga tarjima qilib, qiyosiy daraja hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Рослый, сладкий, глубокий, низкий, дружеский, верный, светлый, крепкий, жидкий, новый, прекрасный, чудесный, низкий.

3-topshiriq. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qilib o‘qing, eganing qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligini aytib bering.

1. Я стал любителем футбола. 2. Ребята собирают ягоды очень быстро. 3. Доброе и во сне должно быть хорошо. 4. Работающие вернутся в два часа. 5. Пять не делится на два. 6. Переправиться через эту реку не составляет труда.

4-topshiriq. Qavs ichidagi fe’llarni hozirgi-kelasi zamon shaklida qo‘llab, gaplarni o‘ging.

1. Men ota-onamni juda hurmat (qilmoq). 2. Ular Sirdaryo viloyatida (yashamoq). 3. Ertaga fakultetimizda juda katta ilmiy ayjuman (o‘tkazmoq). 4. Yurtimizda har yili Navro‘z bayrami katta tantana bilan (nishonlamoq).

5-topshiriq. Berilgan qo‘shma gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Вы уже спали, когда я к вам приходил ночью. Я хочу сказать вам то, о чем вы ещё не знаете. Мы должны делать то, что требуется по закону. Декан сказал, что все должны участвовать на соревнованиях. Я много думал, прежде чем сказать об этом.

6-topshiriq. O‘zbekistonning tarixiy obidalarini haqida nimalarni bilasiz? Ular haqida gapirib bering.

7-topshiriq. Buyuk ajdodlarimizdan Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Mirzo Ulug‘bek, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al Farg‘oniy, Zebunnisobegim haqida qisqa hikoya tuzing.



1-topshiriq. Matnni o‘qib rus tiliga tarjima qiling.

GRENLANDIYA

1818-yilning 18-avgustida Britaniyaning qutb ekspeditsiyasi boshlig‘i, kapitan Djon Ross Grenlandiyaga kemada suzib keladi va uning tub aholisi – inuitlar bilan uchrashadi. Inuitlar o‘zlarini Yer sayyorasidagi yagona yashovchilar deb hisoblar edilar. Bu uchrashuvda inuitlarning eng qarisi o‘z tayog‘i bilan o‘qtalib, chaqirilmagan mehmonlarni bu yerdan ketishni so‘rab imo-ishora qiladi.

Djon Sakxeus, janubiy Grenlandiyalik tarjimon, o‘z pichoqini inuitlar oyoqi ostiga tashlaydi. Uning ishi inuitlarni qattiq qayratga soladi va ular pichog‘ni olib baqirishga tushadilar. Djonu Sakxeus ham ularga taqlid qila boshlaydi. Eng qaltis vaziyat ortda qoladi. Siz, o‘zini xuddi siz kabi tutayotgan kishiga qo‘l ko‘taramaysizku? Keksa inuit Sakxeusning paxtadan tikilgan ko‘ylagini ushlab ko‘rib, undan, qaysi hayvonning terisi shunchalik yupqaligini so‘raydi. Tarjimon o‘z bilganicha tushuntirishni boshlaydi. Shu vaqt boshqa inuit yana bir savol beradi: “Sizlar Oydanmisiz yoki Quyoshdan?”. Sakxeus ularni boshqa ingliz ofitserlari bilan so‘zlashishga chorlaydi. Inuitlar kemaga chiqadilar, birinchi bor cho‘chqani ko‘rib qattiq qo‘rqib ketadilar, keyin esa ko‘zguda o‘z akslarini ko‘rib kulib yuboradilar. Soatni ko‘rib juda hayratlanadilar va uni yesa bo‘ladimi deb so‘raydilar. Bularning so‘ngida o‘rtada tinchlik o‘rnatiladi va inuitlar o‘z shamanlaridan yovuz ruhlarni kemadan haydab chiqarishni so‘raydilar .

Ertasiga Djon Ross qirg‘oqda o‘z bayrog‘ini o‘rnatadi va uning boyliklarini Britaniyaga mulki deb e‘lon qiladi. Inuitlar o‘zlari bilmagan

holda Britaniya fuqarolariga aylanadilar. Bir haftadan so‘ng ularning mamlakati barcha xaritalarda “terra inkognita” nomi paydo bo‘ladi.

Lug‘at

tub aholi – коренное население
taqlid - подражание
qaltis vaziyat – опасная ситуация
aks – отражение
ko‘zgu - зеркало

2-topshiriq. O‘qing. Sifatlarni aniqlang.

1.Yo‘lovchi issiq-issiq choy ichdi. 2. Ukam kichik-kichik hikoyalarni sevib o‘qiydi. 3. Bizning bog‘imizda kechki mevalar ham bor, ertangi mevalar ham bor. 4.Chavandozlar chopqir otlarga mindilar. 5.Kecha u noiloj bozorga bordi. 6. Dugonamga eng nafis gullardan duldasta sotib oldim.

3-topshiriq. O‘qing. Bog‘lovchilarni aniqlang va turini ayting. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Tog‘lardagi qor va muz asta-sekin eriy boshladi. 2. Oy yoritadi, biroq isitmaydi. 3. Goh qattiq bo‘ron bo‘ladi, goh kuchli yomg‘ir yog‘adi. 4. Kun ancha isib qoldi, lekin soya joylarda qor xali erigani yo‘q. 5.Xalq dostonlarida hayratli va jasoratli odamlar sherga o‘xshatiladi. 6. Sher rahmsiz, ammo o‘z bolalariga juda mehribon.

4-topshiriq. Orqali, uchun, bilan, ust, old, tashqari ko‘makchilari qatnashgan gaplar tuzing.

5-topshiriq. O‘qing. Berilgan gaplardagi ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlab rus tiliga tarjima qiling.

1. Tiniq suvda bolalar maza qilib cho‘mildilar. 2. Yaxshi odamni hamma hurmat qiladi. 3. Mahallamizda bolalar bog‘chasi qurib bitirildi. 4. Ukam xonasida telefonda kim bilandir gaplashayotgan edi. 5. O‘qituvchimiz doim to‘g‘ri va rost gapirishga o‘rgatadi.

6-topshiriq. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling, fe’l mayllariga e’tibor berib ko‘chiring.

1. Вахид, объясни мне, пожалуйста, задачу. 2. Ребята, будьте добры, помогите Мавлюде выпустить стенгазету. 3. Напишу-ка письмо другу. 4. Без твоей помощи я не добрался бы до города. 4. Он хотел бы получить новую книгу.



1-topshiriq. Matnni o‘qing rus tiliga tarjima qiling.

MINORALAR

Oqsaroy – Amir Temur tomonidan (1380-1404) Shahrisabzda qurdirilgan. Bizgacha butun saqlanmagan, uning avvalgi holati to‘g‘risida faqat yozma manbalarni o‘qib fikr yuritish mumkin. 20 yil davomida qurilgan bu bino devonxonasi peshtog‘ida arslon va quyosh tasviri hamda Temur davlatining 3 halqa shaklidagi nishoni bo‘lgan. Saroy devorlaridagi ranglarning oy yorug‘ida jilovlanib, oqarib ko‘rinishidan bino Oqsaroy deb nomlangan.

Tom tepasida ishlangan hovuzga Taxtaqoracha dovonidan qo‘rg‘oshin quvurlar orqali suv keltirilib, undan sharshara hosil qilingan.

Kaltaminor – Xivadagi Muhammad Aminxon madrasasining old tomonida joylashgan. O‘rta Osiyoda eng katta va baland qilib qurish mo‘ljallangan (taxminan 70-80 m). 1852-yilda qurilishi boshlangan majmua 1855-yilda xonning vafoti tufayli chala qolgan. Shuning uchun uning nomi Kaltaminor deb ataladi. Hozir Kaltaminorning balandligi – 26 metr, asosining diametri – 14,2 m. Bezagida oq, yashil, feruza rangli koshinlar ko‘p ishlatilganidan Ko‘kminor deb ham ataladi. Kaltaminor to‘liq ta’mirlanib, naqsh va yozuvlari qayta tiklangan.

Lug‘at

tasvir – рисунок

majmua – комплекс

hovuz-бассейн

2-topshiriq. Siz yashaydigan joyda minoralar bormi? Ular haqida nimalar bilasiz?

3-topshiriq. O‘qing. Har bir sinonimik qatordagi asosiy so‘zni topib, shu so‘z qatnashgan gap yozing.

1. Nom, ism, ot. 2. Sekin, asta, ohista. 3. Yakka, yol‘giz, tanho. 4. O‘t, olov. 5. Mashshoq, sozanda. 6. Ko‘k, zangori, moviy. 7. Kuldi, iljaydi, xaxoladi, jilmaydi. 8. Uchradi, yo‘liqdi, duch keldi.

4-topshiriq. Amir Temur hayotiga oid 10 ta test savollari tuzing.

5-topshiriq. O‘qing. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

НАКОНЕЦ ОНА СОГЛАСИЛАСЬ

Преподаватель иностранных языков Вильям Горман из английского города Норвича несколько раз делал предложение любимой девушке. Однако каждый раз получал отказ. Тогда Вильям решил доказать постоянство своего чувства и начал ежедневно посылать ей письма, состоящие из одной фразы: “Я люблю тебя”.

Однако в каждом письме эта фраза была написана на каком-то другом языке. Когда девушка получила очередное письмо с признанием в любви, написанное на сто двенадцатом языке, она согласилась стать женой учителя.

6-topshiriq. Internet va boshqa manbalardan foydalanib, o‘zbek xalqining buyuk ajdodlaridan biri haqida qisqa xabar matnini tayyorlang.



1-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini aytib bering.

SHAYX XOVAND TOHUR (SHAYXONTOHUR)

Toshkent shahrining markazida tabarruk ziyoratgoh bor. Bu qadamjo xalq orasida Shayxontohur nomi bilan yuritiladi. Faqat shu ziyoratgohgina emas, bu yerdagi daha, tuman nomi ham ana shunday ataladi.

Aslida qadimiy bu maskan Shayx Xovan Tohur nomi bilan bog'liq. Tarixiy asarlarda va XX asr boshlarida Fransiyada nashr etilgan "Islom ensiklopediyasi"da Shayx Xovan Tohur sharqning ulug' allomalaridan, Movorounnaxrning yetuk ijodkorlaridan biri deya tariflanadi. Tarixiy manbalarda Shayx Xovan Tohur Shosh o'lkasining Bog'iston qishlog'ida tavallud topganligi haqida ma'lumot beriladi. Otasi Umar Bog'istoni shayxlik martabasiga erishgan, allomalar sulolasiga mansub zot bo'lgan. Allomaning tavalludi 1280-yillariga to'g'ri keladi. Unga Xovan Tohur deb ism qo'yilishi bejiz emas. Xovand – yetakchi, raxnamo, g'amxo'rlik ko'rsatuvchi xokim, Tohur esa nihoyatda pok degan ma'noni bildiradi.

Shayx Xovand Tohur xayotda boshqalarga poklik, adolatparvarlik borasida ibrat bo'lish barobarida ko'plab asarlar ham yaratgan.

Shoir, alloma Shayx Xovand Tohur XIV asrning ikkinchi yarmida (ba'zi manbalarda 1350-yil, boshqalarida 1360-yilda) vafot etgan.

Allomaning Xoja Axror Vali tomonidan barpo etilgan maqbarasi XVI-XIX asrda batamom vayron qilingan. So'ng saqlanib qolgan poydevor asosida yana qayta quriladi. Ziyoratgohdagi yodgorliklar va obidalarining bir qismi o'tgan asrning 60-70-yillarida yo'q qilingan. Qadamjoga kirish darvozasi ham buziladi. Umuman, ziyoratgohdagi 20 dan ortiq yodgorliklardan uchitasi Shayx Xovand Tohur, Qaldirg'ochbiy, Yunusxon maqbaralari vayronaga aylangan holda saqlanib qoladi.

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan keyin uchta yodgorlik Shayx Xovand Tohur, Qaldirg'ochbiy, Yunusxon maqbaralari asl tarixiy ko'rinishida tiklandi.

Bu ziyoratgoh hududida Toshkent Islom universitetining tashkil etilishi ajdodlar merosiga nisbatan yuksak ehtiromning ifodasi bo'ldi.

Lug'at

ziyosatgoh - место поломничества, святыня

sulola - династия

poklik – духовная чистота

poydevor - фундамент

yodgorlik – памятник

qadamjo- место для поломничества

rahnamo- предводитель
g'amxo'rluk- забота

2-topshiriq. O'qing. Paronimlarning ma'nolarini tushuntirib, ular ishtirokida so'z birikmalari va gaplar tuzing.

Egarlamoq – egallamoq, sur'at – surat, uquv – o'quv, xalal – halol, sharh-sharq, sodiq – sobiq, ma'noviy – ma'naviy, istiqlol – istiqbol.

3-topshiriq. Quyidagi gaplarni rus tiliga oqzaki tarjima qiling. Aniqlovchi qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini ayting.

1. Universitetimiz hovlisiga katta oshxona qurildi. 2. Akam ekan gullar juda chiroyli ekan. 3. Ular o'qigan kitobni men ham o'qidim. 4. Bolalar ana u bog'da dam oldilar. 5. Topshiriqlarni o'z vaqtida bajargan talabalar baholandi. 6. Keng dalalar, ko'rkam bog'lar ko'klam libosini kiydi.

4-topshiriq. Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing:

savodli, chiroyli, beshinchi, to'rttasi, g'alaba, g'oliblar, o'qish, bajargan, o'zi, men, u.

5-topshiriq. Berilgan mavzuni davom ettiring.

Bugun erta turdim. Mayin shabada esmoqda. Osmon musaffo...

6-topshiriq. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling, kesim qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini aytib bering.

1. Сегодня студенты нашего курса занимались в кабинете иностранных языков. 2. Здесь был высокий забор и маленький сад. 3. На столе лежал новый журнал, учебник и телефон. 4. Он рассказал обо всём. 5. Мой старший брат, окончив институт, стал врачом.



1-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini aytib bering.

MAHALLALAR TARIXI

Qadimgi va o‘rta asr Toshkent mahallalari haqida ma’lumot juda oz. Toshkent xududida IX-asrdagi shahar – Binkantning keyingi asrlarda kengayib borishi bilan unda yozma manbalarda uchraydi. XVIII asrga kelib Toshkent ma’muriy xududiy jihatdan 4-qism – dahalariga bo‘lingan. Dahalar o‘z navbatida bir qancha mahalla va guzarlardan tashkil topgan: dahalarda mahallalar soni va ularning katta-kichikligi turlicha bo‘lgan.

Mahalla ma’muriy holati jihatidan o‘z ichki tartib-qoidalariga ega bo‘lgan va uni mahalla aholisi tomonidan saylangan oqsoqol boshqargan. Oqsoqollarga mahallaning jamoat ishlari, marosimlari, yig‘inlarini boshqarganlar. Bir mahallada 50 tadan 150 tagacha xonadon bo‘lgan. Ba’zi mahallalarning nomlari o‘sha joyda rivojlangan kasb-hunarni anglatgan (Pichoqchilik, Degrez, Etikdo‘z), boshqalari etnik atamalar (O‘zbek mahalla, Tojikko‘cha, Mo‘g‘ulko‘cha) yoki relefi (Sassiqhovuz, Chuqurko‘prik, Balandmasjid va h.k.) orqali ifodalangan.

Mahallalarning masjidi va choyxonasi uning gavjumroq yerida joylashgan. U yerda aholining turli ma’rakalari uchun zarur umumiy mulki saqlangan.

Mustaqillik yillarida “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini qo‘llab-quvvatlash haqida”gi farmon va qonun, “Obod mahalla yili” dasturi asosida Toshkent mahallalari o‘z huquqiy maqomiga ega bo‘ldi. Ularning faoliyat doirasi kengaydi. Mahallalar yuridik shaxs sifatida o‘z mulkiga, moliyaviy byudjetiga, bankdagi hisob rahami – jamg‘armasiga ega bo‘ldi. Rahbariyat (rais, kotib)ning nufuzi ortdi, vazifalari aniq belgilandi. Mahallalar o‘z xududlarida savdo va maishiy xizmatni, sanitariya va ekologik holatni yaxshilash, to‘lovlar sistemasida ishtirok etib, mahalla va aholi ahvolini yaxshilashga ko‘maklashish kabilarda faol qatnashish imkoniyatiiga ega bo‘ldilar.

Mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag‘rida kamol topganlari kabi oila ham mahalla ichida ravnaq topadi.

Lug‘at

yoʻzma manba – письменный источник
ma’muriy -административный
hunar - ремесло

ma'raka – обрядовое мероприятие
farzand – ребенок, дитя
ravnaq tortmoq - процветать

2-topshiriq. 1. Matnga reja tuzing. 2. O'zingiz yashaydigan mahalla tarixidan nimalarni bilasiz? 3. Mahallangizda qanday ishlar olib boriladi.

3-topshiriq. O'qing. Ajratib korsatilgan so'zlarning farqini aytib bering, ravishdoshlarni tahlil qiling.

1. Kuchli shamol birdan **guvilladi**. 2. Shamol **guvillab** esardi. 3. Quyosh **chiqdi**. 4. Quyosh **chiqquncha**, belgilangan joyga yetib bordik. 5. Daryo suvi tinimsiz **shovillaydi**. 6. Suv **sovillab** oqmoqda. 7. Yaxshi **topib** so'zlar yomon **qopib** (maqol). 8. **Kelib** ko'r, **ko'rib** ol.

4-topshiriq. Avval juft fe'lli gaplarni, keyin qo'shma fe'lli gaplarni ko'chiring.

1. U bor gapni oshkora aytdi-qo'ydi. 2. Moviy osmonda bulutlar sayr qilmoqda. 3. Biz sport musobaqalarida g'olib chiqish uchun astoydil harakat qilmoqdamiz. 4. U hech narsa demay qo'lidagi qog'ozni yirtdi qo'ydi. 5. U shunchaki hazil qilib aytdi-qo'ydi. 6. Do'stim uy qurilishida katta yordam berdi.

5-topshiriq. O'qing sonlarni aniqlang. Mazmunini so'zlab bering.

Qaldirg'ochlar bir kunda 16 soatga yaqin parvoz qilishadi. Ular bir soat davomida o'z palaponlariga tumshuqlarini tolga'azib yigirma marta ovqat olib kelishadi. Har bir qaldirg'och tumshugida o'nlab hasharot bo'ladi. Bir juft qaldirg'och har kuni 6400 tadan hasharotga qirgin keltirib, ularni bolalariga olib kelsa, yana 600 ga yaqini bilan o'zi ovqatlanadi. (*"Xalq so'zi" gazetasidan*)



1-topshiriq. Berilgan testlarni rus tiliga tarjima qiling va to‘g‘ri javobni toping.

1. Jamiyatdan chiqqan, jamiyat a‘zolarini tartib doirasida tutuvchi tashkilot qanday tashkilot?

- a) davlat b) hokimiyat d) jamiyat e) hammasi to‘g‘ri

2. Davlat shakli nechaga bo‘linadi?

- a) bo‘linmaydi b) ikki turga d) uch turga e) javob yo‘q

3. Davlat tuzilishiga ko‘ra nechaga bo‘linadi va ular qaysilar?

- a) 3 ga: demokratik, ijtimoiy va iqtisodiy b) 2 ga: demokratik va unitar d) 1 ga: unitar e) 3 ga: federativ, konfederativ va unitar

4. “Unitar” so‘zining ma‘nosi nima?

- a) oddiy b) yaxlit d) yagona e) hamma javoblar to‘g‘ri

5. Yuridik fanda huquq tizimi qanday qismlardan iborat?

- a) huquqiy norma b) huquq instituti d) huquq sohalari e) hammasi to‘g‘ri

6. Mahkumlarga asosiy jazolardan tashqari qanday qo‘shimcha jazolar qo‘yildi?

- a) harbiy yoki maxsus unvonlardan mahrum qilish. b) O‘lim jazosi d) mol-mulki musodara qilish e) a va d javoblar to‘g‘ri.

7. Tovlamachilik, o‘g‘irlik, bosqinchilik jinoyatlarni qilgan javobgarlar necha yoshdan javobgarlikka tortiladi.

- a) 13-15 yoshdan. b) 14-16 yoshdan d) 15-16 e) javobgarlikka tortilmaydi

8. Vazirlar Mahkamasini kim tuzadi?

- a) prezident b) hokimlar d) Oliy Majlis e) hamma javoblar to‘g‘ri

Lug‘at

jamiyat - общество

davlat shakli - государственная форма

davlat tuzilishi - государственный строй
mahkum – осужденный, приговоренный
tovlamachilik - мошенничество
bosqinchilik – грабеж

2-topshiriq. Berilgan so‘z birikmalari bilan gap tuzing.

davlat tuzumi, sud jarayoni, advokat nutqi, siyosiy davlat, federativ respublika, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)

3-topshiriq. Quyidagi qo‘shma fe'llar ishtirokida gaplar tuzing va ko‘chiring.

Bajara olasan, ishlab yuribman, so‘zlab berdik, olib keldilar, uchib ketdi, yeb ko‘ring, borib kelamiz, ishlab turibmiz, ko‘rib chiqamiz, hikoya qila olmoq.

4-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga quyidagi fe'llarni mos shaklda qo‘yib ko‘chiring.

yozmoq, bo‘lmoq, qolmoq, olmoq, chiqmoq, kelmoq, chekmoq, kutmoq

1. Men do‘stimga xat... . 2. Kechagi kitobni o‘qib 3. Azizani kecha institut kutubxonasida uchratib 4. Men o‘zbek tilida xat yoza 5. Ukamning yozgan inshosini ko‘rib 6. Siz bugun teatrga borib 7. Kechagi arizaga fakultet dekani imzo 8. Ular sizni institut hovlisida

5-topshiriq. Inson holati bilan bog‘liq 10 ta sifat toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.



1-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini aytib bering.

OLIY MAJLIS BINOSI

Toshkent shahrining "Bunyodkor" maydoni yonidan o‘tar ekansiz, beixtiyor e'tiboringizni ko‘kka bo‘y cho‘zib turgan Oliy Majlis binosi

o‘ziga tortadi. Uning yal-yal tovlanib turgan sharqona uslubdagi gumbazi tepasida O‘zbekiston bayrog‘i hilpirab turibdi. Ushbu salobatli bino Sohibqiron bobomiz Amir Temur saltanatining muhtasham imoratlarini eslatadi.

Oliy Majlis binosi yurtboshimiz tashabbusi bilan "O‘zbekiston Milliy bog‘i"ning ro‘parasida buyod etilgan. Bu bino juda qisqa fursatda, ya’ni 1996-yil sentyabrdan 1997-yil dekabr oyigacha qurib bitkazilgan. Qurilishda yurtimizning eng mahoratli ustalari ishtirok etganlar.

Oliy Majlis binosi ichkarisida to‘rtta kichik hamda bitta 450 o‘rinli yirik zal bo‘lib, unda chet ellik mehmonlar uchun maxsus 100 ta o‘rindiqliq qo‘yilgan.

Oliy Majlis davlatimizning qonun chiqaruvchi vakillik organi hisoblanadi. Unda mamlakatimiz miqyosidagi barcha -iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi qonun va qarorlar qabul qilinadi.

Oliy Majlis umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylash huquqi asosida, yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanuvchi, viloyat, tuman va shahar okruglaridan nomzodi qo‘yilgan 250 nafar deputatdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatligiga saylov kunigacha 25 yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari saylanish huquqiga egadirlar. Deputatlarni Oliy Majlis raisi boshqarib turadi Oliy Majlis raisi va uning o‘rinbosarlarining vakolat muddati besh yil hisoblanadi.

Jamiyat va insoniyatni qonunlar boshqarib turadi. Qonunning do‘sti ham, dushmani ham yo‘q. Uning oldida barcha teng va barobardir. "Hayot pillapoyalari omonat bo‘lsa, balandga chiqib bo‘lmaydi", — deydi donishmandlar.

Davlatimizning iqtisodiy barqarorligi, xalqimizning tinchligi va farovonligi hamda jahon maydonida O‘zbekiston mavqeining yuksalishiga xizmat qiluvchi qonun va qarorlarni ishlab chiqarishda Oliy Majlis betinim faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

(“Gulxan” jurnalidan)

Lug‘at

gumbaz- купол

salobatli-величественный

pillaroʻya- лестница

iqtisodiy barqarorlik- экономическая стабильность

ovoz berish – голосовать

2-topshiriq. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qilib yozing.

1. Умид расказал нам содержание пьесы. 2. Ты можешь перевести эту статью на узбекский язык. 3. Он не может прийти завтра. 4. Мы анализировали его сочинение. 5. Директор руководит заводом. 6. Студенты второго курса организовали выставку своих рисунков, 7. Мурад не обращал внимания на ветер. 8. Надо запомнить расписание занятий.

3-topshiriq. Olmoshlar ishtirok etgan 10 ta gap tuzing.

4-topshiriq. Quyidagi gaplarni rus tiliga tarjima qiling, juft otlarni aniqlab yozilishini eslab qoling.

1. Ota-onani doim hurmat qilish kerak. 2. Aka-uka Madaminovlar juda chiroyli qo'shiq ijro etdilar. 3. Erkaklar xotin-qizlarga nisbatan doim hurmatda bo'lishi lozim. 4. Yor-u do'st bilan birga bo'lish kerak. 5. Har bir millatning o'ziga xos urf-odati bor. 6. Institutimiz ustaxonasiga har xil asbob-usknalar olib kelindi.

5-topshiriq. Quyidagi so'z va so'z birikmalardan sifatdash yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing:

kelishmoq, olib kelmoq, yozib bormoq, qaratmoq, bukmoq, xursand bo'lmoq, sarflamoq, ziyorat qilmoq.



1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini aytib bering

TOSHKENTDAGI BUNYODKORLIK ISHLARI

Barchaga ma'lumki o'zbek xalqi o'tmishdan o'zining bunyodkorligi, yaratuvchanligi va me'morchiligi bilan juda mashhur. O'zbekistonning butun dunyoga mashhur dur-gavhar shaharlari doimo barcha xalqlarni o'ziga rom aylab kelmoqda. Bu borada Toshkent shahri ham o'zining me'morchilik obidalari, ko'rkam binolari, so'lim bog'-u rog'lari bilan sayyohlarni hayratga solib kelmoqda.

Toshkentni 2007-yili “Islom madaniyati poytaxti” deb e’lon qilinishi, bu borada katta me’morchilik obidalarini rekonstruksiya qilinishi va barpo etilishiga sabab bo’ldi.

Toshkent shahridagi Hazrati Imom majmuasida juda qisqa muddatda g’oyat katta bunyodkorlik, ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Hozirgi kunda bu yerda Hazrati Imom jome’ masjidi, Baroqxon madrasasi, Mo’yi muborak ziyoratgohi, Tillashayx masjidi, O’zbekiston musulmonlari idorasining binosi va boshqa noyob, betakror imoratlar joylashgan.

Birgina Eski shahar hududida amalga oshirilgan katta ishlarni olaylik. Bu yerlar bor yo’g’i 10 yil avval qay ahvolda bo’lgani barchaga ma’lum. Hozirda esa u yerdagi ko’chalar kengaytirilgan, yangi ko’rkam turar joylar, zamonaviy modalar uyi, Bolalar ijodiyot markazi, supermarket, maktab va poliklinikalar, mahalla guzarlari barpo etildi.

Toshkent shahridagi “Chorsu”, “Oloy”, “Parkent”, “Chilonzor”, “Mirobod”, «Farhod» kabi bozorlar tubdan rekonstruksiya qilingani, yangilari qurilgani ham ana shunday xayrli ishlardandir. Poytaxtimizda ayni paytda zamonaviy, ko’rkam va qulay yuzdan ortiq buyum bozori, dehqon bozori, shuningdek, qurilish materiallari savdosiga ixtisoslashgan bozorlar faoliyat ko’rsatmoqda. Ularda sotilayotgan rang-barang mahsulotlarning bir qismi xorijdan olib kelinayotgan bo’lsa, asosiy qismi mahalliy tadbirkorlar tomonidan tayyorlanmoqda.

Lug‘at

bunyodkorlik - созидание

me’morchilik - архитектура

maqbara - гробница, мавзолей

mahalliy tadbirkorlar – местные предприниматели

2-topshiriq. Maqollardagi sifatdoshlarni aniqlang.

1. To’g’ri gap tuqqaningga yoqmaydi. 2. Qo’rqqanga qo’sha ko’rinar. 3. Ko’rmaganning ko’rgani qursin. 4. Qolgan ishga qor yog’ar. 5. Bo’linganni bo’ri yer. 6. Erta ekkan, erta o’radi.

3-topshiriq. Quyidagi bog’lovchilar ishtirokida sabab ergash gapli qo’shma gap tuzib yozing.

Chunki, shuning uchun, shu sababli, sababli.

4-topshiriq. Bosh va ergash gapni aniqlang, gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. На базаре много народу, потому что было воскресенье. 2. Машины засветили фары, потому что в лесу уже стемнело. 3. Так как лето в Узбекистане очень жаркое и сухое, надо часто поливать деревья. 4. Так как все пришли без опоздания, собрание началось вовремя.

5-topshiriq. O‘qing. Sonlarni toping va turini aniqlang.

1. Tongga yaqin leytenant odatda ikkita jangchisi bilan qo‘riqlashga ketar edi. 2. Ularning ikkovlarini ham taniydigan kishilar oz emas edi. 3. Beshta o‘g‘il-qizim bor. 4. G‘ofur G‘ulom 1903 yil 10 mayda Toshkent shahrida tug‘ildi. 5. Bish beshovimiz kecha Samarqandga ziyoratga bordik. 6. O‘rtog‘im Farhod 4-kursda o‘qiydi.



1-topshiriq. Testlarni rus tiliga tarjima qiling va javobini toping.

O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari fanidan savollar

1. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 9-moddasida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendum)ga qo‘yiladi, deb ko‘rsatilgan. Ayting-chi, nimalar umumxalq ovozi bilan hal qilinadi?

2. O‘zbekiston Respublikasi terma komandasining a‘zosi N. endi 18 yoshga to‘lib, hayotida birinchi marotaba saylovga qatnashishi kerak edi. Lekin musobaqa uchun boshqa shaharga ketishi tufayli N. saylovga qatnasha olmayman deb achindi.

Ayting-chi, N. saylovga qatnashadimi? Agar qatnashsa, qanday turda o‘z huquqini amalga oshiradi?

3. M. ismli fuqaro, Yakkasaroy tuman prokuraturasiga qo‘shnisi S. o‘z sherigi bilan birgalikda jinoyat qilishga tayyorgarlik ko‘rayotganligini ma’lum qiladi. Prokuror tergovchiga S. ni hibsga olishni buyurdi.

Ayting-chi, prokuror to'g'ri buyruq berdimi? Tergovchi Konstitutsiyaning qaysi moddasiga qarshi harakat qildi?

4. O. ismli fuqaro ishdan qaytib uyiga kelganda ayrim buyumlari o'g'irlanganligini ko'rdi, o'g'ri shu mahallada yashovchi M. ekanligiga ishonch hosil qilib, uning eshigini buzib, uyidan mol-mulkini olib chiqib ketdi. Ayting-chi, O. Konstitutsiyaning qaysi moddasiga xilof harakat qildi? U qanday ish ko'rmog'i qonuniy?

5. A. ismli xizmatchi ishdan bo'shash to'g'risida „o'z roziligi” bilan deb ariza yozdi. Bir qancha vaqt o'tgach direktor chaqirib arizani qayta yozishni va ishdan bo'shash sababini ko'rsatishni talab qildi. A. rozilik bermadi. Bu vaziyatda kim haq?

Lugat

umumxalq muhokamasi - всенародное обсуждение

umumxalq ovoz berishi - всенародное голосование, референдум

jinoyat - преступление

hibsga olmoq - арестовать

qonunga xilof harakat- противоправное (незаконное) деяние

sovuqqonlik- хлоднокровие

2-topshiriq. Quyidagi so'zlardan sifat yasab, tus tiliga tarjima qiling.

Aql, ish, kuch, davlat, tuz, suv, bola, o'qil, ilm, madanyat, uy.

3-topshiriq. Quyidagi gaplarni rus tiliga oqzaki tarjima qiling.

1. Har birimiz bittadan daraxt o'tqazdik. 2 O'qituvchi ularning har qaysisiga uchtadan savol berdi. 3 Har qachon, har yerda o'z burchingni unutma. 4. Shanbalikda hammangiz yaxshi ishladinglar, yashanglar! 6. Bu kitoblarning barchasini men o'qib chiqqanman.

4-topshiriq. Fe'lning quyidagi shakllari ishtirokida gaplar tuzing.

Rozi bo'lgan emas edi, qo'l qo'ymagan ekan, kelgan emish, topshirmagan emish, javob bergan edingiz, hayron qolgan edilar, aytganmish, ko'rgan emishsan.

5-topshiriq. Berilgan gaplardagi aniqlovchilarni toping.

1. Tiniq suvda yosh bolalar cho‘milmoqdalar. 2. Yaxshiroq qalamingiz yo‘g‘mi?. 3. Eng go‘zal bog‘lar bizning diyorimizda. 4. Birinchi yili juda qiyin bo‘ldi. 5. U kitob Valiniki. 6. Allaqanday odam sizni chaqirib keldi. 7. Yaxshi insonni hamma hurmat qiladi.

6-topshiriq. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ta’lim, oila, ota-ona va farzandlar munosabati masalalariga bag‘ishlangan 41-42-63-64-65-moddalarini (o‘zbek tilida) mustaqil ravishda o‘qib o‘rganing, do‘stlaringiz bilan muhokama qiling.



1-topshiriq. Huquq faniga oid savollarni rus tiliga tarjima qiling va javobini toping.

O‘ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI ASOSLARI FANIDAN SAVOLLAR

1. 16 yoshli xodim S. 6 oy ishlaganiddan so‘ng unga mehnat ta’tili berishni rahbaridan so‘radi. Rahbari hali ishlaganiga 6 oy to‘lmaganligini hisobga olib ta’til bermadi. Rahbarning xatti-harakati mehnat qonuniga zidmi yoki yo‘qmi?

2. Quyida ko‘rsatilgan xizmatchilarga qaysi turdagi ish vaqti qo‘llash Mehnat kodeksida ko‘rsatilgan:
kasal onasiga qaragan xodimga;
16 yoshli xodimga;
yosh bolali xodimga;
zarar ishda ishlaydigan xodimga;
ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o‘qiydigan xodimga.

3. Bo‘lim boshlig‘i 16 yoshli ishchini qo‘shimcha ishlashi to‘g‘risida buyruq berib, ikki hafta ishlashini so‘radi. Lekin ishchi rozilik bildirmadi. Bo‘lim boshlig‘i unga hayfsan e‘lon qildi.

a) Bu vaziyatda bo‘lim boshlig‘ining harakati qonuniymi?

b) Qonuniy bo‘lmasa ishchi qayerga murojaat qilishi mumkin?

4. F. ismli fuqaro bir necha kun o‘z uyining oynasidan ikki o‘spirin qo‘shnisining mashinasi atrofida yurganini ko‘rdi. Kunlardan bir kun

qo'shni mashinasining ikki g'ildiragi o'g'irlanganligini bilib qoldi. Qo'shnisining: „Kim o'g'irladi?“ - degan dod-voyiga F. : „Kim o'g'irlar edi, ana shu ikki o'spirin o'g'irlan“, - deb aytdi. F. Haqmi? Agar u shubhalangan bo'lsa, kimga murojaat qilishi kerak edi?

5. Shavkatning otasi muntazam ravishda aroq ichadigan bo'lib qoldi. Kunlarning birida u 8-sinfda o'qiydigan o'g'liga majbur qilib aroq quyib berdi. Shavkat ko'zi tinib, og'zi achib, chidamasdan ko'chaga qochib ketdi. Uni ko'rgan militsiya xodimi ish yuritish yozmalarida tartib buzganligini ko'rsatdi. Ertalab Shavkatning otasini militsiya bo'limiga chaqirib, jazolashlarini aytishdi. Shavkatning otasiga qanday jazo chorasi qo'llaniladi? Qanday tartib buzilishi sodir bo'ldi?

Lug'at

xatti-harakati- действие

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda- неотрывая от производства

o'spirin- юноша

ish yuritish yozmalari- делопроизводство

hadya qildi- дарить

2-topshiriq. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling. Vositali va vositasiz to'ldiruvchilarni aniqlang.

1. Bu maqolani o'zbek tiliga tarjima qila olasanmi? 2. Sen bayram haqida gazetaga maqola tayyorla. 3. Ular bizni ilmiy anjumanga taklif qildilar. 4. Do'sting senga nima dedi? 5. Otam kecha mukofot oldi.

3-topshiriq. Matni o'zbek tiliga tarjima qiling.

В ЭТОМ ВСЕ ДЕЛО

Посмотрев цирковую программу, к директору цирка зашёл приятель.

- Ну как, тебе понравилась программа? – спросил директор.

- Всё хорошо, только я не могу понять одного: как этот тощий, еле держащийся на ногах укротитель не боится входить в клетку ко львам.

- В этом всё дело, - пояснил директор. – Он не вызывает у львов никакого аппетита.

4-topshiriq. Berilgan qo'shma otlar ishtirokida gaplar tuzing.

Yerto‘la, kaltakesak, boychechak, qo‘shirnoq, laylakqor, bilakuzuk, qo‘ziqorin, achchiqtosh, radiostansiya.

5-topshiriq. Kelajakdagi orzularingiz haqida gapirib bering.



1-topshiriq. Matnlarni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

MUSIQA

Tabiatan nozikta‘b, san‘atsevar va san‘at ahliga talabchan o‘zbek xalqining musiqasi keng ko‘lamli ma‘naviyat ko‘zgusidir. O‘tmishda musiqa ziyolilikning albat namunasi bo‘lgan. Ma‘rifat va ma‘naviyat axlining jonkuyar xomiysi Alisher Navoiy bolalik chog‘larida alifbo qatori musiqa nazariyasini Xoja Burxondan puxta o‘zlashtirgan, ustoz, tog‘asi Muhammad Ali G‘aribiy, yaqin do‘stlari bilan musiqiy ijod va ijro sohalarida muntazam suxbatlar o‘tkazib kelgan.

Turli yo‘nalishdagi musiqa maktablari paydo bo‘ldi: Buxoroda «Shoshmaqom» ijrochilik maktabi, Samarqandda maqomchilik va bastakorlik, Farg‘onada sozandalik va katta ashulachilik maktablari.

Hozirgi kunda musiqa ta‘limi tizimi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufida bo‘lib, 300 dan ziyod bolalar musiqa maktablari, 5 o‘rta maxsus musiqa maktab-internatlari, 14 musiqa (san‘at) bilim yurtlari va Toshkent davlat konservatoriyasida amalga oshiriladi.

Lug‘at

tabiatan- по натуре

talabchan- требовательный

ziyoli- интеллигент

musiqa nazariyasi- теория музыки

MUKARRAMA TURG‘UNBOYEVA

Mukarrama Turg‘unboeva 1913-yilda Marg‘ilon shahrida o‘rtahol oilada dunyoga keldi. U ustozlari usta Olim Komilov, Tamaraxonim,

Yusufjon qiziqdan ta'lim oldi. 50 yil o'zbek raqs san'atiga sidqidildan xizmat qildi. 1957-yilda mashhur «Bahor» ansamblini tashkil etib, jahon bo'ylab 100 dan ortiq mamlakatlarda namoyish etib, dovrug'ini jahonga taratdi. O'zi yurakdan ijro etgan «Tanovor», «Katta o'yin», «Andijon polkasi», «Rohat» raqslari haligacha xalqimiz orasida doston bo'lib keladi. Uning san'atidan ta'sirlangan Hindistonning mashhur san'atkor yozuvchisi Ahmad Abbas shunday degan edi: "Hindistonni hech kim qilich va qurol bilan o'ziga tobe etolmagan. Ammo o'zbek qizi Mukarramaxonim Turg'unboyeva o'zining «Bahor» qizlari bilan, «Tanovor» raqsi bilan biz hindlarni taslim qildi, lol qoldirdi". Mukarrama Turg'unboyeva olam kezgan, ustoz san'atkor, milliy o'zbek raqsini qoyilmaqom qilib o'ynab, yuzlab xorij ellarning san'atsevarlariga o'zbek raqsini ko'z-ko'z qilib kelgan. Uning repertuaridan juda ko'p turli xildagi raqslar o'rin olgan edi. Mukarrama opa san'atda betakror shon-shuhrati bilan 1978-yil 20-noyabr kuni 65 yoshida hayot bilan vidolashdi. Uning xizmatlari davlatimizning faxriy unvonlari va mukofotlari bilan taqdirlangan. U xalq artisti, davlat mukofoti laureati; orden va medallari uning uy-muzeyida saqlanmoqda. Mashhur «Bahor» ansambliga uning nomi berilgan. 2001-yilda Prezidentimizning farmoni bilan «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan.

Lug'at

dovrug' - слава, известность
sidqidildan- от чистого сердца
tobe- зависимый, подчиненный
taslim bo'lmoq- сдаваться
qoyilmaqom- превосходно, чудесно

2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Raqs deganda nimani tushunasiz?
2. Raqs yo'nalishlarini aytib bering?
3. Respublikamizda raqs ansambllarini sanab bering?
4. Raqs san'atining namoyandalaridan kimlarni bilasiz?

3-topshiriq. Internetdan foydalanib, o'zbek xalq cholg'u asboblari, ularning tarixi haqida kichik hikoya yozing.

4-topshiriq. Gaplarning egalarini toping.

1. Aqlli qariya-oqib turgan daryo. 2. Ota-onasini ulug‘lagan insonni bir kuni kelib bolalari ham boshiga ko‘taradi. 3. Qarisi bor uyning barakasi bo‘ladi. 4. Ko‘pni ko‘rgan chol –jonli tarixning o‘zi. 5. Qadr ko‘raman desang, qarilarni ezozla. 6. Duo olgan omondir, qarg‘ish olgan yomondir (Sharq hikmatlaridan).

5-topshiriq. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling va grammatik tahlil qiling.

1. 8 декабря мы празднуем день конституции Республики Узбекистан.
2. Он решил изучить арабский язык.
3. Моя сестра узбекский язык знает лучше меня.
4. Учебный год в нашей стране начинается второго сентября.
5. После занятий мы самостоятельно занимаемся в читальном зале университета.



1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

O‘ZBEK XALQINING MADANIYATI, MILLIY URF-ODATLARI

Har bir taraqqiy etgan madaniyatli xalqning o‘z tili, urf-odati, adabiyoti, moddiy va ma’naviy boyliklari bo‘ladi. O‘zbek xalqi ham dunyodagi eng qadimiy madaniyatga ega bo‘lgan xalqlardan biri sifatida o‘zining ma’naviy va moddiy xazinasiga ega. Ajdodlarimizdan bizga qadimiy urf-odatlar, tantanalar xalqona meros bo‘lib avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Bu bilan biz xaqli ravishda faxrlansak arziydi. Buning uchun o‘sha qadimiy madaniyatni, urf-odatni bilishimiz, saqlashimiz va keyingi avlodlarga ham yetkazish muqaddas insoniy burchimizdir.

O‘zbeklarning an’ana va marosimlari ularning barcha turdagi yusnlari muqaddas sanalgan. Shu bois asrlar osha ajdodlardan asosan o‘zgarmasdan o‘tib kelgan. Shu jihatdan ham alohida ta’kidlamoq joizki, urf-odat,

an'ana, marosim va udumlar uzoq vaqt davom etgan tarixiy taraqqiyotning mahsulidir.

Har bir xalqning salomlashish bilan bog'liq bo'lgan o'z urf-odatlarini bor.

Dasturxon odobi, taom yemak qoidalarini xalqimizda azaldan mavjud. Dasturxon odobi qadimiy bo'lib dasturxonga avval keksalar qo'l uzatadilar.

O'zbek xalqining mehmondorchilik odati juda qadim zamonlardan boshlanadi. Bu odat odamiylik, saxovat, madaniy va ma'naviy aloqalar mezonini sifatida qadrlangan. Xalqimiz «Mehmon otangdek ulug'» degan maqolga doimo amal qilgan.

Xalqimizning insoniy tuyg'ular bilan bog'liq yaxshilikka undovchi udumlarimizdan biri kattaga hurmat, kichikka shavqatdir. Bu aqida hech qachon chetda qolmagan.

O'zbek xalqining uzoq asrlar qat'idan bizgacha yetib kelgan urf-odatlarini, mehr-oqibati, insoniy fazilatlarini bugungi kunda ham juda zaruriy, ma'naviy dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda va barkamol avlod tarbiyasida o'zining yangi qirralari bilan namoyon bo'lmoqda.

Lug'at

urf-odat- обычай

ajdodlar- предки

an'ana- традиция

azaldan- с давних пор, издревле

saxovat- щедрость

2-topshiriq. Milliy urf-odatlaringiz haqida nimalar bilasiz? Shular haqida gapirib bering.

3-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling. Nuqtalar o'rniga tegishli so'zlarni qo'ying va gaplarni grammatik tahlil qiling.

1. Biz ko'rik tanlovga katta tayyorgarlik
2. Har bir inson o'z Vatanini sevishi va kerak.
3. Yurtimizda zamonaviy va ko'rkam juda ko'p qurilmoqda.
4. Toshkent mustaqillik..... yana ham ko'rkamlashdi.
5. Navoiy fors tilida ham yaxsh yaratgan.

4-topshiriq. Quyidagi gaplarni rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1.Сегодня в Узбекистан приезжают из разных стран мира тысячи туристов.

2.Все спортсмены приняли участие на соревнованиях.

3.Землю солнце красит, а человека труд.

4.Если ты споткнулся о камень, убери его с дороги, чтобы другие не упали.

5. Сумел ошибиться - сумей и исправиться.

5-topshiriq. O‘z milliy taomlaringiz haqida so‘zlab bering.



1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling

BOTIR ZOKIROV

(1936-1985)

O‘zbek professional estrada san’ati asoschilaridan biri, dunyo tan olgan estrada yulduzi Botir Zokirov Toshkent shahrida san’atkorlar oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Karim Zokirov o‘zbek opera san’atining sarbonlaridan biri, onasi Shohista Saidova o‘zbek xalq qo‘shiqlari, laparlari va yallalarining ajoyib ijrochisi edi. Umuman Zokirovlar oilasi o‘zbek xalqining musiqa madaniyatiga salmoqli hissa qo‘shgan sulola sanaladi. Botir Zokirovning bolaligi, yoshligi, san’at muhitida o‘tadi. Uning xotirasi va eshitish qobiliyati juda kuchli edi. Rasm chizishga, she’r yozishga ishqiboz edi. San’atda birinchi ustozlari otasi Karimjon aka, onasi Shohista opa bo‘ldilar. U yoshlikdan qo‘shiqni dildan sevib kuylashni odat qildi. Uning birinchi qo‘shig‘i «Qaydasan, seni kutaman» deb atalgan. O‘n to‘rt yoshida u «Majnun» deb nomlangan suratni chizdi. 1952-yili Toshkent davlat konservatoriyasining vokal fakultetiga o‘qishga kirdi. O‘sha davrda estrada san’atida qaldirg‘och sanalgan «Yoshlik» estrada ansambliga qatnay boshladi. 1958-yilda shu ansambl bazasida O‘zbekiston Davlat estrada orkestri tuzildi. Orkestrni tuzishda Botir Zokirov jonbozlik ko‘rsatdi. 1957-yilda Moskvada o‘tkazilgan o‘zbek dekadasida mashhur arab kompozitori Dorish Al-

Attoshning «Arab tangosi» qo‘shig‘i birinchi marta yangradi va chaqmoq kabi Botir Zokirov nomini qo‘shiqsevarlar qalbiga olib kirdi. Botir Zokirov O‘zbek milliy estrada san'atini rivojlanishini jon dilidan istar edi. U faqat xalqona milliy estrada san'atining tarafdori edi va bu haqda kuyinib matbuotda fikrlarini bildirar edi. Shu yo‘lda tinimsiz izlanar edi. Umrining oxirgi yillarida ukasi Farrux Zokirov rahbar bo‘lgan mashhur «Yalla» ansambli bilan birgalikda ijod qildi. U sahnaga qanday yonib chiqqan bo‘lsa, umrinihg oxirigacha shunday yonib kuyladi. Hamisha har qanday vaziyatda imoniga, e'tiqodiga, o‘ziga sodiq qoldi. Bu buyuk san'atkor o‘zbek estradasiga asos soldi. Yoshlikdan chirmab olgan surunkali kasallik natijasida 49 yoshida olamdan o‘tdi. «O‘zbekiston xalq artisti» faxriy unvoni bilan, vafotidan so‘ng prezidentimiz farmoni bilan «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan. Yosh estrada xonandalarining Botir Zokirov nomidagi ko‘rik-tanlovi har yili o‘tkazilib turiladi.

Lug‘at

salmoqli- весомый

sarboṇ- ведущий

lapar- частушка

2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. O‘zbek estrada xonandalaridan kimlarni bilasiz? 2. Qaysi o‘zbek san'atkorlarining kuy va qo‘shiqlarini sevib tinglaysiz? 3. Rus, chet el xonandarlari va bastakorlaridan kimlarni bilasiz? 4. O‘zbekcha bilgan ko‘shig‘ingizni aytib bering?

3-topshiriq. Shifokor, o‘qituvchi, tikuvchi va boshqa kasb egalarini qachon va nima sababdan “artist” deb atash mumkinligini izohlang.

4-topshiriq. O‘zingiz yoqtirgan kino yoki teatr artisti haqida kichik hikoya yozing.

5-topshiriq. Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini aniqlang va rus tiliga tarjima qiling.

1. Dunyoda onadan ulug'roq zot bormi? 2. Dunyo ko'raman desang, o'qi! 3. Qani men ham o'qib olim bo'lsam edi. 4. O'zingga yoqqan narsani boshqalarga ham ravo ko'r. 5. Do'stingdan hech narsani ayama.

6-topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling va grammatik tahlil qiling.

1. Природа - это мать, а люди - её дети. И сыновий долг каждого человека сохранить и оберегать её. 2. Узбекистан располагает прекрасными возможностями для развития туризма. 3. Абдулла Авлони внес значительный вклад в развитие узбекской прессы. 4. Амир Тему́р был великим государственным деятелем, полководцем, покровителем духовности и религии. 5. Независимость Узбекистана стала торжеством справедливости. Мы обрели свой голос, нашли взаимоотношения с миром.



1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qilling.

MUXTOR ASHRAFIY

O'zbek musiqa san'ining atoqli namoyondalaridan biri mashhur kompozitor va dirijor, murabbiy va jamoat arbobi Muxtor Ashrafiy o'zbek musiqa madaniyatini rivoj topishiga katta xissa qo'shgan san'atkordir.

Muxtor Ashrafiy 1912-yili 11-iyunda Buxoro shahrida sozanda oilasida tug'ildi. Dastlab sharq musiqa maktabida, keyinchalik musiqa texnikumida o'qib yetuk sozanda va maqomdon ustalardan dutor chalishni va maqom ijrochiligi yo'llaridan ta'lim oladi. 1928- yilda esa Samarqand musiqa va xoreografiya institutini talabasi bo'ldi va bu dargohda etnograf va kompozitor N.N.Mironovdan kompozitorlik va dirijorlik ilmini, nazariy va notalashtirish uslublarini o'rganadi. Shu yillari Samarqand radiosida ham ishlaydi, qo'shiqlar hamda ko'p ovozli asarlar yaratadi. Institutni bitirgach, 1931 yilda Toshkentdagi o'zbek davlat musiqiy teatriga dirijor va musiqa rahbari qilib tayinlandi. 1943-1947-yillari Muxtor Ashrafiy o'zbek opera teatri dirijori, musiqa rahbari va direktori, 1947-1962 yillari Samarqand opera va balet teatri direktori, badiiy rahbari, bosh direjori, 1966-1975-yillarda Alisher Navoiy nomidagi akademik katta opera va balet teatri musiqa rahbari va bosh dirijori lavozimlarida ishiladi. Muxtor

Ashrafiy 1926-yildan boshlangan dirijorlik faoliyatida «Farhod na Shirin», «Gulsara», «Arshin mololon» musiqali drama komediyalaridan boshlab, «Zaynab va Omon», «Maysaraning ishi», «Uluqbek», «Layli va Majnun», «Zulmatdan ziyo», «Karmen», «Aida», «Traviata» operalari, «Jizel», «Shopeniana», «Shelkunchik», «Spartak», «Paxta» baletlari singari o'zbek kompozitorlari va jahon klassik kompozitorlarining yuzdan ortiq asarlariga dirijorlik qildi.

Muxtor Ashrafiy jahonning ko'p sahnalarida o'z dirijorlik mahoratini namoyish etgan bo'lib, uning asarlari ham turli davlatlarda musiqa jamoalarida ijro etilgan.

Ustozning san'atimiz rivojiga tushgan buyuk ishlari munosib taqdirlangan bo'lib, 1939 -yili O'zbekiston va 1951- yili sobiq ittifoq xalq artisti faxriy unvonlariga, uch marta davlat mukofotlari, Javoharlal Neru (1972) va Jamol Abdul Nosir (1973) nomli xalqaro mukofotlarga sazovor bo'lgan. Muxtor Ashrafiy 1975 -yili Toshkentda vafot etdi.

Lug'at

namoyonda- представитель

sozanda- музыкант

maqom- мелодия

sobiq- бывший

2-topshiriq. Matnda uchragan asarlar, ularning kim yoki nima haqida ekanini o'zbek tilida gapirib bering.

3-topshiriq. Quyidagi so'zlarni o'z o'rniga qo'ygan holda gap tuzing.

1. Ilonlarning, dori, zaharidan, tayyorlanadi, zahari.
2. Atrofga, xidi, xushbo'y, gullarning, atirdek, taralarmish.
3. Haydashni, o'rganishni, avtomobil, men, orzu qilaman.
4. Kema, mehmonni, kutib oldi, kapitani.

4-topshiriq. Gaplarni ko'chiring. Nuqtalar o'rniga fe'llarni qavs ichida ko'rsatilgan zamon shakllarida qo'llang va rus tiliga tarjima qiling.

1. Ahmad har qancha urinmasin, eshikni ocha.....(o'tgan zamon hikoya fe'li).
2. Men sizga o'g'lingiz haqida.....(o'tgan zamon maqsad fe'li).
- 3.

Ertaga balki sayr qilgani.....(kelasi zamon gumon fe'li). 4. Direktor hozir chet ellik hamkorlari bilan telefonda.....(hozirgi zamon davom fe'li). 5. Sizni anchadan beri kutib.....(aniq hozirgi zamon fe'li).

5-topshiriq. Hikoyani o'qing. Ravishlarni aniqlang. Rus tiliga tarjima qiling.

Xusayn Boyqaro doimo Navoiyning gaplariga quloq solar ekan. Bir kuni ertalab podshoh saroyga kirib ketayotib, Navoiyga qarabdi-da, ko'rsatkich barmog'i bilan boshini ko'rsatibdi. Shunda Navoiy tilini chiqarib qo'yibdi. Boyqaro maqqulagannamo boshini qimirlatibdi. Bu voqeani zimdan kuzatib turgan Navoiyning shogirdlari bu ishoraning sababini so'rabdilar. Navoiy shunday deb javob beribdi.

- Hukmdor, boshga doim baloni nima keltiradi?-deb so'ragan edi, men darhol «til» deb javob berdim.("Hikmatlar xazinasi"dan).



1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

MAQOM

Tarixdan ma'lumki, yer yuzida yashovchi barcha xalqlarning o'z madaniyati va san'ati, shuningdek, musiqiy madaniyati mavjud bo'lib, ularning ma'naviy boyligi hisoblangan. Ayniqsa, Sharq xalqlarining musiqiy madaniyatim har bir xalq milliy musiqasining asosini tashkil etgan, nazariy va Amaliy ijrochilik maktabiga ega bulgan.

«Maqom» so'zining lug'aviy ma'nosi arabchadan kelib chiqqan bo'lib, «joy», «makon» ma'nosini anglatadi. Musiqiy ma'noda tovush hosil qiladigan joy yoki aniq parda ma'nosini tushunish mumkin. Maqom aniq pardadan boshlanadigan va tugallanadigan kuy va ashulalar majmmuasini ifodalaydi.

“Maqom” atamasi VIII-X asrlardan Uklidis, Arastu singari Yunon olimlarning musiqa nazariyasiga bag'ishlangan asarlarining arab tiliga tarjima qilinishi natijasida qo'llanila boshlangan.

Maqomlarning nazariy va Amaliy tomonlarini IX-XII asrlarda yashab ijod etgan al-Forobiy, al-Xorazmiy, al-Sheroziy, Ibn Sino, al-

Husayniy singari ulug' olimlarning ko'plab asarlarida chuqur ilmiy sharhlar bilan asoslab berilgan.

Maqomlarning nazariy va Amaliy tomonlarini IX-XII asrlarda yashab ijod etgan al-Forobiy, al-Xorazmiy, al-Sheroziy, Ibn Sino, al-Husayniy singari ulug' olimlarning ko'plab asarlarida chuqur ilmiy sharhlar bilan asoslab berilgan.



MUSTAQIL O'QISH UCHUN MATNLAR

AQL VA BOYLIK

Bir cholning to'rt o'g'li bor ekan. Bir kuni chol o'g'illarini oldiga chaqirib: «O'qillarim, men qarib qoldim, orangizdan bittangiz oila boshlig'i bo'lishingiz kerak. Kim aqlli va davlatmand bo'lsa, u menga merosxo'r bo'ladi. Har qaysingiz menga aqlli va davlatli ekanligingizni ko'rsating,» - dedi, eng katta o'g'li zumrad ko'zli oltin uzuk taqqan qo'lini uzatib. «Mana mening boyligim, boy odamda aql ham bo'ladi», - dedi.

Ikkinchi o'g'li zarbop cho'ponini kiyib ko'rsatib, shunday dedi: «Shu paytda meni ko'rgan kishi boyligimga va aqlimga qoyil qoladi».

Uchinchi o'qli kumush va javohir qadalgan kamarini beliga bog'lab: «Hech kim umrida bunday kamarni ko'rgan emas», - dedi.

Chol boshini chayqab, katta o'g'illariga hech nima demadi. Kenja o'g'liga qarab: «Nega sen indamaysan, sen qaysi boyliging bilan maqtanasan?»

Kenja o'g'li shunday dedi: «Menda zumrad ko'zli uzuk ham yo'q, zarbop cho'pon ham yo'q, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqlli boshim bor».

Kenja o'g'lining javobi cholga yoqib, bor-yo'g'ini unga meros qoldiradigan bo'ldi. Katta o'g'illariga esa uning so'zidan chiqmaslikni nasihat qildi. O'g'illar bo'lsa, aytgan gaplaridan pushaymon bo'ldilar.

Shuning uchun aytadilar-da, aql har qanday boylikdan buyukdir, deb.

Lug'at

rivoyat- сказание, предание

zumrad- жемчук
zarbor choron- золотистый халат
kumush- серебро
nasihat- добрый совет
pushaymon- раскаяние, сожаление

NIMA SABABDAN QUYOSH TUTILADI?

Quyoshning tutilishida uch samoviy jism: Oy, Yer va Quyosh ishtirok etadi. Ma'lumki, Oy Yer atrofida aylanadi, Yer esa o'z navbatida to'xtovsiz quyosh atrofidagi orbita bo'ylab harakat qiladi. Shunday qilib, vaqti-vaqti bilan Oy Yer va uni yoritadigan quyosh o'rtasiga tushib qoladi. Shu holatda quyosh tutilishi degan hodisa ro'y beradi. Quyosh faqat yangi oy chiqqan kezlar tutiladi, chunki ayni shu vaqtda Oy Yerning quyoshga qaragan tomonida joylashgan bo'ladi. Agar Oyning orbitasi ham Yerning orbitasi joylashgan tekislikda bo'lganida edi, quyosh har yangi oy chiqqanida kech tutilar edi. Biroq Oy Yer atrofidagi 29,5 kunlik harakati vaqtida, odatda, Yer bilan Quyosh o'rtasidagi to'g'ri chiziqni chetlab o'tadi.

Munajjimlar Quyosh tutilishi boshlanishini va u qancha davom etishini oldindan sekund-sekundigacha aniq aytib bera oladilar. Shuningdek, ular oldindan bu tutilish to'la, qisman yoki halqasimon bo'lishini ham ayta olishadi.

Agar Oy Quyoshni butunlay to'sib qo'ysa, bu to'la tutilish deyiladi. Ammo Yer bilan Oy o'rtasidagi masofa doimo bir xil bo'lmaydi va u ko'pincha juda uzoq bo'ladi. Bu esa Quyosh tutilishiga hamisha ham imkon beravermaydi, shunda Oyning qora gardishi butun Quyoshni to'sib qo'yadi, biroq uning aylanasi bo'ylab ingichka ko'rinib turadi. Bu quyoshning halqasimon tutilishini bildiradi. Oyning Quyosh yuzasini qisman to'sib qo'yishi qisman tutilish deyiladi.

Quyosh har yili kamida ikki marta tutiladi. Ularning soni beshtagacha ham yetishi mumkin. Yer sharining ma'lum bir qismida quyoshning to'la tutilishini har 250—300 yilda bir marta kuzatish mumkin. Shuning uchun munajjimlar butun Yer yuzi bo'ylab Quyoshning to'la tutilishi ortidan «quvib» yurishadi.

Lug'at

samoviy – небесный
tutilish – затмение
chiziq – черта, линия

halqa – кольцо
chetlab o'tmoq – обходить стороной
munajjim- ясновидец

ILON QAYT QILGAN SUT

Buyuk tabib Abu Ali ibn Sino har kuni ertalab uyidan chiqayotganida, uning eshigi oldida bemorlar ikki tomonga tizilishib qator o'tirishar ekan. Uydan chiqib ketayotgan vaqtida u kasallarga qarab, ulardan hol-ahvol so'rar va: «Siz falon narsa bilan kasalsiz, buning davosi falon narsa», - deb o'tib ketar ekan.

Bir kuni u bir bemorga juda diqqat bilan qarab turibdi-da, unga lom-mim demasdan, boshqalardan hol so'ragani o'tib ketibdi. Bu holdan bemor juda xafa bo'lib, hatto xayotdan ham umidini uzibdi. Uyiga qaytib kelib: «Men shu kasalimdan o'lar ekanman. Agar o'lmaydigan bo'lganimda edi, Ibn Sino sal e'tibor berib qarardi. U bo'lsa so'rashga ham loyiq ko'rmadi. Endi go'ru kafanimning hozirligini ko'raveringlar», - debdi.

Shu tariqa bemor o'zining o'limini kutib yotibdi. Bir vaqt uyning burchagidagi teshikdan bir zaharli ilon chiqib, o'rmalab kelaveribdi. Ilon uyning o'rtasida turgan bir kosa sutga yaqinlashib, sutni o'z damiga tortibdi, bir ozdan keyin ichgan sutini qaytadan kosaga qayt qilib tashlabdi. Buni kuzatib turgan bemor ilon iniga qaytib ketgandan keyin, o'zicha o'ylab, bari-bir o'lar ekanman, tuzalishimdan-ku hech darak yo'q, kel, shu zaharli sutni ichay-da, o'lsam o'lib qo'ya qolay, degan qarorga kelibdi. So'ngra u sutni simirib ichibdi. Lekin bemor o'lmay, aksincha, tobora tuzala boribdi. Kundan-kunga tuzalib borayotganini sezgan bemor o'zining o'lmaganini, balki sog'lig'i borgan sari yaxshilanayotganini aytib, e'tiroz bildirish niyatida Abu Ali ibn Sino oldiga boribdi. Ibn Sino uning ahvolini ko'rib, juda hayron qolibdi va bemorga:

- Sen ilon qayt qilgan yegulikni qachon va qanday qilib topding? Kasalingning davosi zaharli ilonning qayti edi. Uni topishning iloji bo'lmaganidan, u kuni men sening kasalingni ham so'rab o'tirmagan edim,- debdi.

Shunda kasal Abu Ali ibn Sinoga qoyil qolib, bo'lgan voqeani batafsil gapirib bergan ekan.

Lug'at

umid- надежда
kafan- саван
e'tiroz- возражение
qayt qilmoq- рвать (рвота)
batafsil- досконально, подробно

KERAKSIZ O'T

Luqmoni hakim tabib va hakimlar piridir. Borliqda bo'lgan barcha o'simliklar Luqmoni hakim so'raganda, qanday dardga davo ekanligini u kishiga aytar ekan. Bir kuni Luqmoni hakim bog'da ishlayotganida gulga o'ralgan pechaksimon, lekin tikonli va sassiq hidli bir o'simlik qullariga tegib, qattiq achitibdi. Hazrati Luqmon achchiqlanib: «Shunday zaharli badbo'y o'simlikni Olloh nega yaratgan ekan», - deb uni guldan ajratib kuydirib yuboribdilar. Yillar o'tib, Luqmoni hakimning ko'zlarini parda to'sib, ko'r bo'lib qolibdilar. Lekin hakim shunchalik oqillik bilan ish tutar ekanlarki, hech kim u kishining ko'zlari ko'rmasligini sezmas ekan.

- Ustozim, - debdi Buqrat, - ijizat bersangiz, ko'zingizni ochay.

Hazrati Luqmon: «Shunday, aziz shogirdim, bir yildan beri ko'zim ochiq, lekin hech narsani ko'rmaydi,» - deya dardlarini aytibdilar, Buqrat Luqmonni hakim ko'zlarini muolaja qilayotganida, Luqmonning ko'zlarini achishib, yorisha boshlabdi va dimoqlariga tanish badbo'y hid urilibdi.

Hakim indamabdilar. Bir necha kundan keyin Buqrat ustozining bog'langan ko'zlarini ochibdi. Luqmoning ko'zlari oldingidan ham ravshanroq ko'ribdi. Hazrati Luqmon shogirdlaridan ko'zini qanday davolaganligini so'rabdilar. Mana bu tikonli pechakkina ko'z olmasi va qarog'iga zarar yetkazmay, ularni to'sgan pardani yula oladi, - deb Buqrat Luqmon kuydirgan o'tni ustoziga ko'rsatdi.

Lug'at

hakim – лекарь
tikonli – колючий
badbo'y – неприятный запах
dard – болезнь, недуг
muolaja – лечение, процедура
dimog' – нос
pechak – вьюн

ZIRAVORLAR QAYERDAN OLINADI?

Tabiatda turli-tuman o't-o'simliklar bor. Shuning uchun ularning aksariyati tibbiyotda va atir-upa ishlab chiharishda qo'llanayotganidan ajablanmasa ham bo'ladi. O't-o'lanlar keng qo'llaniladigan yana bir soha pazzandachilikdir. Hammaga ma'lumki, qiyomiga yetmay pishirilgan taomni ham turli xil ziravorlarni qo'shish bilan tansiq ne'matga aylantirib yuborish hech gap emas. Shu bilan birgalikda, ayrim ziravorlar o'tkir ta'm va hidga egaki, ularni ishlatishda juda ehtiyot bo'lish kerak. Dunyoda ziravorlar son-sanoqsizdir. Biz ulardan Yevropada ma'lum va mashhur bo'lganlari to'g'risida bir-ikki og'iz ma'lumot bermoqchimiz.

Rayhon — muloyim, bir oz shirin, ta'mi qalampirni eslatadigan ziravordir. U ko'pincha salatlar va achchiq gazaklarga qo'shiladi.

Mavrak yog'li ovqatlarga qo'shilganda yaxshi foyda beradi. Uning hidi juda o'tkir, ko'pincha pishloq ishtahani qo'zg'ovchi hid berish uchun uning yaproqlariga o'raladi.

Boshqa bir ziravor - chebretsning bir necha turi bor. Ularning vatani O'rta Yer dengizi sohillarida joylashgan mamlakatlardir. Chebretsning o'tkir ta'mi o'ziga xos, uni yangi uzilgan holda ham, quritilgan holda ham ishlatish mumkin.

Chinnigul shirin va achchiq taomlarga solinadi. Bu bir oz shirin va xushbo'y ziravor. Molukka orollarida o'sadigan chinnigul daraxtining gulidan tayyorlanadi.

Yalpizni bilmaydigan kishi bo'lmasa kerak. Uning inglizcha nomi qadimgi yunon mifasi (tabiat kuchlarining ayol obrazidagi ilohi) sharafiga qo'yilgan. Rivoyatlarda aytilishicha, bir iloha o'z kundoshini rashki zo'rligidan yalpizga aylantirib qo'ygan ekan.

Yalpiz ham ziravor sifatida ishlatiladigan chebrets, rayhon, mavrak, rozmarin, mayoran kabi labgullilar oilasiga kiradi. Yalpizning 20-25 turi bor, ammo turli taomlar tayyorlash, saqqichlarga xushta'm qo'shimchalar qo'shish uchun ko'pincha bog' yalpizi ishlatiladi.

Lug'at

ziravor – приправа

qalampir – перец

ishtaha – аппетит

chinnigul – гвоздика

xushta'm - ароматный

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rasulov R.Mirazizov A. O‘zbek tili. OO‘Y rus guruhleri uchun darslik. T.: Aloqachi. 2005.
2. Rasulov R.Mirazizov A. O‘zbek tili. O‘rta maxsus ta’lim muassasalari rus guruhleri uchun qo‘llanma. T.: Fan va texnologiyalar. 2007.
3. Adilova S., To‘xtamirzayev M. O‘zbek tili. Bakalavriatning barcha yo‘nalishlari rusiyzabon talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. T.: Fan va texnologiyalar. 2007.
4. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. Akademik litseylar uchun darslik. T.: Sharq. 2004.
5. M.Usmonova, E.Azlarov., G‘.Sharipov. O‘zbek tili T., 1987
6. O‘.Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar T., 2006.

**ADILOVA Saodat Abdurahimovna
SIDIQOVA Munira Mirmahmudovna
QUVONDIQOVA Ilmira Sobirovna
MIRAZIZOV Alisher Mirhosilovich**

AMALIY O‘ZBEK TILI

**OLIY O‘QUV YURTI RUS GURUHLARI UCHUN METODIK
QO‘LLANMA**

**Bosishga ruxsat etildi 29.12.2010. Bichimi 60x84¹/₁₆.
Bosma tabog‘i 7,5. Adadi 300 nusxa. Buyurtma №**

**Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Yusuf Xos Hojib, 103.**